



Birlashgan Millatlarning ta'lim, fan va madaniyat ishlari bo'yicha tashkiloti

# HAQIQAT IZLAB: O'ZBEKISTONDA JOURNALIST SURISHTIRUVINING SAMARADORLIGI OMILLARI

O'quv qo'llanma

Tuzuvchilar:  
Ya.Mamatova  
S.Sulaymanova

YUNESKO nashrlari seriyasi

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarni rivojlantirishni qo'llab - quvvatlash

**YUNESKONING O‘ZBEKISTONDAGI VAKOLATXONASI**

**Ya. Mamatova, S. Sulaymanova**

**HAQIQAT IZLAB:  
O‘ZBEKISTONDA JURNALIST  
SURISHTIRUVINING SAMARADORLIGI  
OMILLARI**

*O‘quv qo‘llanma*

**«Extremum-Press»  
Toshkent – 2015**

UO‘K 336.71:338.33

KBK 76.01

J91

**Ya. Mamatova, S. Sulaymanova**, tuzuvchilar. Haqiqat izlab: O‘zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorligi omillari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Extremum-press», 2015. – 80 b.

UO‘K 336.71:338.33

KBK 76.01

Taqrizchilar: **G. Bobojonova** – f.f.n., jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi direktori;  
**A. Nurmatov** – f.f.n., O‘zDJTU dotsenti.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada jurnalist surishtiruv tarixi, nazariyasi va amaliyotiga doir dolzarb masalalar o‘z aksini topgan. Jurnalist surishtiruvining tabiati, xususiyatlari, predmeti va vazifalariga doir bahs-munozaralar, tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga yuz tutgan mamlakatlarda ayniqsa qizgin avj olmoqda. Bu jihat demokratik yangilanish yo‘lidan borayotgan, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilgan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham juda ahamiyatlidir. Shu ma’noda o‘quv qo‘llanma YUNESKO tomonidan jahon tajribasi, jurnalist surishtiruvining ilg‘or an‘analari va usullariga tayangan holda ishlab chiqilgan tavsiyalari, jurnalist surishtiruv hamda an‘anaviy tahliliy jurnalistikaning asosiy jihatlarini taqqoslash asosida taqdim etilgan.

Amaliyotchi-jurnalistlar, OO‘Y jurnalistika fakultetlari magistratura va bakalavriat talabalari, OAV va ommaviy kommunikatsiya sohasi tadqiqotchilari, jurnalist kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi tinglovchilari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma O‘zR OO‘MTVning Muvofiqlashtiruvchi kengashida muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan (2014-yil 8-iyuldagi 14-sonli majlis bayonnomasi).

Birlashgan millatlarning fan, ta‘lim va madaniyat ishlari bo‘yicha tashkiloti tomonidan 2015 yilda nashr qilindi

7, Place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

va YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi

O‘zbekiston, 100037, Toshkent sh., Ergashev ko‘chasi, 9



Mazkur nashr Attribution-ShareAlike 3.0 IGO (CC-BY-SA 3.0 IGO) (<http://creativecommons.org/licenses/by-sa/3.0/igo/>) licenziyasi ostida erkin foydalanish uchun mavjud. Ushbu nashrdan foydalanuvchilar YUNESKO kutubxonasidan erkin foydalanish qoidalariga rioya qilishlari shart ([www.unesco.org/open-access/terms-use-ccbysa-rus](http://www.unesco.org/open-access/terms-use-ccbysa-rus)).

Ushbu nashr YUNESKO tomonidan 2012-yilda chop etilgan “Tarixga asoslangan tadqiqot: jurnalist surishtiruvini o‘tkazish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi” ning lokallashtirilgan ko‘rinishi.

Ushbu nashrda keltirilgan nomlar va berilgan ma‘lumotlar biror bir mamlakatning huquqiy maqomi, hududi, chegaralari, shahar va tumanlari yoki ularning tegishli boshqaruv organlariga nisbatan fikr-mulohazalar YUNESKOning nuqtai nazarini ifoda etmaidi.

Ifoda etilgan fikr va qarashlarga tuzuvchilar mas‘uldirlar. Ularning nuqtai nazari YUNESKOning rasmiy pozitsiyasiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin hamda Tashkilotga hech qanday majburiyat yuklamaydi.

Mazkur nashr YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasining “O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash” dasturi doirasida Estoniya Respublikasi va Shveytariyaning O‘zbekistondagi elchixonasining moliyaviy ko‘magi bilan chop etildi.

Muqovadagi tasvirlar: Anne Barkatniki

Grafika: Armen Saribekyan

Muqova muallifi: Armen Saribekyan

Maket: Rinat Sharipov

Yangi Fazo Printda chop etildi

Toshkentda chop etildi.

ISBN 978-9943-4104-3-5

© «Extremum-Press» nashriyoti, 2015 y.

© Ya. Mamatova, S. Sulaymanova, 2015 y.

© UNESCO, 2015

## MUNDARIJA

<b>So‘zboshi</b> .....	4
<b>Kirish</b> .....	5
<b>1-bob.</b> Surishtiruvning mumtoz namunalari .....	8
<b>2-bob.</b> Jurnalist surishtiruvining predmeti .....	18
<b>3-bob.</b> Surishtiruv gipotezasi .....	25
<b>4-bob.</b> Gipotezani tekshirish usullari .....	37
<b>5-bob.</b> Insonlar – axborot manbai .....	47
<b>6-bob.</b> Surishtiruv materialini tashkil etish.....	59
<b>7-bob.</b> Materialning sifatiga baho berish .....	73
<b>Xulosa</b> .....	77
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	78

## SO‘ZBOSHI

Ommaviy axborot vositalari (OAV) demokratiya, rivojlanish va ijtimoiy muloqotni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. OAV bizni xabardor qilish, bilim berish, ijtimoiy baxs-munozaralarni o'tkazish va fikrimizni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

So'z va tasviriy ma'lumot erkinligini ta'minlashda ko'maklashish vakolatiga ega bo'lgan YUNESKO, OAVning dunyoda rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Jurnalistika ta'limini qo'llab-quvvatlash erkin va mustaqil OAVni rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. YUNESKO jurnalistlarga yangi bilimlar va fanlarni o'qitish uchun jurnalistika ta'limini rag'batlantiradi.

Joffrey Niarota, Butunjaxon matbuoti - 2002 YUNESKO / Gilermo Kano mukofoti laureati, Zimbabvedagi "Deyli Nyus"ning sobiq muharriri o'z so'zlarida shunday deydi: "Matbuot erkinligi demokratiya va rivojlanish uchun eng muhim tamal toshi xisoblansa, unda yaxshi tayyorgarlikka ega malakali jurnalistlar erkin matbuotning asosidir". Faqat chuqur bilimga ega bo'lgan jurnalistlarga iqtisodiy rivojlanish, demokratiya va mas'uliyat uchun samarali kurashishi mumkin.

O'zbekistonda OAVni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida YUNESKO Vakolatxonasi ko'magida tayyorlangan mazkur nashrlar hozirgi va bo'lajak jurnalistlarning OIV/OITS va ekologiya jurnalistikasidan tortib, gender masalalari va jurnalist surishtiruvigacha bo'lgan ayrim muhim va dolzarb masalalar xususida kengroq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Krista Pikkat

YUNESKOning O'zbekistondagi vakili

## KIRISH

Mazkur o'quv qo'llanma yaratish zarurati va uning dolzarbligi ayni paytda jahon miqyosida va dunyoning turli mintaqalari doirasida shakllangan geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va axborot voqealari ahamiyati ortib borayotgani bilan belgilanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, global axborot jamiyatining vujudga kelishi, turli ommaviy axborot kanallari orasidagi raqobatning kuchayishi alohida davlatlarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi OAVning ham, shunday tizimga faol tarzda jalb etilishini taqozo qiladi. Zero, bugungi kunda mamlakatimiz "jahon maydoni va global moliyaviy-iqtisodiy bozorining tarkibiy qismi"<sup>1</sup> hisoblanadi.

O'zbekistondagi keng miqyosli islohotlarning asosiy vazifasi, Prezident I.A.Karimov to'g'ri belgilab berganiday, "o'tish davri va milliy davlatchilik shakllanishi sharoitlarida zarur bo'lgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga"<sup>2</sup> bosqichma-bosqich o'tishdir. Shu ma'noda, hozir O'zbekiston mass-medialari, o'ziga xos milliy xususiyatlar va tarixiy an'analarga ega bo'lgani holda, fikrlar xilma-xilligi va axborotni tezkor uzatish tomon faol harakatlanmoqda. Uning erkinlikka intilishi, o'z huquqlari uchun kurashi takomillashayotgan sotsium hayotida o'z o'rnini anglash, bozor iqtisodiyotiga ega huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonidagi rolini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizdagi turli media va jurnalistlar tahliliy, surishtiruv va bahs-munozarali materiallarni tayyorlashda kasbiy faoliyatning jahon andozalarini o'zlashtirishiga to'g'ri kelmoqda. Aholining turli qatlamlari, turli kasb egalari joriy voqealarning chuqur, har tomonlama tahlilini, demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlariga jiddiy to'siq bo'layotgan muammolarning tezkor muhokamasini kutadi. Hayotning o'zi jurnalistlardan ushbu, «o'ta og'ir, kuchli irodani talab qiladigan jabhada tom ma'noda fidokorlik ko'rsatishni»<sup>3</sup> talab etmoqda. U «ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rnini va rolini yanada mustahkamlash vazifasini qat'iy qilib qo'yimoqda»<sup>4</sup>. Ayni paytda davlatning sa'y-harakatlari matbuot bilan o'zaro "munosabatlarining ustuvor jihatlari to'g'ri belgilash"<sup>5</sup>, "ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish"<sup>6</sup> ga yo'naltirilgan. Shu munosabat bilan parlamentga fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda "ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning,

<sup>1</sup> Каримов И.А. Жаҳон молиявий - иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.– Б.11.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маъруза, 2007-йил 30-август. // Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б.37.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини ақс этириш. // Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 139.

<sup>4</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 27-yanvar. // Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.18. – Т.: O'zbekiston, 2010. – B.142.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr. // Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – O'zbekiston, 2011.– B. 73.

<sup>6</sup> O'sha joyda.

davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligi<sup>7</sup>ni ta'minlovchi qator qonunlarni qabul qilish taklif etildi (Darvoqe, joriy yilda O'zbekistonda "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi). Mana shuning uchun ham bugungi kunda jurnalist surishtiruvini tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilayotir.

Jurnalist faoliyatining ushbu yo'nalishiga ham jurnalistlar, ham OAV auditoriyasi tomonidan qiziqishning o'sishi nafaqat yuqorida qayd etilgan omillar, balki jurnalistikaga davlat institutlari faoliyatini ijtimoiy nazorat qilishning kuchli vositalaridan biri sifatida, amaldorlarning o'zboshimchaligi va korrupsiyaning kengayishiga qarshi kurashning samarali vositasi sifatida qaralayotgani bilan ham izohlanadi. "Biroq bu vazifalarni jurnalistikaning standart usullari yordamida bajarishning har doim ham iloji yo'q. Amaldor korrupsioner va poraxo'r ekani uning peshonasiga yozib qo'yilmagan. Uning matbuot kotibi so'z boyligida esa bunday gaplar yo'q. Aynan shuning uchun ham gazeta tahririyatlari va televideniya ma'lumotlarni mustaqil ravishda topib kelishga qodir jurnalistlar paydo bo'la boshladi, ular yozadigan materiallar esa "Jurnalist surishtiruv" rukni ostida berila boshlandi"<sup>8</sup>.

Jurnalistika sohasida faoliyat yurituvchi ko'pgina mutaxassislarining jurnalist surishtiruv borasidagi fikri ushbu hodisa faqat so'z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga keng yo'l berilgan, rivojlangan, demokratik mamlakatlar matbuotiga xos ekaniga borib taqaladi. Biroq, bu tadqiqotlarning ushbu yo'nalishi rivojlanayotgan demokratiya sharoitlarida mumkin emasligini bildirmaydi. Aynan shunday mamlakatlarda demokratik jurnalistikaning eng yaxshi an'analari va uslubini o'zlashtirish va rivojlantirish zarur. Bu – davlat tomonidan olib borilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar muvaffaqiyatining garoviga aylanadi.

Jurnalist surishtiruv jamiyatdagi demokratiya holatining ko'rsatkichlaridan biri sifatida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish va barcha hokimiyat tarmoqlari orasidagi muvozanat tamoyiliga erishish vositasi hisoblanadi.

Surishtiruv jurnalistikasi ilg'or g'arb mamlakatlarida yetakchilik mavqeiga allaqachon ega bo'lgan. Bunday jurnalistika mass-medialar auditoriyasining muhim voqealar, hodisalar, jarayonlarning yashirin tomonlari haqidagi haqiqatni bilishidan manfaatdor. "Sinchkovlik va puxtalik bilan olib borilgan surishtiruv natijasida olingan ma'lumotlarga voqeaning haqiqiy mohiyatini ochib berishi, u bilan bog'liq odamlarning xatti-harakatlarini izohlashi, shuningdek, jurnalistlar haqiqatan ham odamlar manfaati yo'lida xizmat qilishini hamda ular "xalq hokimiyati" vakillari ekanini o'quvchiga ko'rsatishi mumkin"<sup>9</sup>.

"Jurnalist surishtiruv"<sup>10</sup> kitobi muallifi "jurnalist surishtiruv fikrlar jurnalistikasining eng mazmundor qismi" ekanini qayd qiladi. Jurnalist surishtiruv natijalari bo'yicha chop etilgan maqolalar o'z kasbining ustalarida ham, oddiy o'quvchilarda ham katta qiziqish tug'dirishi bejiz emas. Bunday materiallar ularni chop etuvchi nashrlar, tele- va radiodasturlarga katta shonshuhrat olib keladi. Bob Vudvord va Karl Bernsteyn, Gyunter Valraff va Gerxard Kromshreder, Don Barlett va Jeyms Stil kabi chinakam jasur surishtiruvchilar, ishining haqiqiy ustalari, o'z mamlakatlarining milliy qahramonlariga aylangan. AQSHda ancha yillardan buyon har yili "100ta eng yaxshi surishtiruv" nashri chiqadi. So'nggi yillarda jurnalist surishtiruvlariga ixtisoslashgan ko'plab ommaviy axborot vositalari ham faoliyat yuritmoqda.

Ko'plab xorijiy mualliflar tomonidan taklif etilayotgan surishtiruvni o'tkazish mohiyati, mexanizmlari, shakllari va usullari haqidagi gipotezalar axborotni qayerdan va qanday qilib topish

---

<sup>7</sup> O'sha joyda.

<sup>8</sup> Журналистское расследование: История метода и современная практика./ Под общ. ред. А. Д. Константинова. – СПб.: ИД «Нева», 2001. – С.12.

<sup>9</sup> Нестеренко Ф.П., Ирнazarов К.Т., Маматова Я.М. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. Учеб. пос. Часть 1. – Т.: Зар калам, 2002. – С. 135.

<sup>10</sup> Муминов Ф.А. Журналистское расследование. Учебное пособие. – Т.: Университет, 2002. – С.5.

emas, balki hikoya qilish muhimligi tamoyiliga asoslangan bo'lib, "gipotezaga asoslangan voqeani hikoya qilishi u voqea tekshirilgunga qadar, bor-yo'g'i, gipoteza ekanini ta'kidlaydi. Jurnalist voqeaning haqiqiylikini tekshirish yoki uni rad etish orqali qanday ma'lumotni izlash kerakligi va uni qanday talqin qilish lozimligini yaqqolroq ko'rish mumkin. Muharrir yoki noshir surishtiruv loyihasini amalga oshirish imkoniyatini hamda u bilan bog'liq xarajatlar, kutilayotgan foyda va uni amalga oshirishdagi rivojni osonlik bilan baholashi mumkin"<sup>11</sup>. Mazkur qo'llanma tuzuvchilari ham xorijiy hamkasblarining nuqtai nazariga qo'shilgan holda, mamlakat media olamida rivojlangan demokratik mamlakatlar mass-medialaridagi kabi surishtiruv materiallari unchalik ko'p emasligiga qaramasdan, O'zbekiston OAVda ushbu faoliyat turining ham tarixiy, ham zamonaviy bo'lagida ko'zga tashlanadigan chizgilar shakllandi va shakllanmoqda, degan fikrni ilgari suradi.

Mazkur qo'llanma jurnalist surishtiruvlarini o'tkazish bo'yicha xorijiy tajriba nazariyasi va amaliyotini umumlashtirish asosida O'zbekiston matbuotida ushbu faoliyat yo'nalishi va u bilan bog'liq uslubning hozirgi rivojlanish holatini tahlil qilishga o'ziga xos urinishdir.

---

<sup>11</sup> Марк Ли Хантер и др. Исследование, основанное на истории: учебное пособие по проведению журналистских расследований. – ЮНЕСКО, 2012. – С.5.



## 1-bob. SURISHTIRUVNING MUMTOZ NAMUNALARI

Ommaviy axborot vositalarining vazifasi haqidagi an'anaviy tasavvur OAV auditoriyasini yangiliklar, ya'ni jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi muhim, dolzarb voqealar haqida xabardor qilishi va bu bilan bizni o'rab turgan voqelikning real manzarasini, undagi turfaliklar qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlab berishi kerak, degan fikrdan iborat. Biroq keyingi o'n yilliklar ichida jurnalistika sohasining rivojlanishi qoidaga aylangan ushbu tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirdi, to'g'rirog'i, sezilarli darajada kengaytirdi. Endi yuqorida bayon etilgan vazifalar bilan birgalikda, zamonaviy ommaviy axborot vositalari o'z kuchiga tayanib va, albatta, halol vositalar yordamida adolat va qonun oldidagi tenglik tamoyillarini himoya qilishi, korrupsiya, yolg'on, vijdotsizlarcha firibgarliklar yo'lida to'siq bo'lishi kerak.

“Surishtiruv”, “Surishtiruv jurnalistikasi” tushunchalari bugungi kunda jurnalistlarning ham, o'quvchilar ommasining ham so'z boyligidan mustahkam o'rin olgan. Sho'ro davri jurnalistikasida ushbu tushunchalar hozirgi matbuotda qaysi ma'noda qo'llanilayotgan bo'lsa, shu ma'noda deyarli ishlatilmagan. Zamonaviy jurnalist surishtiruvlarining mohiyatiga murojaat etiladigan bo'lsa, buning sababi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda, asosan, salbiy ma'noga “o'ralgan” “favqulodda hodisalar va voqealar, ya'ni fojialar, jinoyatlar, moliyaviy firibgarliklar va korrupsiya faktlari, tarix sirlari hamda undagi «qora» sahifalar va hokazolar eng ommabop mavzular hisoblangan”<sup>12</sup>. Ana shu holatdan kelib chiqilsa, hozirgi surishtiruvlar sho'ro zamon jurnalistikasida nima sababdan bo'lmagani oydinlashadi.

Ta'kidlash joizki, qaysidir ma'noda, jurnalist surishtiruvi ham eski, ham yangi janr va faoliyat turi hisoblanadi. Chunki surishtiruv xarakteridagi materiallar jurnalistika amaliyotida mazkur janr nazariyasi va jurnalist faoliyatining tegishli yo'nalishi shakllanishidan ancha oldin paydo bo'lgan.

Surishtiruv jurnalistikasining qadimiy va shonli tarixi bor. Jurnalist surishtiruvi hozirgi tushunchadagi janr sifatida Amerikada paydo bo'lgan. Aniqrog'i, buning uchun XIX – asr oxiri – XX – asr boshidagi amerikalik mualliflardan minnatdor bo'lish kerak. Surishtiruv jurnalistikasi ana shu ikki asr chegarasida matbuotda fosh etuvchi maqolalarni chop etgan “makreykerlar” – “balchiq tituvchilar”dan boshlanadi. Ularning faoliyati ildizi ushbu mamlakatning buyuk publitsistlari va yozuvchilari ijodiga borib taqaladi.

Yangi janrning ijtimoiy ahamiyatini materiallarning mavzusi ham ta'kidlab turibdi: korrupsiya, katta shaharlarda avj olgan mehnat reketi, firibgarlik. “Balchiq tituvchilar”ning o'tmishdoshlari ham ko'p bo'lgan. Ular jamiyatni o'zi haqidagi haqiqatni qabul qilishga tayyorlagan.

Amerikalik mashhur jurnalist, keyinchalik yozuvchiga aylangan Semyuel Lengxorn Klemens (1835–1910) haqli ravishda birinchi surishtiruvchi jurnalistlardan biridir. U o'z ijodiy yo'lini “Territorial Enterprayz” gazetasining xodimi sifatida Mark Tven taxallusi ostida boshlagan.

“Territorial Enterprayz” muharriri Jo Gudmen o'z xodimlaridan “qat'iy maslak va uni himoya qilish uchun yetarlicha jasorat”ni talab qilganida, Mark Tvenni nima idora etganini aytish qiyin. Biroq bu yerga 1862-yil avgustida reportyor va ocherknavis lavozimiga kuniga 5 dollar maosh bilan qabul qilingan S.Klemens bu so'zlarga jiddiy qaraydi. Reportyorning e'tiborini poraxo'r amaldorlar, mahalliy deputatlar, sudyalalar tortadi. Tez orada bo'lg'usi yozuvchi Nevada shtatida anchagina obro'li shaxsga aylanadi. 1866-yil maydan boshlab, u San-Fransiskoda chiqadigan “Morning Koll” («Morning Call») bilan hamkorlik qila boshlaydi va ushbu shaharda o'ziga xos bosh senzorga aylanadi. Uning so'zlari bilan aytganda, bu yerda

---

<sup>12</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.:Аспект Пресс, 2002.- С.4.

“havoning o‘zi axloqsizlik va axloqsizlik haqidagi mish-mishlar bilan zaharlangan edi”<sup>13</sup>. Uning poraxo‘r amaldorlar, firibgarliklar hamda mahalliy hokimiyat va ishbilarmonlar tomonidan qilingan suiste‘molliklar haqida Nevada va San-Fransisko matbuotida chop etgan maqolalari jamoatchilik e‘tiborini jalb etadi. Jurnalistning mahorati ham “voqealar va faktlarning kutilmagan, yangicha g‘ayrioddiy muhokamasini tabiiy va oddiy holatga aylantirganki, uning matbuotdagi materiallari xususida o‘quvchilar hech qanday shubha va gumonga borishmagan”<sup>14</sup>.

Uning sayohat janrida yozilgan “Yengil yuk bilan” deb nomlanuvchi ilk kitobida surishtiruv janrining unsurlari ko‘zga tashlanadi. Ushbu asar Nevadadagi “kumush talvasasi”ning kelib chiqish sabablarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ammo unda asosiy mavzudan tashqari “mini-surishtiruvlar” deb atash mumkin bo‘lgan kichik mavzular ham mavjud. Kitobda surishtiruvning ikkita – real va parodiya plani qo‘shilgan. Agar Tven parodiya planini yaratishda o‘ylab topilgan hujjatlar, latifalar hamda konlarda odamlar aytadigan ko‘p mish-mishlarni qo‘llagan bo‘lsa, real surishtiruvda haqiqiy manbalardan – faktlar, hujjatlar, ma‘lumotnomalar, gazetadagi maqolalar, guvohlarning shohidliklaridan foydalanadi.

1873-yil dekabrda Tvenning Ch.Uorner bilan hammualliflikda yozgan “Zarhal asr” asari chop etildi. Fosh etuvchilik kayfiyati falsafiy mohiyat kasb etgan ushbu kitob go‘yoki bombaday portlaydi. Unda hamma narsa bor edi: axloqiy tanazzul, yangi boyvachchalarning beadabligi, saylovchilarning pulga sotilishi, shubhali moliyaviy bitimlar, jamiyatni qamrab olgan boylik orttirish istagi... Amerika ilk bor o‘ziga toshoyna orqali nazar soldi va ko‘rganlaridan qo‘rqib ketdi. Tanqidchilar mualliflarni “Zarhal asr”da “eng yaramas, eng jirkanch” narsalarni ko‘rsatganliklari uchun tanqid qilganlaridan, “u Yevropada qayta nashr etilishi” haqidagi fikrning o‘zidanoq uyalib ketgandilar<sup>15</sup>.

Surishtiruv mavzusi ustida ishlash jarayonida muallif bir necha bor “kasbni almashtirish usuli”dan foydalanadi. Bu esa unga mazkur muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rish imkonini beradi. U o‘zini kotib yordamchisi rolida ham, “kumush talvasasi” ishtirokchisining rolida ham, “rudadan zerikarli va toliqtiruvchi tarzda kumush ajratib olish ishlari bilan mashg‘ul” ishchi rolida ham sinab ko‘radi. Tven o‘zida sinab ko‘rgan oxirgi ikkita kasb unga yuz berayotgan voqealar mohiyatiga “ichkaridan” nazar tashlashga yordam berdi. “O‘zida sinab ko‘rdi” degan gap muallif tomonidan shaxsiy kuzatuvlar asosida qilingan baholar va xulosalarga salmoqlik baxsh etadi<sup>16</sup>.

Muallif axborot to‘plashning turli usullaridan foydalanib, aniq ma‘lumotlarga asoslangan materiallarning katta hajmi ustida ishlaydi, o‘sha paytdagi voqealarning ko‘plab guvohlari va ishtirokchilarini savolga tutib, turli taxminlar ustida mulohaza yuritadi va ularni tekshiradi. Bu esa har tomonlama surishtiruv o‘tkazilganidan dalolat beradi.

Mark Tven boshlab bergan surishtiruv asoslari keyinchalik uning ko‘plab izdoshlari faoliyatida rivojlanadi.

XIX–asr oxiri – XX–asr boshida Amerikada “makreykerlar” – “balchiq tituvchilar” tushunchasi paydo bo‘ladi. AQSH prezidenti Teodor Ruzvelt 1906-yil 10-fevralida “Ameriken megezin” jurnali bilan bahs-munozara davomida tanqidiy kayfiyatdagi jurnalistlarni ilk bor ana shunday deb ataydi<sup>17</sup>. U o‘z nutqida XVII – asrda yashab o‘tgan

<sup>13</sup> Фонер Ф. Марк Твен – социалист-критик. – М.: Просвещение, 1961. – С.26.

<sup>14</sup> Нестеренко Ф.П., Ирнazarов К.Т., Маматова Я.М. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. Учеб. пос. Часть 1. – Т.: Зар калам, 2002. – С.136.

<sup>15</sup> Журналистское расследование: История метода и современная практика / Под общ. ред. А.Д. Константинова. – СПб.: ИД «Нева», 2001. – С. 25–26.

<sup>16</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С.47.

<sup>17</sup> Качалин А., Урбан А. Папарацци – следствие или причина? // Эхо планеты. 1997. №38.

ingliz adibi va voizi Jon Benyanning “Darveshning yo‘li” romanidagi qahramonga o‘xshab moviy osmonga nazar tashlashni istamasdan, oyoqlari bilan balchiq qorishni ma‘qul ko‘ruvchi jurnalistlar va yozuvchilarni “balchiq tituvchilar” deb ataydi. Prezident shu tarzda ularning faoliyatidan noroziligini bildiradi.

Ruzvelt g‘aroyib shaxs edi. U Amerika davlat arboblari orasida birinchilardan bo‘lib prezident shaxsini ommalashtirishda matbuotning oshib borayotgan rolini tushunib yetdi. Sal keyinroq AQSHda “balchiq tituvchilar”ning taraqqiyparvar harakati paydo bo‘ladi. Makklyur, Steffens, Sinkler, Beyker, Filipp, Salliven, Uayt va boshqa jurnalistlar mazkur harakatning ko‘zga ko‘ringan vakillariga aylandi. Ushbu mualliflar jamiyat e‘tiborini korrupsiya, ijtimoiy tengsizlik, monopoliyalar zo‘ravonligi, katta shahardagi qarama-qarshiliklar kabi turli illatlarga va suiste‘molliklarga jalb etishni o‘zlarining kasbiy burchlari deb bilishdi. Jamiyatdagi illatlarning namoyon bo‘lish shakllarini fosh etish, adolat va tartib ideallari uchun kurashish – ushbu harakat vakillari faoliyatining asosiy tamoyillari hisoblangan.

Bunda “Arena” jurnalining asoschisi Benjamin Flauerning xizmatlarini alohida qayd etish joiz. Ushbu nashr o‘z sahifalarida o‘sha paytdagi Amerika voqeligining eng dolzarb muammolarini ko‘targan. Flauer Amerika jamiyatining axloqiy ustunlariga fuqaro va jurnalist sifatida tanqidiy nazar bilan qaraydi hamda uning ma‘naviy va axloqiy poklanishini orzu qiladi. 1898-yili jurnalda K.Ridpetning maqolasi nashr etiladi. Unda so‘z Amerika xalqini respublikachilar hukumati emas, balki korrupsiya botqog‘iga botgan o‘n to‘qqizta senator boshqarayotgani haqida boradi. Muallif ularni “ko‘zga ko‘rinmas imperiya” deb ataydi.

Jorj Linkoln Steffens (1866–1936) “makreykerlar” harakatining eng yorqin va e‘tiborli vakillaridan biriga aylandi. Steffens harbiy maktabda, uchta universitetda ta‘lim olgan, falsafa, etika, sotsiologiya, san‘at sohalarini o‘rgangan. Biroq jurnalist sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Steffens noyob qobiliyatga ega edi: u turli ijtimoiy qatlam vakillari bilan tezda til topishib keta olardi.

Steffens “Kommershiel advertayzer” (“Commercial Advertiser”) gazetasida reportyor bo‘lib ishlayotgan paytida “balchiqni titkilash” bilan shug‘ullana boshlaydi. Aynan shu yerda unga jinoyat olami va katta biznes dunyosi o‘rtasidagi aloqalar ochiladi. U 1902–1903-yillarda “Makklyurs” nashrining muxbiri sifatida AQSHning ko‘pgina shaharlarida bo‘ladi. Bu paytda mamlakatda korrupsiya avj olgan edi. Shu bois Steffens xizmat yuzasidan borgan joylarida ushbu ijtimoiy hodisani tekshirish bilan shug‘ullanadi. U o‘zining “Minneapolis sharmandaligi” va “Pitsburg – isnodga qolgan shahar” maqolalari bilan o‘quvchilarning mehri va e‘tiborini qozonadi. Ushbu materiallar katta shov-shuvga sababchi bo‘ladi. Ular chop etilganidan keyin gazeta tahririyati mamlakatning turli burchaklarida istiqomat qiluvchi o‘quvchilardan kelgan xatlarga to‘lib ketadi. Ular xatlarida mahalliy korrupsiyachi amaldorlarning haqiqiy basharasini ko‘rsatib berishi uchun jurnalistni o‘zlari yashaydigan shaharlarga taklif etadilar<sup>18</sup>. Steffens chindan katta muvaffaqiyat qozongan edi. Uning nomi mashhur bo‘lib ketadi. U ko‘rsatgan o‘rnak “yuqumli” virusday boshqalarga ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘sha paytda “Arena” jurnali bilan bir qatorda, “Kosmopoliten”, “Kollers”, “Sakses”, “Evrivodiz”, “Makklyurs”, “Mansiz”, “Lesliz” kabi nashrlar ham jurnalistlar, jurnalistika sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tanqidiy-tekshiruv yo‘nalishining vakillari uchun o‘ziga xos minbarga aylanadi. Mavzular ham turlicha edi... “Kollers” tibbiyot sohasidagi aldanchilikka qarshi faol kurashadi... 1905-yil 7-oktabr sonida Semyuel Gopkins Adamsning “Amerikacha buyuk soxtakorlik” maqolasi dori ishlab chiqaruvchilarga jiddiy zarba bo‘lib tushadi. U bosma matbuotda keng reklama qilinayotgan patentlangan dorilar bemorlarning dardini yengillashtirish o‘rniga, ularning salomatligiga putur yetkazayotgani, ularning tarkibida alkogol, ko‘knor, morfiy, kokain va boshqa giyohvand moddalar borligini faktlar bilan

<sup>18</sup> Нестеренко Ф.П., Ирнарзов К.Т., Маматова Я.М. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. Учеб. пос. Часть 1. – Т.: Зар калам, 2002. – С.136.

isbotlab beradi. Natijada, maqola sarlavhasining o‘zi o‘sha vaqtning eng ommabop shiorlaridan biriga aylanadi.

1909-yilda “Kollers” jurnali hukumatning Alyaskadagi tabiiy boyliklarni chayqovchilik yo‘li bilan sotayotganiga qarshi chiqadi. Xususan, K.P.Konollining “Oqartiruvchi panja uchun katta ishlar” maqolasi portlagan bomba samarasini beradi. Unda muallif senator Ballinjerni Alyaska yerlarini qabihlarcha olib sotganlikda ayblaydi. “Sakses” jurnali E.Sinklarning Chikago kushxonalaridagi ayanchli mehnat sharoiti yoritilgan “Changalzor” romanini chop eta boshlaydi. 1905-yili “Evribodiz” jurnalida chop etilgan Ch.E.Rasselning “Jahondagi eng buyuk trest” deb nomlanuvchi maqolalari turkumida biznes korchalonlari qanday qilib kambag‘allarning chaqasi hisobidan boyishi ko‘rsatiladi. 1907-yili shu jurnalda Lousonning “Quturgan moliya” turkumidagi maqolalarining chiqishi tufayli nashr tez sotilib, uning adadi yarim million nusxaga yetadi. “Xemptons” sahifalarida jurnalist Reta Chayld Dorrning ayollar tenghuquqligi masalasiga bag‘ishlangan maqolasi chop etilishi nafaqat ayollar, balki mamlakatdagi erkaklar auditoriyasini ham junbushga keltirdi<sup>19</sup>.

“Uotergeyt ishi” ham jurnalist surishtiruvining mumtoz namunasi sifatida qabul qilingan. Aksariyat odamlar uchun “Uotergeyt” bilan bog‘liq voqealar – bu, avvalo, prezident Niksonning iste‘foga chiqishi, matbuotda impichment protsedurasi haqidagi mulohazalardir. 1976-yili Alan Pakula Gollivudda Karl Bernstayn va Bob Vudvord materiallari asosida “Butun prezident lashkari” filmini suratga oladi. Aynan shu ikki jurnalist demokratik partiyaning saylovoldi shtabiga Oq uy agentlarining yashirin tarzda kirib olishi bilan bog‘liq fosh etuvchi faktlarni oz-ozdan to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. Kartinada Uotergeyt mojarosi tafsilotlari haqqoniy tasvirlangan holda, surishtiruvchi jurnalistlarning ulkan mehnati juda yaxshi namoyish etilgan<sup>20</sup>.

Ushbu ish mumtoz surishtiruvlar sohasi mutaxassislari tomonidan yetarlicha o‘rganilgan bo‘lib, biz ko‘rib chiqayotgan yo‘nalishdagi sof jurnalist faoliyatining yaxshi misoli hisoblanadi. Masalan, D.Rendall “Uotergeyt ishi”ni quyidagicha tavsiflaydi:

“Surishtiruv uchun mavzular gazetalarga har xil yo‘llar bilan keladi: suhbat chog‘ida ataylab yoki tasodifan aytilgan gap, boshida hech qanday e‘tiborli jihati bo‘lmagan, lekin to‘satdan yuz bergan voqealar bayoni bilan yangicha tus olgan maqola, reportyorning shaxsiy kuzatuvlari, g‘aroyib tarzda rivojlanuvchi oddiy sujet yoki ortidan muhimroq savollar shodasini tortuvchi tasodifiy savol.

So‘nggi guruhga eng mashhur jurnalist surishtiruvi bo‘lgan Uotergeyt mojarosi kiradi.

Voqea 1972-yil iyunida Vashingtonda demokratik partiyaning “Uotergeyt” mehmonxonasida joylashgan qarorgohi o‘marilishidan boshlanadi. Ushbu voqea ikki yildan so‘ng dunyodagi eng obro‘li kishi, prezident Richard Niksonning iste‘fosi bilan yakunlanadi. Prezident va uning apparatining o‘sha o‘g‘irlikdagi roli, telefon suhbatlarining yashirin tarzda tinglanishi va, eng asosiysi, ushbu noqonuniy harakatlarning berkitilishi – bularning hammasi jurnalistlarsiz hech qachon oshkor bo‘lmas edi. Surishtiruv ishlarining katta qismini “Vashington post” nashrining muxbirlari Karl Bernstayn va Bob Vudvord o‘tkazadi. Ular bir-biriga ola qaragan holda, maqola ustida ishlay boshlaydi. Bu ularga jinoyat haqidagi oddiy reportajga o‘xshab ko‘rinadi. Demokratlarning qarorgohiga eshituvchi qurilmani o‘rnatish uchun u yerga yashirin tarzda kirib olgan besh kishi qo‘lga olinadi. Ertasi kuni Vudvord sud zaliga otlanadi va u yerda mashhur yuristlardan biri sud tinglovlarining qanday borishiga qiziqayotganini sezib qoladi. Nega? Shuningdek, Vudvord sudda ayblanuvchilarning bir qismi MRBda ishlashini bilib oladi. Hibsga olish paytida ularda katta miqdorda naqd pul

---

<sup>19</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. –М.:Аспект Пресс, 2002. – С.50.

<sup>20</sup> Журналистское расследование: История метода и современная практика / Под общ. ред. А.Д.Константинова. – СПб.: ИД «Нева», 2001. – С. 34.

borligi aniqlanib, ikkitasidan Oq uyda ishlovchi bir kimsaning telefon raqami yozilgan yon daftarcha topiladi.

Ana shu iplardan maqolalar turkumi “eshila” boshlanadi va oxir-oqibatda, ular Nikson va uning ma'muriyati bir talay noqonuniy harakatlarga aloqasi borligini isbotlaydi. Bernsteyn va Vudvord kun qahramoniga aylanadilar. Ular muallifligida ushbu voqealarga bag'ishlangan bestseller dunyoga keladi. Uning asosida esa film suratga olinadi. Lekin bularning barchasi keyinchalik yuz beradi. Dastlab esa, ular ancha ko'ngil sovushlari, Nikson tarafdorlari hamda qo'rqib qolgan va shubhaga tushgan amaldorlar tomonidan haqoratlar, behuda o'tgan va yanglish yo'llardan borilgan kunlar, haftalar va oylar, xatolar (ularning bir qismi matbuotga ham chiqib ketadi), hayotiy zarur bo'lgan yagona faktni izlashga sarflangan cheksiz soatlar, haq ekanliklari borasidagi shubha-gumonlar, hamkasblarning tanqidi va hasadi, surishtirish ishlariga ketgan kechalar, tunlar va dam olish kunlarini boshidan kechiradilar.

Ushbu jurnalistlarning tajribasidan juda qimmatli bilimlarni olish mumkin. Darhaqiqat, ularning “Butun prezident lashkari” kitobi jurnalistlar faoliyati haqida ingliz tilida yozilgan eng yaxshi asardir. Unda har doim ham to'g'ri yo'lni topa olmagan, biroq qalbini aniqlikka kuchli intilish ehtirosi qamrab olgan, qadam-baqadam haqiqat sari harakat qilgan ikki reportyor haqida hikoya qilinadi”<sup>21</sup>.

1972-yil davomida Amerika ommaviy axborot vositalarida “Uotergeyt ishi” zararsiz bir siyosiy sho'xlik sifatida yoritib borildi. Gazetalar o'z sahifalarida ma'muriyatni qonunbuzarlikda ayblovchi materiallar berishdan o'zini tiyishni ma'qul ko'radi. “Vashington star” reportyorlaridan birining ta'kidlashicha, Oq uyning mas'ul xodimi Ch.Kolson unga “Saylovlar tugashi bilan < ... > biz “Post”ga ko'rsatib qo'yamiz... L-stritdagilar (bu yerda “Vashington Post” tahririyati joylashgan) “Uotergeyt” haqida eshitganiga hali afsus qiladi...”<sup>22</sup>.

Jurnalistlar Karl Bernsteyn va Bob Vudvordni Amerikadagi hukumat tizimiga qarshi chiqishdan hech nima to'xtata olmasdi. Ular qadam-baqadam kishini lol qoldiruvchi yangidan yangi tafsilotlarni, yashirin detallarni, ushbu mojaroga aloqasi bo'lgan kishilarning nomlarini aniqlagan holda, o'z surishtiruvini oxiriga yetkazadi. Amerika gazetolari prezidentning ushbu mojaroga aloqadorligi borasidagi shubhalarga chek qo'yuvchi 1254- betli telefon suhbatlarini birinchi bo'lib o'z sahifalarida berish huquqi uchun o'zaro raqobatni boshlashidan oldin, bu jurnalistlar ulkan ishni amalga oshirishlariga to'g'ri keladi.

“Uotergeyt ishi” Amerika matbuotining taqdirida ko'p narsalarni o'zgartirib yubordi. Aynan shu voqeadan keyin mamlakat ommaviy axborot vositalari “to'rtinchi hokimiyat” roliga da'vogarlik qilish imkoniga ega bo'ldi. “Uotergeyt ishi” XX- asr jurnalistikasining buyuk tantanasi deb nomlandi. Vudvord va Bernsteyn milliy qahramonlar sifatida tanilib, shov-shuvga sababchi bo'lgan va ularga millionlab pul keltirgan ikki kitob muallifiga aylanadi. Jurnalist kasbi esa Amerikada urf bo'lib, ommalashib ketadi.

1973–1977-yillar oralig'ida ushbu kasbga o'rgatuvchi o'quv yurtlari soni ikki baravarga ko'payadi. Agar 1964-yili bu yerda 11 ming nafar talaba jurnalistikani o'rgangan bo'lsa, 1977-yilga kelib, ularning soni 64 mingga yetadi. Amerika yoshlariga “Vudsteyn fenomeni”, ya'ni “Oq uydagi firibgarlar guruhini fosh etgan va ularni quvgan bu yigitchalardan nimamiz kam?” degan fikr tinchlik bermasdi<sup>23</sup>.

Jurnalist surishtiruvlarini o'tkazish borasida Amerika jurnalistikasi azaliy va mustahkam an'analarga ega. XIX – XX – asrlar Rossiya jurnalistikasi tarixida ham puxta

<sup>21</sup> Рэндалл Д. Универсальный журналист. Пер. с англ. Алматы: Центральноазиатская школа молодых журналистов, 1996. – С.124–125.

<sup>22</sup> Иванян Э.А. От Джорджа Вашингтона до Джорджа Буша. Белый дом и пресса. – М.: ИД «Эксперт», 1991. –С.254.

<sup>23</sup> O'sha manba. – 259 - bet.

surishtiruvlar va o‘tmishdagi janr ustalari tomonidan to‘plangan ijodiy tajribalar mavjud edi. Ular hozirgi Rossiya jurnalistlarining surishtiruvchilik faoliyatida ham sezilarli darajada aks etgan.

XIX-asr rus jurnalistikasi uchun zamondoshlarning ongiga yetib borish, ularga jamiyatni tashvishga solayotgan muammolarni yetkazish juda muhim edi. Jurnalist surishtiruvlari cho‘qqisiga Rossiyada “publitsistika” so‘zi bilan umumlashtirilgan reportajlar, xat-xabarlar va sud ocherklari orqali erishilgan. A.S.Pushkin (“Pugachyov tarixi”), A.P.Chexov (“Saxalin oroli”), F.M.Dostoyevskiy (“Yong‘inlar”), V.G.Korolenko (“Multan qurbonligi”), V.A.Gilyarovskiy (“Xarobalar odami”, “Moskva va moskvaliklar”), M.Y.Saltikov-Shchedrin (“Bir shahar tarixi”) va boshqa mashhur mualliflar tomonidan turli davrlarda va turli vaziyatlarda o‘tkazilgan surishtiruvlar natijasida yuzaga kelgan asarlari aynan shunday sifatlarga ega<sup>24</sup>.

V.G.Korolenko haqli ravishda Rossiya jurnalistikasi tarixidagi dastlabki tom ma‘nodagi surishtiruvlardan birining muallifi sanaladi. Uning “Multan qurbonligi” bilan bog‘liq surishtiruvi ijtimoiy illatlar, tuhmat va adolatsizlikka qarshi kurashishga yaqqol misol bo‘la oladi.

Korolenko deyarli to‘qqiz oy mobaynida (1895-yil sentabridan 1896-yil iyuniga qadar) shug‘ullangan “Multan ishi”da majusiy xudolarga qurbonlik keltirish uchun bir odamni o‘ldirishda ayblangan Eski Multan qishlog‘ida yashovchi bir guruh udmurt dehqonlari ustidan olib borilgan sud jarayoni yoritilgan. V.G.Korolenkoning ta‘biri bilan aytganda, ushbu sud jarayoni milliy adovatni avj oldirish maqsadida “qaroqchi politsiyachilar guruhi” tomonidan tashkil etilgan<sup>25</sup>.

Uning mohiyati esa quyidagicha edi: 1892-yil 5-may kuni Vyatka guberniyasidagi udmurt qishlog‘i Eski Multan yaqinida kallasi olingan jasad topiladi. Politsiya qurbonlik sodir etilgan deb o‘ylab, shu qishloqda yashovchi bir guruh udmurtlarni hibsga oladi.

“Multan ishi” tuhmat aybloviga asoslangan edi. Oldiniga tergov jarayoni multanliklar aybini isbotlovchi dalillarni bir tomonlama izlash xarakterini oladi. Ilgari surilgan taxminning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mutlaqo asossiz dalillar – turli mish-mishlar, g‘iybatlar va uydirmalar e‘tiborga olinadi. Bundan tashqari, politsiya guvohlar va gumondorlarni qiynoqqa soladi. Tergov 29 oy davom etadi. Shundan so‘ng ish uch marta suddan o‘tadi. Uning ikkitasida jarayon begunoh kishilarni umrbod surgun qilish hukmi bilan yakunlanadi.

Ushbu sud jarayoniga qiziqib qolgan Korolenko 1895-yil kuzida Yelabuga shahrida o‘tkazilgan ikkinchi sud muhokamasida muxbir sifatida qatnashadi. U va yana ikkita jurnalist sud majlisini stenografik aniqlikda yozib olishga muvaffaq bo‘lishadi. Korolenko ko‘z o‘ngida yuz berayotgan fojidan qattiq ta‘sirilanadi. “Odamlar begunoh halok bo‘lmoqda. Chidab bo‘lmaydigan nohaqlik yuz berayotir, – deb yozadi u “Русские ведомости” nashrining muharririga. – Men hozir boshqa hech nima haqida o‘ylay olmayapman”<sup>26</sup>. Ish materiallari bo‘yicha nashr etilishi ko‘zda tutilgan hisobot tayyorlanadi. Biroq tekshirish ishlari bu bilan yakunlanmaydi. Korolenko bosma matbuot va shaxsiy aloqalarini ishga solib, “Multan ishi”ning qayta ko‘rib chiqilishiga erishadi. Suddan so‘ng u zudlik bilan Eski Multan qishlog‘iga borib, jinoyatning barcha tafsilotlarini voqea joyida tekshiradi, odamlar bilan uchrashadi va h.k. Bunda u faktlarni sinchkovlik bilan o‘rganadi. Faktlar bilan bunday batafsil va bevosita tanishuv yozuvchining qarashlari, fikrini material bilan boyitib qolmasdan, mahkumlarning begunohligiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi, politsiyadagi zo‘ravonlik manzarasini, tergovni olib borishning vahshiyona usullarini ochib tashlaydi. “O‘rtoqlarim, provinsiya muxbirlari menga politsiya tomonidan ikki yarim yil davomida yig‘ilgan bir nechta o‘nlab ayblov guvohlarining ancha qayg‘uli gap-so‘zlari yozilgan birinchi

<sup>24</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С.10.

<sup>25</sup> Есин Б.И. История русской журналистики XIX века. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2003. – С.177.

<sup>26</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.:Аспект Пресс, 2002. – С. 23.

gazeta hisobotini yuborganida, oldiniga o‘zim ham votyaklarning begunoh ekaniga shubha bilan qaragandim. Ammo keyin, yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan va oqibatda isbotlovchi “noaniqliklar” bilan to‘lib-toshgan ayblov aktining xarakterini puxta o‘rganib chiqib, ishning barcha holatlari bilan voqea joyida tanishib hamda ushbu masala bo‘yicha unchalik ko‘p bo‘lmagan adabiyotlarni o‘qib, ayblanuvchilarning har biri ushbu soxta jinoyat ishining o‘ziga xos qurboni ekaniga va ularning dini “insonni qurbonlikka keltirishni talab qilmasligiga” ishonch hosil qildim”, – deb yozadi keyinchalik Korolenko.<sup>27</sup> Sudda u himoyachi sifatida chiqar ekan, ayblovlarning yolg‘onligini isbotlaydi va dehqonlarning oqlanishiga erishadi. Ma‘lum bo‘lishicha, Matyuninning jasad (udmurtlar uning qotili sifatida ayblanayotgan edi) politsiyachi tomonidan “diniy marosim” manzarasini yaratish uchun boshidan judo etilgan ekan.

1895–1896-yillarda “Multan ishi” jahon bosma matbuotida qizg‘in munozaralar mavzusiga aylanadi. Korolenko ushbu munozaralarda Rossiya kengliklarida yashovchi barcha xalqlarning or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilib faol qatnashadi. Aslini olganda, yozuvchi “Multan ishi”ning real holatlarini yoritish va udmurt xalqining pok nomini oqlash bo‘yicha haqiqiy kampaniyani o‘tkazgan edi. 1895-yil oktabr – noyabr oylarida “Русские ведомости” nashrining 12 ta sonida sud jarayoni haqidagi hisobot Korolenkoning tahririyatga oldindan yuborgan “Multan qurbonligi haqidagi hisobotga xat” bilan birga nashr etiladi. Xuddi shu yilning noyabr oyida “Русское братство” nashrida Korolenkoning “Multan qurbonligi” sarlavhasi ostida Yelabugadagi sud manzarasini tasvirlovchi boshqa maqolalari turkumi bosilib chiqadi.

1896-yilda Korolenko o‘z hisobotini tahrir qiladi va uni alohida broshyura sifatida nashr ettiradi. O‘sha yilning o‘zida, 9-oktabr kuni “Русские ведомости” gazetasida yelabugalik uezd shifokori Krilovning sud jarayoni haqidagi hisoboti bo‘yicha e‘tirozlariga jurnalistning javobi bosib chiqariladi. Bundan tashqari, Korolenko fevral oyida Peterburgda Antropologiya jamiyatining ochiq majlisida “Multan qurbonligi haqidagi ish” ma‘ruzasi bilan chiqadi<sup>28</sup>. Agar jarayonning o‘zida Korolenko himoyachi-advokat sifatida chiqqani inobatga olinadigan bo‘lsa, sharmandali fitna va qonunsizlik chigalini yozish uchun yozuvchi qancha vaqt va kuch sarflagani, qanchalik katta hajmdagi ishni amalga oshirgani aniq ayon bo‘ladi.

Jamiyat hayotini, undagi buzuqliklar va illatlarni o‘rganish hamda chuqur tahlil qilish har doim M.Y.Saltikov-Shchedrinning asosiy vazifasi bo‘lgan. Islohotlar davrining birinchi o‘n yilligidagi hayot esa uning kishini hayron qoldiruvchi taqqoslashlar uchun materiallar beradi. Agar amerikalik tadqiqotchilar “o‘zida kuchli tanqid va muammoni chuqur tushunishni birlashtirgan” “balchiq tituvchilar” maktabini Teodor Drayzer, Jek London, Epton Bill Sinkler va Irvin Stoun o‘taganlari haqida g‘urur bilan yozgan bo‘lsalar<sup>29</sup>, unda M.Y.Saltikov-Shchedrin “Bir shahar tarixi”da ijtimoiy tanqid darajasiga ko‘tarilish uchun qaysi maktabni o‘tashi kerak edi?

Saltikov-Shchedrinning yangi asari rus jamiyatida bir-birini inkor etadigan fikr uyg‘otdi. Tanqidchilarning bir qismi “bu shahar hokimlari to‘g‘risida mohirona yozilgan satira” deyishi yozuvchiga, “nufuzli odamlarga gubernator hokimiyatini ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi loyiha uchun ovoz berishga qaror qilishdan oldin u bilan tanishishni” maslahat beradi. Boshqalar esa yozuvchini xalqni “mazax qilish” va “yomonlash”ga intilganlikda ayblaydi. Biroq inqilobdan oldingi tanqidchilarning mutlaq ko‘pchiligi Glupovo epopeyasidagi satira ko‘zgusi “hozirga emas, balki o‘tmishga” qaratilgan, deb hisobladi. Ularni glupovolik yuvosh solnomachilarning hikoyalarida rus tarixidagi ayrim haqiqiy voqealarga ishoralar borligi yanglishtirgan bo‘lsa kerak. Biroq Saltikov-Shchedrinning e‘tirof etishicha, u tarixiy emas,

<sup>27</sup> Qarang: O‘sha yerda. – 30- b.

<sup>28</sup> Есин Б.И. История русской журналистики XIX века. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2003. – С.182.

<sup>29</sup> Венйер Д., Нойес Д. Противоядие от аллергии. // Журналист – 1994.– №5. – С.35-36.

balki mutlaqo oddiy satirani nazarda tutgan. Ushbu satira tig'i, yozuvchining fikricha, rus voqeligini "noqulay ahvolga soladigan" chizgilarga qaratilgan edi.

"Bir shahar tarixi"ga hozir ham Saltikov-Shchedrinning eng mukammal satirasi sifatida qaraladi. Unda yozuvchi hozirgi va o'tgan zamonlarni o'zaro bog'lar ekan, janrini belgilash qiyin bo'lgan ajoyib adabiy asar namunasini yaratadi. Bu nima – romanmi? Antiutopiyami? Tadqiqotmi? Jurnalist surishtiruvlari tarixiga bag'ishlangan mufassal ishlardan biri sifatida e'tirof e'tiladigan, professor Devid Protes rahbarligidagi Shimoliy-g'arbiy universitetning bir guruh olimlari tomonidan tayyorlangan monografiyada shunday deyiladi: "Sujetning tanlanishi, faktlarni saralash va tashkillashtirish surishtiruv materiallarini yozish jarayonida unchalik ham begunoh bo'lmagan, ammo hokimiyatning harakatlaridan g'azabni keltirib chiqarish uchun yetarlicha beayb bo'lgan qurbonga nisbatan hamdardlikni vujudga keltirish kabi axloqiy vazifani bajarishga xizmat qiladi"<sup>30</sup>. Shu boisdan "Bir shahar tarixi" asarini bemalol jurnalist surishtiruvi deb atash mumkin.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshida yashab ijod etgan Vladimir Alekseyevich Gilyarovskiy rus jurnalistikasi tarixidagi mashhur surishtiruvchi-reportyordir. Tug'ma reportyor Gilyay amaki (uni do'stlari va hamkasblari mehr bilan shunday deb chaqirishardi) turli kasblarni egallagan bo'lib, juda qobiliyatli edi. Gilyarovskiy va uning yonida juldurvoqilar to'dasi turgan fotosurat saqlanib qolgan, unda hamma kulib turibdi. Fotosuratning orqasida "Men va mening muxbirlarim" so'zlari yozilgan"<sup>31</sup>edi.

Gilyarovskiy o'zining keng "agentura tarmog'i" tufayli juda tez ishlaydi. Uning tezkorligi haqida, hatto, afsonalar ham to'qilgan. Xususan, quyidagi voqea ma'lum. Moskva–Kursk temiryo'l boshqaruvchisining uyidagi tushlik paytida (bu yerga jurnalist taklif etilgan edi) xabar tashuvchi Kukuyevka qishlog'i yonida Moskva pochta poyezdi relsdan chiqib ketganligi haqida xabar yetkazadi. Boshqaruvchi shu zahotiyoy vokzalga shoshadi: u yerda komissiya halokat joyiga o'tlanishga tayyor turardi. Biroq boshqaruvchidan oldin uydan Gilyarovskiy yugurib chiqadi, tanish izvoshchi uni bir zumba vokzalga yetkazadi. U yerda reportyor rahbariyat uchun atalgan poyezdga chiqib olib, uning hojatxonasida yashirinadi. Tongga yaqin poyezd halokat joyiga yetib kelgach, Gilyarovskiy sekin tashqariga chiqib, fojia joyini ko'zdan kechiradi va qo'shni stansiyadan tahririyatga birinchi telegrammani jo'natadi. Shu tarzda, u o'sha paytda ishlayotgan "Moskovskiy listok" gazetasi aynan shu kuni halokat haqida xabar bergan shahardagi birinchi va yagona nashrga aylanadi. Voqeadan keyin yana ikki kun davomida birorta jurnalist fojia joyiga borolmaydi – halokatga uchragan poyezdga hech kimni yaqinlashtirishmaydi. Gilyarovskiy esa voqea joyidan yangi va yangi xabarlarini jo'natib turadi va tezkor jurnalist nomini yana bir bor isbotlaydi"<sup>32</sup>.

Gilyarovskiy jurnalistikani cheksiz yaxshi ko'rardi va birorta xabari inkor qilinmaganidan g'ururlanardi. Uning so'zlariga ko'ra, barcha xabarlarini tekshirilgan haqiqat edi. Bu uning surishtiruvga asoslangan son-sanoqsiz maqolalariga ham tegishli. Ularda jurnalist g'ayrioddiy, qiziqarli voqealarga murojaat qiladi. Uning e'tiborini sir va maxfiylik pardasi bilan o'ralgan ishlar tortadi. U o'zining jurnalistlik kasbi haqida shunday deb yozadi: "Bu ish aynan menbop edi. Sarguzashtlarga to'la daydilarning hayoti menda reportyor uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirdi. Men qo'rquv, xavf, charchoq nimaligini bilmasdim. Nazarimda, bunday ish uchun odamda alohida "qiziqish" bo'lishi kerak"<sup>33</sup>.

<sup>30</sup> Уиллмен Дж. Журналистские расследования: современные методы и техника. Пер. с англ. – М.:Виоланта, 1998. – С.220.

<sup>31</sup> Васильева Л.А. Делаем новости! – М.:Аспект Пресс, 2002. – С.49.

<sup>32</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С.36.

<sup>33</sup> Морозов Н. Сорок лет с Гиляровским. – М.: Просвещение, 1963. – С. 19.



Gilyarovskiyning reportajlari har doim jamiyatda muayyan munosabat uygʻotib, aks-sado berib kelgan. Biroq ular reportaj janriga mansubligi va Gilyarovskiy Chexov haqida aytgan “qarsillaydigan tavsiflar” jihatlarini tufayli toʻlaqonli tekshiruv emas edi<sup>34</sup>.

Zamonaviy matbuotda surishtiruv janri oʻtgan asrning yetmishinchi yillarida faol rivojlana boshlaydi. “Литературная газета” nashrida qatʼiy senzura cheklovlariga qaramasdan, partiya nomenklaturasining taqiqlarini topqirlik bilan aylanib oʻtgan holda, yigirma yil davomida millionlab oʻquvchilar tomonidan qoʻllab-quvvatlangan “Эксперименты ЛГ” (“LG eksperimentlari”) rukni chop etib kelindi.

Oʻzbek jurnalistikasi tarixida ham surishtiruv unsurlarini koʻrish mumkin. Maʼlumki, 1898-yili Andijonda Muhammadali Eshon (Dukchi Eshon) boshchiligida chor tuzumiga qarshi gʻalayon koʻtariladi. Ushbu harakat biror-bir tashkiliy kuchga yoki harbiy qudratga ega emasdi. Isyonchilar tartibsiz ravishda harakat qiladi va oxir-oqibatda, ular magʻlubiyatga uchraydi. Dukchi Eshon va uning 19 nafar tarafdori qatl etiladi, isyonchilarning koʻpchiligi hibsga olinib, Sibirga surgun qilinadi. Bu haqda 1898-yilda andijonlik tarixchi Fozilbek Otabek oʻgʻli “Dukchi Eshon tarixi” hujjatli kitobini yozadi. Ilk bor ushbu kitob 1992-yilda Choʻlpon nomidagi nashriyotda chop etildi.

Mazkur asar koʻp jihatlariga koʻra surishtiruv materialiga yaqin. Muallifning oʻzi Dukchi Eshon qatlining guvohi boʻlgani bois, gʻalayon tafsilotlari mufassal tarzda tasvirlagan. Bu unga oʻlkadagi hayotning tarixiy kontekstini kengaytirilgan tarzda tiklash imkonini bergan. Muallif isyonga tayyorgarlik boʻyicha yigʻilishlarda qatnashgan kishilarning guvohliklari hamda ushbu voqea munosabati bilan chor hukumati tomonidan qabul qilingan hujjatlar asosida oʻsha davr manzarasini tiklaydi. Isyonning bevosita tashkilotchilari kim edi? Ularning maqsadi nimadan iborat boʻlgan? Isyonga muayyan tarzda tayyorlangan odamlar nega toʻsatdan magʻlubiyatga uchradi? Dukchi Eshon va uning tarafdorlarining taqdiri qanday kechdi? Muallif ushbu savollarning barchasiga tarixiy hujjatlar va voqealar ishtirokchisi boʻlganlarning givohliklariga tayangan holda javob beradi. U kitob ustida ishlar ekan, surishtiruvning intervyu, kuzatuv, hujjatlar bilan ishlash kabi asosiy usullaridan foydalanadi.

Surishtiruv unsurlari 1910-yillardagi jadidlar matubotida ham uchraydi. Xususan, “Sadoi Fargʻona” gazetasining 1914-yil 30-aprel va 7-may sonlarida “Turkistonda qishloq xoʻjaligi va dehqonchilik” mavzusidagi maqolalar turkumi chop etiladi. Ularda real faktlar va iqtisodiy koʻrsatkichlarning tahlili asosida qishloq xoʻjaligida chuqurlashib borayotgan tushkunlik va dehqonlarning ogʻir ahvoli sabablarini tadqiq qilishga urinishni koʻrish mumkin. Bunda muallif dehqonlarning fikriga tayanadi. Ularga xoʻjayinlari tegishli 100 soʻm oʻrniga bor-yoʻgʻi 40–50 soʻm toʻlayotganini aytadi. Muallif ushbu guvohliklarga qoʻshimcha tarzda, qishloq xoʻjaligidagi qoloqlik sababi oʻlkada ilgʻor texnologiyalar qoʻllanilmasligida ekanini taʼkidlaydi. U oʻlka qishloq xoʻjaligining ahvolini Amerikadagi vaziyat bilan taqqoslaydi: “Biz oʻn kishilashib 10 kun ichida bajaradigan ishni amerikaliklar asboblardan foydalangan holda, oʻn soat ichida bajaradi”<sup>35</sup>. Koʻrinib turganiday, materiallarni tayyorlashda muallif ham anʼanaviy, ham noanʼanaviy manbalardan olingan maʼlumotlardan foydalanadi, dehqonlar bilan bevosita suhbatlashadi, agrar jarayonlarning ayrim jihatlarini shaxsan oʻrganadi.

Taniqli advokat va jurnalist Ubaydulla Xoʻjayevning “Ulugʻ Turkiston” gazetasida 1917-yil 12-avgustida chiqqan maqolasida rus sarmoyadorlarining oʻlka dehqonlariga nisbatan qoʻllayotgan moliyaviy firibgarliklari haqida soʻz boradi. “Bizda shahar soliqlari” sarlavhasi ostidagi boshqa bir materialda shu muallif xalqning yelkasiga ogʻir yuk boʻlib tushgan chor hukumatining soliq siyosatini tadqiq qiladi. Muallif ushbu kuzatuvlar, turli

<sup>34</sup> Журналистское расследование: История метода и современная практика / Под общ. ред. А. Д. Константинова. – СПб.: ИД «Нева», 2001. – С. 65.

<sup>35</sup> Sadoi Fargʻona, 1914, 7 -may.

hujjatlar (farmoyishlar, nizomlar va h.k.) bilan ishlar ekan, dolzarb iqtisodiy muammoni ancha keng tadqiq qiladi. Bunday misollarni Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Shokirjon Rahimiy, Mirmuhsin Shermuxamedov, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalarning ijodlarida ham topish mumkin<sup>36</sup>.

Milliy jurnalistika tarixida Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida o‘rin tutadi. Behbudiy “Sart so‘zi noma‘lum”<sup>37</sup> maqolasida milliy jurnalistika tarixida ilk bor haqiqiy surishtiruvni amalga oshirishga urinadi. Muallif unda aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazish, hujjatli asl manbalarni o‘rganishdan tortib, to tadqiqot mavzusi bo‘yicha o‘z zamonasining adabiyotlarini tanqidiy tahlil qilishgacha bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plash va ularga ishlov berishning turli usullaridan foydalanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy bejiz ushbu og‘riqli mavzuga murojaat qilmaydi: bu masala allaqachon Turkiston jamiyatida bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan va turli ijtimoiy qatlamlar orasida turlicha qabul qilinayotgan edi. U o‘z fikrlarini isbotlash uchun tarixga, xalqning o‘tmish hayotini, uning an‘analari va urf-odatlarini saqlab kelayotgan oqsoqollarning xotiralariga va, shu jumladan, turli nomlarga murojaat qiladi. Bunda Behbudiy ulkan tadqiqotchilik ishini olib boradi va shunday deb yozadi: “...20 yildan ortiq vaqt davomida men huquqshunoslik bilan va, ba‘zida, Samarqand atrofidagi qishloqlar aholisini soliqqa tortish bilan shug‘ullandim. O‘shanda men Turkistonning turli joylaridagi har xil odamlar bilan suhbatlashdim va urug‘larning ko‘plab nomlarini aniqladim”. Muallif ularni maqolada keltirib, keksalardan hech kim “sart” so‘zini bilmasligini qayd etadi.

Behbudiy o‘rganilayotgan masalaga ko‘proq oydinlik kiritish uchun o‘lka tarixi, etnografiyasi va adabiyoti bilan shug‘ullangan taniqli olimlarning asarlariga murojaat qiladi. Biroq buning o‘zi bilan cheklanmaydi. Behbudiy o‘z tadqiqotining yakunlari haqida ma‘lum qilishdan oldin rasmiy manbalarga – 1898-yilgi aholini ro‘yxatga olish natijalariga ham murojaat qiladi. Ushbu misollar yozuvchilar, publitsistlar jamiyat hayotini, inson psixologiyasini tadqiq etuvchilar sifatida o‘lkadagi surishtiruv jurnalistikasining asosini yaratdilar, deb aytish mumkinligini ko‘rsatadi.

Hozirgi OAVda bu murakkab, ammo butun jamiyat uchun zarur janrni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar bor. “Otxonalardagi balchiqni mustaqil ravishda titkilovchi” jonbozlar ham paydo bo‘lgan. OAVda “Surishtiruvlar” rukni borgan sari ko‘proq ko‘zga tashlanayotir. Biroq chop etiladigan materiallar har doim ham ruknning mohiyatiga mos kelavermaydi. Aksariyat hollarda sud tergovlarining tayyor materiallari beriladi.

Tashvishlanarlisi shundaki, ba‘zida jurnalistning “qo‘lidan” nopok odamlar foydalanib, “Surishtiruv” rukni ostida o‘z raqiblaridan o‘ch olishga harakat qiladilar. Eng yomoni esa ruknning mohiyati, ayniqsa, uning axloqiy va yuridik tabiati haqida aniq tasavvur mavjud emas. Faqat keyingi yillardagina janr texnikasi va usullarini, surishtiruv ishlarini olib borish tamoyillarini, jurnalist surishtiruvining huquqiy va axloqiy jihatlarini yorituvchi maxsus ilmiy va o‘quv adabiyotlari paydo bo‘ldi. Mazkur o‘quv qo‘llanmaning keyingi bobi ham shu va boshqa masalalarni ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

Jamiyat hayotidagi demokratlashtirish jarayonlari mamlakatimizda jurnalist surishtiruvini jadal rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. Shu bois bugungi kunda surishtiruv orqali oshkoralikni ta‘minlash, o‘z mansabini suiste‘mol qilish, ta‘magirlik, amaldorlarning zo‘ravonligi kabi faktlar haqida aholini keng xabardor qilish vositasi bo‘lgan OAVning turli mamlakatlardagi ijobiy tajribasini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir kishi o‘z huquqiga ega bo‘lgan va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga real ta‘sir ko‘rsata oladigan fuqarolik jamiyatining yanada rivojlanishiga ko‘maklashadi.

<sup>36</sup> Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi. – T.: Akademiya, 2000.– 139- b.

<sup>37</sup> Oyina, 1914, 22, 24-sonlar.

## 2-bob. JURNALIST SURISHTIRUVINING PREDMETI

### Jurnalist surishtiruvi mohiyati

#### *Jurnalist surishtiruvi – bu odatdagi reportyorlik emas*

**Jurnalist surishtiruvi nima? U qanday olib boriladi? Nega u bilan shug'ullanish zarur? Ushbu janr tarixida burilish yasagan Uotergeyt ishidan keyin o'tgan deyarli yarim asrlik davrdan so'ng na jamoatchilik, na jurnalistlarning o'zi mazkur savollar bo'yicha yagona fikrga kela olmayapti. Bu boradagi jahon tajribasini bir joyga to'plagan holda, quyidagilarni aytish mumkin:**

Jurnalist surishtiruvi hayotdagi yashirin hodisalarni, ya'ni hokimiyatga ega shaxslar tomonidan yoki taqdir taqozosi bilan ataylab yashirilgan voqealarni fosh etishni ko'zda tutadi. Uni o'tkazish uchun ham ochiq, an'anaviy, ham noan'anaviy, shu jumladan yashirin manbalar va hujjatlardan foydalanish zarur bo'ladi.

Yangiliklarni an'anaviy ma'noda yoritish muayyan darajada, ba'zida esa to'laligicha boshqa shaxslar (masalan, davlat hokimiyati va huquq-tartibot organlari, tashkilotlar, kompaniyalar, korxonalar va h.k.larning vakillari) tomonidan taqdim etiladigan materiallarga bog'liq. O'z mohiyatiga ko'ra, ushbu jarayon reaktiv, aniqrog'i, passiv kechadi. Jurnalist surishtiruvi esa jurnalistning tashabbusi bilan to'plangan yoki ishlab chiqilgan materiallariga bog'liq. Shu bois ushbu usul aksariyat hollarda "tashabbuskor jurnalistika" (enterprise journalism) deb ham ataladi.

Yangiliklarni yoritishdan maqsad dunyoning xolis manzarasini yaratishdir. Jurnalist surishtiruvida esa haqqoniy materiallardan, ya'ni haqqoniylikiga har qanday idrokli kuzatuvchi ishonadigan faktlardan foydalaniladi. Bu – dunyoni isloh qilish uchun haqiqatni yuzaga chiqarish mas'uliyatini bildiradi.

"Nyusdey" gazetasining sobiq boshqaruvchi muharrir o'rinbosari Robert Grinning: "Bu, odatda, o'z faoliyati va tashabbusiga, alohida shaxslar yoki tashkilotlar sir bo'lib qolishini istagan muhim mavzuga asoslangan jurnalist materialidir. Uning uchta asosiy unsuri mavjud: **jurnalist boshqa biron olib bormagan surishtiruv ishini olib boradi; material mavzusi o'quvchi yoki teletomoshabin uchun juda muhim; boshqalar surishtiruvda tilga olingan faktlarni jamoatchilikdan yashirishga urinadi**" degan fikr jurnalist surishtiruvi tushunchasiga berilgan eng ommabop tavsif ekanligi ta'kidlanadi<sup>38</sup>.

Londonda chiqadigan "Observer" gazetasining yetakchi xodimi Devid Rendall esa jurnalist surishtiruvi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi, deb hisoblaydi: bu ko'pincha "xom" material bilan ishlaydigan reportyorlar tomonidan olib boriladigan tadqiqotlardir. U ko'plab intervyu olishi yoki faktlar va raqamlarni to'plab, solishtirishi mumkin. Balki ish hajmi bir emas, bir nechta reportyorning sa'y-harakatini talab qilardi. Jurnalist surishtiruvi kundalik ish tugaydigan joyda boshlanadi. U amaldorlarning sir boy bermasligi va ma'lumot taqdim qilishni rad etishlariga e'tibor qilmaydi. Jurnalist surishtiruvining maqsadi – zarur ma'lumotni albatta olishdir. U har qanday mavzuda va ijtimoiy hayotning har qanday sohasida bo'lishi mumkin. Uning uchun, ayniqsa, ikki keng soha unumli hisoblanadi. Birinchisi – turli yo'llar bilan jamoatchilik nazaridan yashirilgan tashkilotlar va faoliyat turlari. Ikkinchisi – to'satdan jamoatchilikning diqqat-e'tiboriga tushib qolgan, bir zumda turli mish-mishlar, mojaroli voqealar va, hatto, afsonalar to'qib chiqariladigan odamlar va

---

<sup>38</sup> Уиллмен Дж. Журналистские расследования: современные методы и техника. Пер. с англ. – М.:Виоланта, 1998. – С.12.

muassasalar. “Tez boyib ketadigan”lar toifasiga kiruvchi kompaniyalar va moliyaviy muassasalar jurnalistlar “titib ko‘rishi” kerak bo‘lgan favqulodda boy “balchiq”<sup>39</sup>dir.

Yuqorida iqtiboslari keltirilgan mualliflarga hurmat bilan qaragan holda, shuni aytish mumkin, Rossiya televideniyesidagi dasturlardan birida keltirilgan jurnalist surishtiruvining quyidagi tavsifi bizga aniqroq va ishonchliroqday bo‘lib ko‘rinmoqda: “Чистые перья” dasturi doirasida jurnalist surishtiruvi tushunchasi ostida hokimiyatni suiste‘mol qilish va keng ma‘nodagi korrupsiya bilan bog‘liq dolzarb mavzu bo‘yicha olib borilgan batafsil va to‘liq surishtiruvni tushunamiz. Bunday mavzu bo‘yicha mustaqil surishtiruvni olib borayotgan jurnalist asosiy quroli ommaviy axborot vositalari bo‘lgan fuqarolik jamiyati nomidan harakat qiladi. Surishtiruvning maqsadi – hokimiyat va biznes tuzilmalari, uyushgan jinoyatchilik o‘rtasidagi yashirin va noqonuniy aloqalarni oshkor etish, mamlakat, mintaqa, soha, hokimiyat organi, yirik ishlab chiqarish obyekti yoki biznesdagi siyosiy va moliyaviy vaziyatni shaffofroq qilishdan iborat.

Surishtiruv muayyan obyektlar va shaxslarga bog‘langan bo‘lishi, jurnalist tomonidan o‘z imkoniyatlari doirasida shaxsan tekshirilgan faktlarga havolalar bilan isbotlanishi kerak. Albatta, jurnalist surishtiruvi tergov va sudning o‘rnini bosa olmaydi. Jurnalist o‘ziga ma‘lum faktlarga tayangan holda, hokimiyat organlari oldiga u yoki bu mansabdor shaxsni javobgarlikka tortish masalasini qo‘yishi mumkin, ammo ularning aybdorligi haqida xulosa chiqarishga haqli emas”<sup>40</sup>.

To‘g‘ri, jurnalist faoliyatining ikkala shakli ham diqqat-e‘tiborni asosan “kim”, “nima”, “qayerda” va “qachon” kabi unsurlarga qaratadi. Ammo an‘anaviy jurnalistikaning “nima uchun” degan beshinchi unsuri jurnalist surishtiruvida **“qanday qilib, qay tarzda”** unsuriga aylanadi. Qolgan unsurlar esa nafaqat miqdor, balki sifat ifodasi tarzida rivojlanadi. Jurnalist surishtiruvida **“kim”** unsuri shunchaki ism yoki lavozim nomi bo‘lib qolmasdan, o‘zining fe‘l-atvor va xatti-harakat uslubiga ega shaxsga aylanadi. **“Qachon”** unsuri yangiliklarda qayd etiladigan hozirgi vaqt emas, balki tarixiy kontinium, hikoya shakliga kiradi.

**“Nima”** – oddiy va ko‘pchilik ichidagi bitta voqeadan o‘z sabab va oqibatlariga ega hodisaga aylansa, **“qayerda”** unsuri shunchaki manzil bo‘lib qolmasdan, u yoki bu narsa kamroq yoki ko‘proq bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan vaziyat shaklini oladi.

Aynan shu unsurlar va detallar jurnalist surishtiruviga, uning eng yaxshi namunasida, emotsional ta‘sirni kuchaytiruvchi kuchli estetik sifatlarni beradi.

Qisqa qilib aytganda, jurnalistlar o‘z faoliyati davomida ham kundalik yangiliklarni, ham surishtiruvlarni yoritish bilan shug‘ullanadilar. Gohida bu ikkala rol ham turli qobiliyatlarni, ishlash ko‘nikmalari, uslublari va maqsadlarini ko‘zda tutadi. Ularning orasidagi farqlar quyida keltirilgan jadvalda berilgan. Ushbu tafovutlarni aniq va murosaga kelmaydigan ziddiyatlar sifatida tushunmaslik lozim. Bu ma‘lumotlar quyidagilardan dalolat beradi: masalan, muayyan vaziyat chap ustunda taqdim etilgan mezonlarga ko‘proq mos kelsa, bu jurnalistning oddiy reportaj bilan shug‘ullanayotganini bildiradi; vaziyat jadvalning o‘ng ustuniga yaqinlashgani sari jurnalistning harakatlari ham ko‘proq surishtiruvga o‘xshay boshlaydi.

---

<sup>39</sup> Рэндалл Д. Универсальный журналист. Пер. с англ.– Алматы: Центральноазиатская школа молодых журналистов, 1996. – С.145.

<sup>40</sup> Положение о программе «Чистые перья». // Шум Ю.А. Журналистское расследование. Методические рекомендации.– М.: Фонд защиты гласности, 2000. – С.103.

<b>AN'ANAVIY JURNALISTIKA</b>	<b>JURNALIST SURISHTIRUVI</b>
<b>TADQIQOT</b>	
Axborot muayyan tempda to'planadi va xabar qilinadi (har kuni, har hafta, har oyda).	Axborotning bog'langanligi va to'liqligi aniqlanmagunicha chop etilishi mumkin emas.
Tadqiqot tezkorlik bilan amalga oshiriladi. Materialni tayyorlash ishlari yakunlanishi bilan keyingi tadqiqot ishlari olib borilmaydi.	Tadqiqot butun voqea tasdiqlanmagunicha davom etadi va u chop etilganidan keyin ham davom etishi mumkin.
Material axborotning zarur minimumiga asoslanadi va juda qisqa bo'lishi mumkin.	Material olinishi mumkin bo'lgan maksimum axborotga asoslanadi va juda uzun bo'lishi mumkin.
Axborot manbalarining bayonoti hujjatlarning o'rnini bosishi mumkin.	Material axborot manbaining bayonotini tasdiqlashga yoki rad etishga qodir hujjatlar bo'lishini talab etadi.
<b>AXBOROT MANBALARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR</b>	
Manbalarning haqqoniylik prezumptsiyasidan kelib chiqadi, ko'p hollarda ular tekshirilmaydi.	Manbalarning haqqoniylik prezumptsiyasidan kelib chiqadi, ko'p hollarda ular tekshirilmaydi.
Rasmiy manbalar o'zi haqida bildirish maqsadida yoki o'z maqsadlari yo'lida jurnalistga axborotni erkin taqdim etadi.	Rasmiy axborotning oshkor etilishi hukumat organlari yoki institutlarining manfaatlarini obro'sizlantirishi mumkinligi tufayli u jurnalistdan yashiriladi.
Jurnalist mavzuning rasmiy talqinini qabul qilishga majbur, ammo unga boshqa manbalardan olingan izohlar va fikr-mulohazalarni qarshi qo'yishi ham mumkin.	Jurnalist mustaqil manbalardan olingan ma'lumotlarga tayangan holda, mavzuning rasmiy talqiniga ochiq shubha bilan qarashi yoki uni rad etishi mumkin.
Jurnalist manbalarning ko'pchiligi yoki barcha manbalarga qaraganda kamroq miqdordagi ma'lumotga ega bo'ladi.	Jurnalist manbalarning ko'pchiligiga yoki barcha manbalarga qaraganda ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
Manbalar deyarli har doim aytib o'tiladi.	Aksariyat hollarda manbalar, ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida aytilmasligi mumkin.
<b>NATIJARLAR</b>	
Reportajga olamning tasviri sifatida qaraladi. Jurnalistning natija olishga bo'lgan umidlari jamoatchilikni xabardor qilishdan nariga o'tmaydi.	Jurnalist olamni bor narsa sifatida qabul qilishdan bosh tortadi. Material muayyan vaziyatning mohiyatiga kirib borishga yoki uni o'zgartirish, qoralash yoki qator holatlarda, muqobil sifatida taklif etish maqsadida uni fosh etishga qaratiladi.
Reportaj jurnalistning shaxsiy qiziqishini talab etmaydi.	Material jurnalistning shaxsiy qiziqishsiz hech qachon yakunlanmasligi mumkin.
Jurnalist xolis, haqqoniy bo'lishga harakat qiladi va reportaj ishtirokchisi bo'lgan u yoki bu taraf foydasiga aytiladigan fikrlardan o'zini tiyadi.	Jurnalist voqea faktlari borasida halol va puxta bo'lishga intiladi va shu asosida o'z surishtiruvni doirasida qurbonlar, qahramonlar va huquqbuzarlarni belgilashi mumkin.

	Bundan tashqari, jurnalist mazkur mavzu bo'yicha o'z hukmini yoki xulosalarini taklif etishga haqli.
Reportaj qay darajada ta'sirchan ekanligi muhim rol o'ynamaydi. Voqea xotimaga ega bo'lmaydi, chunki yangiliklar uzluksiz ravishda bir-birining o'rniga kelib turadi.	Materialning ta'sir qilish darajasi uni ta'sirchan qilib tayyorlashga bog'liq bo'lib, jurnalist manba asosida chiqariladigan xulosani taqdim etadi.
Jurnalist ba'zida xatoliklarga yo'l qo'yadi va ular, odatda, muhim rol o'ynamaydi.	Yo'l qo'yilgan xatolar jurnalistni turli rasmiy va norasmiy sanksiyalarga duchor qilishi va bu jurnalist hamda ommaviy axborot vositasiga bo'lgan ishonchni yo'q qilishi mumkin.

Yuqoridagi jadval asosida shunday xulosa qilish mumkinki, surishtiruv oddiy jurnalistikaga qaraganda kattaroq hajmdagi ishni ko'zda tutadi. Bu haqiqatan ham surishtiruvning har bir bosqichidagi katta, puxta va sinchkovlik bilan bajariladigan, shu bilan birga, xavfli va qiziqarli mehnatni anglatadi. Bundan tashqari, surishtiruv jamoatchilik uchun ham, muayyan OAV kanallari uchun ham, jurnalistlarning o'zi uchun ham ancha ko'p natijalarni olib keladi. Quyida bu qanday natijalar ekanini aniqlaymiz:

#### **Jamoatchilik uchun:**

Omma boshqa hech qayerdan topolmaydigan, ishonish mumkin hamda o'z hayotiga ta'sir qilish imkonini beruvchi axborotga ega materiallarni yoqtiradi. Bu moliya, ijtimoiy soha, siyosat yoki kundalik hayotda foydalanadigan mahsulot haqidagi axborot bo'lishi mumkin. Asosiysi, ularning hayoti biz u yoki bu masala bo'yicha qanday fikr aytishimizdan o'zgarishi mumkinligidir. Shu bois quyidagilarni esda saqlash lozim: jurnalist surishtiruvi – bu oddiy mahsulot emas, balki odamlarning hayotini himoyalash, qadrlash va uni yaxshi tomonga o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

#### **Myayyan OAV kanali uchun:**

Surishtiruv ishlarini munosib darajada o'tkazib, o'z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun ularni to'g'ri boshqaruvchi va qo'llovchi OAV ko'p daromad topishi mumkin (Fransiyadagi “*Kanar Anshene*” (Canard enchaîne) va Buyuk Britaniyadagi “*Economist*” guruhi (*The Economist Group*) haftanomalari bunga misol bo'la oladi). Ayni chog'da, bunday OAV jamiyatda katta obro' va nufuzga ega bo'la boshlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ular uchun axborot ko'proq ochiq bo'lishiga asos yaratib, o'zlarining raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

#### **Surishtiruvchi-jurnalist uchun:**

Jurnalistlar bilan o'tkaziladigan seminarlar va uchrashuvlarda “Bu bilan men o'zimga dushman orttiramani-ku!” degan so'zlar tez-tez eshitiladi. Aslida esa, agar to'g'ri harakat qilinsa, dushmanlardan ko'ra, ko'proq do'st orttirish mumkin. Bundan tashqari, o'sha jurnalist kasbdoshlar doirasida ham, omma orasida ham e'tibor qozonadi. Surishtiruvchilik qobiliyati yuqori baholana boshlaydi: u jurnalist sifatida faoliyatini davom ettirishi-ettirmasligidan qat'iy nazar, hamma vaqt o'zi uchun ish topa oladi. Albatta, bu gap yetarlicha ko'nikmalarga

ega bo‘lmagan jurnalistlarga taalluqli emas. Ularni juda osonlik bilan almashtirish mumkin. Ular o‘z qobiliyati bilan hamkasblari orasida e‘tibor qozonolmaydi.

Biroq eng asosiysi – bunday faoliyat jurnalistni har jihatdan o‘zgartiradi. U kuchli insonga aylanadi. Bu yo‘ldan borgan jurnalist haqiqatni boshqalar tayyor ko‘rinishda olib kelishini kutish o‘rniga, unga o‘zi mustaqil ravishda erishish qobiliyati borligiga ishonch hosil qiladi. U turli shubha-gumonlarga ko‘p ham berilmasdan, qo‘rquvlarni yengib o‘tishni o‘rganadi. U olamga yangicha, teranroq nazar tashlay boshlaydi. Ba‘zida jurnalistlik faoliyati ayrim hamkasblarni surbet odamlarga aylantiradi. Surishtiruvlar tajribasi esa ularni bunday qismatdan xalos etadi. Bir so‘z bilan aytganda, agar jurnalist o‘z kasbi va jamiyat oldidagi burchiga befarq bo‘lmasa, u o‘zi uchun foydali ko‘p narsaga erishib, auditoriyasi va hamkasblari orasida katta obro‘-e‘tiborga erishadi. Aynan jurnalist surishtiruvi uni ko‘plab yaxshi narsalarga muayassar etadi.

### **Surishtiruv uchun mavzu tanlash**

**Surishtiruv uchun mavzu qanday tanlanadi? Ko‘p hollarda mavzuni izlash ishlari jiddiy qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ammo, bu qanchalik mantiqqa zid bo‘lmasin, material hamma joyda bor. Uni ko‘ra olish kerak, xolos. U yoki bu mavzu surishtiruv o‘tkazilishini talab etishiga ishonch hosil qilishning ko‘plab usullari mavjud.**

**Masalan,** terrorchilik mavzusi bo‘yicha muayyan surishtiruv olib borish uchun jurnalistga terrorchilik mavjudligi haqida bilishning o‘zi yetarli emas. Bu mavzudagi surishtiruv ishini boshlash uchun qandaydir bir aniqroq axborot “turtki” zarur, xolos. Bu ma‘lumotlar haqiqatga to‘g‘ri kelishi yoki uydirma bo‘lib chiqishi mumkin. Agar shunday ma‘lumot bo‘lmasa, jurnalist hech nimani surishtirib, tekshira olmaydi. Xo‘sh, bunday ma‘lumotlar qanday paydo bo‘ladi? Ba‘zida mavzu bo‘yicha shunchaki qiziqish natijasida ham bu xususda muayyan ma‘lumot olish mumkin. Masalan, kitob, gazeta, jurnal o‘qish, hujjatli filmlar va teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish, bibliografik obzorlar, boshqa kutubxona manbalari, kompyuter nashrlari va ma‘lumotlar bazasi bilan tanishish jurnalistga aniq mavzu bo‘yicha muayyan manzilni belgilab berishi mumkin. Lekin bunday manzillarni ko‘proq tahririyatga qilinadigan telefon qo‘ng‘iroqlari, xatlar va shikoyatlar “shipshitadi”.

Gohida surishtiruvni tayyorlash uchun sabab kutilmaganda, ya‘ni doimiy tarzda professional jurnalistika muhitida yuruvchi ma‘lumotlar asosida paydo bo‘ladi. Dastlabki ma‘lumotni olishning yana bir ehtimoliy yo‘li – bu anonim so‘rovnoma o‘tkazish. Surishtiruvchi-jurnalist ishlaydigan nashrda so‘rovnoma chop etilishi, unga berilgan javoblar ham jurnalistni keyingi muayyan qidiruv manziliga yetaklashi mumkin. Umuman olganda esa, muayyan sohada yuz berayotgan voqealarni kuzatib borgan ma‘qul. Shunda ular orqali biror g‘aroyib voqea qachon yuz berishini darrov tushunib olish mumkin bo‘ladi.

Agar jurnalist o‘z materialini yakunlayotib, o‘zidan “Bu nega yuz berdi?” deb so‘rasa, demak, u surishtirishi mumkin bo‘lgan yana nimadir bor bo‘ladi.

**Yana bir usul** – atrofda nimalar o‘zgarayotganiga e‘tibor qaratish, yuz berayotgan voqealarni bo‘lishi kerak narsaday qabul qilmaslik. Belgiyalik taniqli jurnalist *Kris de Stup* o‘zi ishlaydigan shahar mavzesidagi belgiyalik “tungi kapalaklar” o‘rnini xorijliklar egallaganiga e‘tibor qaratib, o‘ziga o‘zi “Bu nega yuz berdi?” degan savolni berganidan keyin, o‘zining ayollar savdosi borasidagi eng jiddiy surishtiruvini boshlagan.

**Uchinchi usul** – bu odamlarning shikoyatlariga quloq solish. Bu nega yuz beryapti? Nahotki, buni hal etib bo‘lmaydi? Odamlar to‘planadigan har qanday joyda – bozorlarda, internet-forumlarda, yig‘ilishlarda kishini lol qoldiradigan yoki qiziqtiradigan g‘alati narsalarni eshitish va ko‘rish mumkin. Va, nihoyat, mavzu qidirishda faqat huquqbuzarliklar, suiste‘molliklar bilan bog‘liq narsalarga e‘tibor qaratmaslik lozim.

Masalan, M.Orlovning “Achchiq “haqiqat” yoki shirin yolg‘on”<sup>41</sup> deb nomlanuvchi surishtiruv materiali oddiy mavzuga – O‘zbekiston poytaxti bozorlarida sotiladigan asal mahsulotining sifatiga bag‘ishlangan. Bir qarashda oddiy bo‘lib ko‘rinadigan, maishiy muammoga murojaat etishga muallifni nima majbur qildi? Materialni o‘qib chiqqandan keyin jurnalistni qo‘liga qalam olishiga Toshkent bozorlarida tez-tez sifatsiz mahsulot sotish faktlari qayd etilayotgani majbur etgani ayon bo‘ladi. Bunga asalarichilarning o‘z mahsulotini tegishli organlarda sertifikatlashtirish tartibini bilmasligi, bu esa shu sohada firibgarlik holatlarini keltirib chiqarayotgani ravshan bo‘ladi.

Ko‘pincha barcha qoidalarga amal qilgan holda sodir etiladigan voqealarni yoritish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, yangi iste‘dod sohibining faoliyatini namoyon etish yoki yangi ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erisha olgan loyihani yoki ishchilarining farovonligini oshirayotgan va yangi ish o‘rinlarini yaratayotgan kompaniyani munosib baholash hech qachon oson kechmaydi. “Ilg‘or amaliyotlar”ni topish esa OAV auditoriyasi uchun hamisha juda qiziqarli mavzudir.

Bunday materialni tayyorlashda dastlab kam ahamiyatli, mayda surishtiruvlar bo‘lmashligini tushunish muhim. Uzoq qishloqda surishtiruv olib borish uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikmalar – bu poytaxt jurnalistlari foydalanadigan ko‘nikmalarning o‘zidir. Boshqacha aytganda, mavzular jurnalistlar o‘zida ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishni boshlashi uchun izlab topadigan joyda paydo bo‘ladi. Surishtiruvning o‘zi “qo‘lga kelishini”, zarur narsalarni jarayonning o‘zida yo‘l-yo‘lakay o‘rganish uchun tavakkal qiladigan paytni kutish kerakmas.

***Eng oxirgi maslahat – bu birinchi maslahatning o‘zi: o‘zingizga ishonning va oxirigacha sabotli bo‘ling. Ushbu tamoyil ikkita jihatga ega.***

**Birinchi,** “singan oyoq sindromi”dan iborat. Uning obrazli nomlanishiga sabab shuki, o‘zingning oyog‘ing sinmaguncha, atrofda qancha odam oqsoqlanayotganiga e‘tibor qilmaysan. Chunki barcha odam o‘ziga aloqasi bo‘lmagan hodisalarni unchalik sezmaydi. Shu bois qiziqishlarni boshqalar jiddiy qabul qilishi dargumon mavzularni o‘rganishga yo‘naltirish lozim.

**Ikkinchi jihat** quyidagilarda namoyon bo‘ladi: agar mavzu qiziqishingizni uyg‘otmasa, undagi nimadir jahlingizni chiqarmasa va o‘zgarishlar kerak degan jiddiy istakni tug‘dirmasa, unda jurnalist bu mavzu bilan shug‘ullanmagani ma‘qul. Xuddi shu narsani muharrirlarga nisbatan ham aytish mumkin: u surishtiruv mavzusi jurnalistga qay darajada qiziqarli ekanini kuzatishi, bilishi zarur. Agar bu jurnalist uchun ushbu mavzu faqat oddiy kundalik topshiriq bo‘lsa, unda mavzuni boshqa, taklif etilgan topshiriqqa ko‘proq qiziqish bildirgan xodimga berish maqsadga muvofiq.

Surishtiruv qo‘shimcha mehnatni talab etadi. Uni shu mavzuga jiddiy qiziqqan jurnalistgina uddalay olishi mumkin. Albatta, buning uchun u o‘zining tanqidiy aqlini ishga solishiga to‘g‘ri keladi. Uning xatti-harakatlarida har qanday holatda ham kasbiylik bo‘lishi zarur. Agar mavzu surishtiruvchini qiziqirtirmasa, u bu mavzuni barbod qilishi haqiqatga yaqinroq.

### **Surishtiruv mavzusi qay darajada muhim?**

**Ko‘p surishtiruvlar noto‘g‘ri sabablarga ko‘ra o‘tkazilgan. Surishtiruvni o‘tkazish esa oson mehnat emas. Ularning ba‘zilari faqat yengil mavzularni ko‘targani bois amalga oshirilgan. Buning ustiga surishtiruvni olib boruvchi jurnalistlarning juda**

---

<sup>41</sup> Правда Востока, 2012, 7 сентября.



**ko'pchiligi ushbu mavzu ularning auditoriyasi uchun muhim yoki muhim emasligi, agar muhim bo'lsa, unda nega shundayligi haqida o'zicha o'ylab ko'rmagan.**

Surishtiruv ustalari quyidagi maslahatni beradilar: tanlangan mavzu uning ustida ishlashga arzishi-arzimasligi haqida o'ylar ekansiz, o'zingizga quyidagi savollarni bering:

– U qancha odamni qamrab oladi?

– U qay darajada odamlarning hayotiga ta'sir qiladi? (Bu holatda son ham, sifat ham bir xil ahamiyatga ega. Agar bir nafar kishining hayoti tubdan o'zgarsa ham unda bu mavzu muhimdir).

– Bu ta'sir ijobiy xarakterga egami?

– Ushbu hech nimaga o'xshamagan jarayonni boshqa holatlarda qanday qilib takrorlash mumkin?

– Odamlar biror kimsaning beparvoligi qurboniga aylandimi?

– Ular jabrlanishining oldini olish mumkin edimi? Agar mumkin bo'lsa, qanday qilib ekanini tushuntiring.

– Jazolanishi kerak aybdorlar bormi, ular, hech bo'lmasa, fosh etilganmi?

– Yuz bergan voqea u yana sodir bo'lmasligi haqida gapirib berish muhimmi?

Bu voqeadan amal pog'onasidan ko'tarilish uchun foydalanishga urinmasdan, odamlarga xizmat qilish maqsadini birinchi o'ringa qo'yishga harakat qiling. Surishtiruv – bu “qurol” ekanini va jurnalist bu “qurol”i bilan ataylab yoki bexosdan odamlarga zarar yetkazishi mumkinligini unutmaslik zarur. Xususan, Vudvord va Bernshtayn mashhur Uotergeyt mojarosini rivojlantirar ekanlar, ular deyarli hech qanday aybi bo'lmagan bir necha begunoh odamning mansabi bilan bog'liq taqdirini barbod qilganlariga ko'pchilik e'tibor qilmadi. Bu odamlar Richard Niksonning ketidan iste'fo berdilar.

Shubhasiz, o'z kasbiy faoliyatingizda kimlar uchundir ezgulik keltirasiz, boshqalar uchun esa ularning hayotida yuz bergan eng katta ofat sababchisiga aylanasiz. U qanday rol o'ynashini, buni kim uchun va nega qilishini diqqat bilan kuzatishingiz, boshqalar ustidan surishtiruvni boshlashdan oldin o'z imkoniyatlaringizni to'g'ri baholashingiz lozim. Agar tanlangan mavzu jurnalistga qaraganda boshqa odamlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lmasa, unda jurnalist ushbu muammo bilan shug'ullanishi shart emas.

### 3-bob. SURISHTIRUV GIPOTEZASI

**Jurnalistlar material mavzusiga doir ajoyib g‘oyalarining muharrir tomonidan rad etilishi haqida tez-tez shikoyat qilishadi. Ha, albatta, bunday holatlar bo‘lib turadi. Ammo ko‘p hollarda muharrirlar rad etadigan narsa – bu voqeaning o‘zidan voz kechish emas. Bu barbod bo‘lishi oldindan ma‘lum ish – yaxshi rejalashtirilmagan, anchagina kuch va vaqtni oladigan natijasi shubhali surishtiruvdan voz kechishdir.**

Masalan, jurnalistning “men korrupsiya bo‘yicha surishtiruvni olib bormoqchiman” deyishi muharrir uchun ajoyib taklif emas. Shubhasiz, korrupsiya hamma joyda, butun dunyoda mavjud. Agar e‘tibor qilinsa, uning u yoki bu ko‘rinishini barcha joyda topish mumkin. Biroq korrupsiyaning o‘zi – bu tadqiqot predmetidir. Agar jurnalistning maqsadi voqeani hikoya qilish emas, balki predmetni tadqiq qilish bo‘lsa, unda u shu predmet bo‘yicha ekspertga aylanishi mumkin. Biroq bunda u ko‘p vaqti va kuchini bekor sarflaydi. Xuddi shu bois mulohazakor muharrir jurnalistning ushbu g‘oyasini ma‘qullamaydi. Agar jurnalist muharrirga “oliy ta‘lim tizimidagi korrupsiya ota-onalarning o‘z farzandlari kelgusida yaxshi hayot kechirishiga bo‘lgan umidlarini chippakka chiqardi” deb aytsa, bu uning muayyan voqea bo‘yicha ishlashini bildiradi. Bu esa ancha qiziqarliroq.

Surishtiruvchi ba‘zan fikri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini isbotlamasdan qandaydir gipoteza(faraz)ni ham ilgari suradi. U oliy o‘quv yurtlarida korrupsiya mavjud va u odamlarning kamida ikkita guruhiga – ota-onalar va talabalarga halokatli ta‘sir ko‘rsatmoqda, degan taxminni bildiradi. Balki, bu to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, balki noto‘g‘ri. Lekin bundan qat‘iy nazar, muallif zarur faktlarni taqdim etishi zarur.

Hozircha esa uning farazi javobi topilishi kerak qator aniq savollarni tug‘diradi. Bunday paytda gipotezaning o‘zini diqqat bilan ko‘rib chiqish va u qanday alohida aniq fikrlarni qamrab olganini tahlil qilish zarur. Keyin ushbu fikrlarning har birini tekshirish, mavzuni yoritishda foydalaniladigan so‘zlarning ma‘nosiga aniqlik kiritish mumkin. Chunki qo‘yilgan maqsadga erishish uchun, albatta, ularning ma‘nosini aniqlash va aniq bayon etish kerak.

Gipotezani ilgari surish surishtiruvning muhim bosqichlaridan biridir. Surishtiruv gipotezasi deganda, masalan, jurnalistni qiziqtirib qolgan jinoyat nega sodir bo‘lgani, unga nima sabab ekani, bundan kim manfaatdorligi, kim ishtirokchi ekani haqidagi taxmin tushuniladi.

Surishtiruvchi yuqoridagi gipotezani tahlil qilayotganida, o‘ziga quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Muayyan oliy o‘quv yurtiga oxirgi qabul paytida qaysi mutaxassisliklar bo‘yicha tanlov katta bo‘ldi?
- Kim kimga va qanday xizmatlari uchun qancha pul to‘ladi?
- O‘qishga kirish uchun pora berish bo‘yicha korrupsion sxema qanday tashkil etilgan?
- Ushbu oliy o‘quv yurti xodimlaridan kim bu jarayonda qatnashyapti?
- Ota-onalar va abituriyentlardan kim aytilgan summani berdi va nima uchun?
- Mazkur oliy o‘quv yurtidagi ushbu sxemaning miqyosi qay darajada va bularning hammasi bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

Aslida har bir holatda bunday gipotezalar bir, ikki va, hatto, bir nechta bo‘lishi mumkin. Shunga mos ravishda, javobini talab etuvchi savollar soni ham ko‘p bo‘lishi tabiiy. Bularning barchasi bo‘lg‘usi surishtiruv ishining maqsad va vazifalariga bog‘liq.

Surishtiruvning quyidagi maqsadlari bor:

1) asl ishtirokchilarni aniqlash; 2) yuz bergan voqea mexanizmini tavsiflash; 3) surishtirilayotgan vaziyat ishtirokchilarini bu jinoyatni sodir etishiga turtki bergan bahonalarni aniqlash;

4) sabablarni aniqlash; 5) tadqiq etilayotgan vaziyat rivojining ehtimoliy oqibatlarini bashorat qilish.

Jurnalist, mavzu ob'yekti to'g'risida muayyan ma'lumotga ega bo'lgani holda, hech bo'lmaganda, surishtiruv uchun aniq vazifani belgilashi kerak. Buning uchun u, avvalo, xatti-harakatlari o'sha hodisa yoki muammoga daxldor shaxslarning faoliyat sohasini va ularning doirasini belgilab olishi lozim. Keyin esa unga, ushbu holatdagi mavjud real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, "surishtiruv" tushunchasining umumiy maqsadlarini aniqlashtirishi, ya'ni ularni real amalga oshiriladigan maqsadlar darajasigacha "toraytirishi" zarur.

Ushbu jarayonni quyidagi grafik ko'rinishda ifodalash mumkin:



Ushbu savollarga istalgan tartibda javob berish mumkin. Ammo har doim javoblarni qaysi tartibda topish osonligidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Har qanday surishtiruv ertami yoki kech murakkab ishga aylanadi. Chunki u ko'p faktlarni, ko'p manbalarni ochishni

koʻzda tutadi. Oʻz obroʻyingizni tahdid ostiga qoʻyishdan oldin mavzuni toʻgʻri ochgan-ochmaganligingiz bilan bogʻliq gumonlarni oʻz ichiga oladi.

Yuqoridagi gipotezamiz boʻyicha esa suhbatni ota-onalar va talabalarning umidlari va dilsiyohliklaridan boshlagan maʼqul.

Jurnalist oliy oʻquv yurtlarida korrupsiya haqiqatan ham mavjudligini tasdiqlovchi kamida toʻrtta manbani topganidan keyin (toʻrttadan kam manba – surishtiruvni tayyorlash uchun juda tavakkal asosdir), u oliy taʼlim tizimi qanday ishlashini koʻrib chiqishga kirishishi mumkin. Buning uchun oliy oʻquv yurtiga oʻqishga qabul qilishning qoidalari, protseduralarini, ilgari surgan ideallari va missiyasini oʻrganish kerak boʻladi.

Ushbu tizimning qanday ishlashini oʻrganish jarayonida jurnalist korrupsiya boʻlishi mumkin boʻlgan qora zonalarini topadi. Shundan keyin oʻzi eshitgan va aniqlagan voqelikni tizim tomonidan eʼlon qilingan narsalar bilan taqqoslashi mumkin.

### **Gipoteza nima uchun zarur?**

**Yuqorida keltirilgan misol katta mehnatni talab qiladiganday boʻlib koʻrinishi mumkin. Haqiqatan ham, bu, masalan, koʻplab yangiliklarni tayyorlash, xususan, bir-ikkita manba bilan suhbatlashish yoki press-relizni koʻchirish bilan solishtirganda, juda katta mehnat. Agar gipoteza asosidagi usulni surishtiruvni oʻtkazishga doir boshqa koʻplab usullar bilan taqqoslasak, saʼy-harakatlarning tejalishi borasidagi afzalliklar yaqqol koʻzga tashlanadi:**

**1. Gipoteza – tekshirilishi kerak boʻlgan narsa.** “Surishtiruv gipotezasi” deganda jurnalistni qiziqtirgan jinoyat nega yuz bergani, bunga nima sabab boʻlishi mumkinligi, undan kim manfaatdorligi, kim uning ishtirokchisi ekani haqidagi taxmin tushuniladi. Gipoteza (gipotezalar)ni ilgari surish, avvalo, u jurnalist surishtiruvni predmeti bilan bogʻliq savollarga javob berish maqsadida qaysi yoʻnalishda harakatlanish kerakligini aniqlashtirish uchun zarurligi bois ham muhimdir.

**2. Gipotezaning mavjudligi tadqiq etilayotgan mavzuning yashirin jihatlarini jurnalist tomonidan ochilishi imkoniyatini oshiradi.**

Biz “sir” deb aytadigan narsalarning aksariyati bor-yoʻgʻi faktlar boʻlib, ular aniq, yaqqol bilinib turmaydi. Gipoteza psixologik samaraga ega boʻlib, oʻquvchi uning taʼsirida materialni diqqat bilan qabul qiladi va shu bois unga bogʻliq savollarni berishi mumkin. Fransiyalik surishtiruvchi-jurnalist Edvi Plenel aytganiday, “agar siz nimanidir topishni istasangiz, uni izlashingiz kerak”. Bunga qoʻshimcha sifatida aytish mumkinki, agar jurnalist haqiqatan ham, nimanidir izlasa, oʻshani va izlaganidan koʻprogʻini ham, albatta, topadi.

**3. Gipoteza jurnalist fikrining boshqarilishini yengillashtiradi.**

Surishtiruvchi aynan nimani izlayotganiga va qidiruvni nimadan boshlayotganiga aniqlik kiritgan holda, surishtiruvning boshlangʻich bosqichiga qancha vaqt talab etilishini taxminan hisoblash hamda uni boshqarish jurnalistning qoʻlida boʻlgan loyiha sifatida qabul qilinishi mumkin.

**4. Gipoteza (yoki gipotezalar) – bu koʻp marta foydalanish mumkin boʻlgan vositadir.**

Jurnalist tomonidan ishlab chiqilgan ishchi gipotezalar xato boʻlishi ham mumkin. Biroq ularning xato ekanini aniqlash ham haqiqatga yaqinroq gipotezani belgilashning oʻziga xos bir yoʻlidir. Rad etilgan gipotezalar esa, bu haqiqat sari harakatlanish yoʻlidagi bosqichlar, xolos. Ammo ularni keyinchalik boshqa mavzular va muammolar ustida ishlaganda qoʻllash mumkin.

**5. Gipoteza – bu maʼlumotlarning shunchaki toʻplami emas, balki tom maʼnodagi jurnalist surishtiruvni tayanadigan poydevordir.**

Muharrirlar muayyan davr ichida muayyan zaxiralar to'planishi va natijada chop etishga tayyor material paydo bo'lishiga ishonch hosil qilishni istaydi. Gipotezaning mavjudligi esa bunday natijaga erishish ehtimolini bir necha baravarga oshiradi. Gipoteza jurnalist mehnati bo'yicha minimal va maksimal ijobiy natijani hamda eng yomon holatda nima yuz berishi mumkinligini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi.

– Eng yomon holat – bu gipotezani tekshirish jarayoni hech qanday voqea yuz bermagani va vaqt, kuch sarflamasdan loyihani to'xtatish mumkinligini ko'rsatadigan holatdir.

– Minimal ijobiy natija dastavval ilgari surilgan gipoteza to'g'ri bo'lib chiqishi va tez tasdiqlanishi mumkinligini bildiradi.

– Maksimal ijobiy natija – agar dastlabki gipoteza to'g'ri bo'lib chiqsa, qolganlari mantiqiy ravishda undan kelib chiqishini bildiradi. Bu esa, o'zaro bog'liq materiallar turkumi yoki juda katta surishtiruv ishi yaratilishiga olib keladi, demakdir.

### **Gipotezaning ijobiy va salbiy jihatlari**

**Faoliyatini endi boshlayotgan jurnalistlar mavzuni ochishga muvaffaq bo'lganlaridagina nimalar yuz berishi mumkinligidan behad tashvishlanadilar. Kimdir ulardan qasos olishni istab qolsa-chi? Ularni sudga berishsa-chi? Tajribali jurnalistlar chop etilgan material haqiqatga to'g'ri kelmaganida buning oqibati xunuk bo'lishini biladilar. Albatta, ular haq yoki nohaq ekanliklaridan qat'iy nazar, ularni sudga berishlari mumkin. Haqqoniy bo'lmagan materialning chop etilishi haqiqatni buzib ko'rsatishdir. Buning ustiga u jurnalistlarda kasbiy mahorat, halollik va axloqiylik yo'q deganga o'xshash jiddiy ayblovlar uchun sabab bo'ladi.**

Shu munosabat bilan quyidagilarni esda saqlagan ma'qul:

– agar dalillarni e'tiborga olmasdan, gipotezaning haqqoniy ekanini turli yo'llar bilan isbotlashga urinsangiz, unda dunyoda istalgancha topiladigan ustomon yolg'onchilar safini to'ldirishingiz mumkin;

– surishtiruv – bu haqiqatni topishdir. Shu bois gipotezani ishlab chiqishda iloji boricha halol va ehtiyotkor bo'lish kerak. Gipotezalarni nafaqat tasdiqlash, balki ularni inkor etishga ham urinib ko'rish zarur.

### **Gipotezalar qanday ishlaydi?**

#### **1. Nima sababdan birinchi gipoteza to'g'ri yoki noto'g'ri ekani muhim emas?**

Surishtiruvni gipoteza sifatida tuzish jarayoni jurnalistikaga yaqinda alohida usul sifatida kiritildi. O'z mohiyatiga ko'ra, ushbu usul mantiqiy xulosalarga asoslanadi. Jurnalist, o'zidagi mavjud ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, real voqelik to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Keyin bu fikrni tasdiqlashi yoki inkor etishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni izlaydi. Bu esa surishtiruv jarayoni deb ataladi.

Agar gipoteza to'la tasdiqlanmasa, uning alohida tarkibiy qismlari tasdiqlanishi mumkin. Aks holda, boshlang'ich pozitsiyaga qaytish va yangi gipotezani ilgari surish kerak. To'liq yoki qisman tasdiqlanishi mumkin bo'lmagan gipoteza to'qimadan boshqa narsa emas. Agar biror fikr dalillar bilan mustahkamlansa, bu keyin ham yoritish uchun mavzu borligini bildiradi.

## **2. Gipotezani tarkiblashtirish**

Dastlabki gipoteza juda salmoqli ikkita sabab bo'yicha ko'pi bilan uchta taklifni o'z ichiga olishi kerak. Uning qisqaligi boshqalarning oson tushunishini kafolatlaydi.

Gipoteza voqea sifatida bayon etiladi. Jurnalist shunchaki faktlarni to'plash bilan shug'ullanmaydi. U voqealarning asl sababini ochishiga umid qilgan holda, ularni hikoya qiladi.

Ayni o'rinda "Hurriyat" gazetasi amaliyotidan misol keltirish o'rinli. Ushbu nashr uzoq vaqt huquqni muhofaza qilish tizimidagi kamchiliklar to'g'risida surishtiruvlar olib bordi. Xususan, "Birovlarning xatosi katta jinoyatni fosh etishga ko'maklashgan mutaxassisning sha'niga dog' tushirdi" maqolasida sud qarorlarini chiqarishdagi qoidabuzarliklar haqida so'z boradi. Bunda muallif o'z gipotezasini "adolat katta yoki kichkina bo'lmaydi" degan mantiqiy asos bo'yicha tuzadi. Bu esa jurnalistga to'plangan faktlarni tadqiq qilish asosida tergovchi hamda sudyaning ishidagi g'ayriqonuniylik darajasini belgilashga yordam beradi. Gipoteza tarkibini ishlab chiqish jarayonida u haqiqat qisman bo'lishi mumkin emas, jazo esa sodir etilganga mos ravishda bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi.

Surishtiruvdagi eng murakkab jihatlardan biri hikoyaning kalavasini ushlab turish va faktlar tagida qolib ketmaslikdan iboratdir. Gipoteza esa muallif ma'lumotlarni juda ko'p to'plaganini his qilgan paytda yordam beradi.

Bunday paytda o'tkazilayotgan surishtiruv bilan bog'liq muammoni hal etish variantini izlashga urinib ko'rgan kishilarning maslahatlarini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak.

## **3. Gipoteza samarali bo'lishining to'rtta usuli**

Samaraliroq gipotezani ishlab chiqish uchun dunyodagi taniqli surishtiruvchilar rioya qiladigan to'rtta qoidaga amal qilgan ma'qul.

Bular:

### **1) Tasavvur "tizginini qo'yib yuborish"**

Odatda, jurnalistlar ko'rgan, eshitgan yoki o'qiganlarini yoritadilar yoki kechagi yangiliklarni tahlil qiladilar. Surishtiruvchi esa hali hech kimga ma'lum bo'lmagan narsani ochishga harakat qiladi. Surishtiruvchi-jurnalist voqealarni shunchaki yoritmaydi, balki ularni yaratadi. Chunki, aynan ijodiy tasavvurgina jurnalistga kundalik hayot doirasidan chiqish va voqeani ko'p o'lchamli makonda taqdim etish imkonini beradi.

### **2) Iloji boricha aniq bo'lish**

Agar gipotezada "jinoyat" so'zi ishlatilsa, unda bu qanday jinoyat – maishiy yoki xo'jalik jinoyati ekanini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Taxminiy fakt haqidagi tasavvur qanchalik aniq bo'lsa, uni tekshirish shunchalik oson kechadi.

### **3) O'z kasbiy va ijodiy tajribasidan foydalanish**

Har bir mutaxassis hayoti davomida vaqt o'tishi bilan kasbiy tajribaga aylanuvchi bilimlar, ko'nikmalar va tasavvurlarga ega bo'ladi. Shu boisdan surishtiruvchi uzoq yillar davomida erishgan o'z tajribasiga tayanishi muhimdir.

**Misol:**

Ko'p yillar davomida "Hurriyat" gazetasida ishlagan taniqli o'zbek tadqiqotchisi T.Akbarov navbatdagi surishtiruvni o'tkazayotganida, albatta, yuridik hujjatlarni diqqat bilan o'rganib, ish materiallari bo'yicha to'plangan faktlarni hamda guvohlarning shohidliklarini qiyosiy tahlil qilish kabi o'zining kasbiy tajribasigagina tayangan.

**4) Xolis bo'lish**

Bu o'rinda xolislik deganda uchta parametr nazarda tutiladi.

1. Jurnalist isbotlanishi mumkin bo'lgan faktlarning realligini tan olishi lozim. Agar faktlar gipoteza noto'g'ri ekanidan dalolat bersa, unda gipoteza almashtiriladi. Faktlarni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas.

2. Surishtiruvchi nohaq bo'lib chiqishi ham mumkinligini e'tiborga olgan holda ishga kirishishi lozim. Bu holda unga tashqaridan yordam zarur bo'ladi.

3. Xolis surishtiruv – har bir professionalning orzusidir. Afsuski, ko'p hollarda u ish jarayonida faktlar va voqealarga baho berishda subyektivizmga berilishi mumkin. Chunki u ko'pgina odamlarning taqdiri, muayyan faoliyat sohasining holati va, hatto, butun jamiyatning kelajagi o'zining ishiga bog'liqligiga ishonadi. Shu bois jurnalistning mantiq va his-tuyg'ularni muvozanatda saqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu narsa unga oxirigacha xolis bo'lish imkonini beradi.

**4. Faktlar ishchi gipotezaga qarshi bo'lganida, dadillik bilan yangi gipotezani ilgari surish**

Agar faktlar gipotezaga zid bo'lsa, shubhalarni bir chetga surib qo'yib, to'g'ri yo'lga chiqish imkonini beruvchi yangi gipotezani ilgari surish maqsadga muvofiq. Bu jurnalistga o'zining keyingi qadamlarini tekshirib chiqish va ko'zlangan maqsad sari borish imkonini yaratadi.

**Gipoteza sifatida rasmiy taxmindan foydalanish**

**Rasmiy bayonotlar yoki mutaxassislarning ko'rsatmalari ham gipoteza sifatida xizmat qilishi mumkin. Odatda, surishtiruvlarning aksariyati va'da qilingan narsa va buning amalda bajarilgani yoki bajarilmagani o'rtasidagi farqlarga bag'ishlanadi. Shu bois rasmiy e'lon qilingan va'da ko'p hollarda gipoteza bo'lib xizmat qiladi va surishtiruvlar uning bajarilgan-bajarilmaganini ko'rsatadi.**

**Misol:**

*Jurnalist surishtiruvlari tarixidagi mashhur reportajlardan biri, "Zararlangan qon to'g'risidagi ish"ning fosh etilishi quyidagicha boshlangan edi: gemofiliyaga chalingan bemorlarning huquqini himoya qilish bo'yicha jamoat tashkiloti vakillari reportyor Ann-Mari Kasterega (Anne-Marie Kasteret) murojaat qiladi. Bu odamlar irsiy kasallikdan aziyat chekadi. Ushbu kasallikda qonning quyilish omillari yo'qolgan bo'lib, hatto, teridagi kichkina kesilgan joy ham to'xtamasdan qon ketishiga va qon yo'qotilishidan o'limga olib kelishi mumkin. Mazkur tashkilot vakillarining so'zlariga ko'ra, OITS epidemiyasi endi boshlanganida Fransiyadagi davlat agentliklaridan biri gemofiliyaga chalingan bemorlarga va ularning oila a'zolariga atayin va qasddan OITS virusi bilan zararlangan maxsus qon preparatlarini sotgan.*

*Kastere ushbu organ rahbari bilan uchrashganida u: “Ha, haqiqatan ham, gemofiliyaga chalingan bemorlar bizning preparatlarda bo‘lgan OITS virusini yuqtirgan. Ammo...*

*– U paytda hech kim preparatlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan xom- ashyoda OITS virusi mavjud ekanini bilmagan.*

*– Hech kim xavfsizroq preparatlarni qanday tayyorlashni bilmagan, chunki bozorda shunday preparatlar bo‘lmagan.*

*– O‘shanda qilinishi kerak bo‘lgan eng yaxshi narsa – bu virus tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun choralar qabul qilish, ya‘ni zararlanmagan shaxslarga zararlangan preparatlarni kiritishga yo‘l qo‘ymaslik edi” deb aytgan.*

*Rasmiy taxmin ana shunday edi va u yetarlicha asos va mantiqqa ega edi. Biroq Kastere uni oddiy gipoteza sifatida tekshira boshlaydi va asta-sekin sanab o‘tilgan faktlardan biri tasdiqlanishi mumkin emasligi aniqlanadi. Aksincha,*

*– Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish o‘sha paytda qon preparatlari tarkibida OITS virusi mavjudligi ma‘lum bo‘lganini ko‘rsatdi (aslida, ushbu hukumat agentligi uning xomashyosida virus borligi haqida ogohlantirilgan ekan).*

*– Qator farmatsevtika kompaniyalari va boshqa hukumat agentliklari xavfsiz preparatlarni qanday tayyorlash haqidagi bilimlarga ega bo‘lgan, biroq hech kim ularga quloq solmagan.*

*– Virus bilan zararlangan preparatlarni sotgan agentlik zararlangan preparatlardan foydalangan odamlar sog‘lom yoki kasal ekanini tekshirib ko‘rmagan. Chunki ularda OITS virusini aniqlovchi testlar bo‘lmagan. Lekin har qanday holatda ham kasallikdan aziyat chekayotgan kishilarning yana virus bilan zararlanishini keltirib chiqargan bunday tibbiy amaliyot juda dahshatli.*

*– Barcha mahsulotlar OITS virusi bilan zararlangani haqida yetarlicha dalillar to‘planganidan keyin ham ushbu organ zararlangan material zaxirasi tugaguniga qadar ularni sotish ishlarini davom ettirishga qaror qiladi.*

*Kastere barcha dalillarni to‘plash uchun to‘rt yil izlandi. Xo‘sh, olingan natija to‘rt yillik sa‘y-harakatlarni oqladimi? O‘zingiz baho bering: reportajni chop etish natijasida bir nechta yuqori martabali jinoyatchi panjara ortiga jo‘natildi, jabrlanganlarning ba‘zilari o‘zlari yolg‘iz emasliklaridan yengillikni his qildilar, ushbu mojaroni yashirishga uringan hukumat saylovlarda mag‘lubiyatga uchradi, shuningdek, o‘sha paytgacha kelib, qotillik mashinasiga aylangan sog‘liqni saqlash tizimida islohotlar boshlandi. Agar shunday ish uchun vaqtni sarflashga qodir bo‘lmasangiz, siz jurnalist bo‘lishingiz mumkin, ammo surishtiruvchi bo‘lolsangiz.*

*Balki sizni Kasteredan boshqa hech kim o‘z vaqtini bunday uzoq muddatli loyihaga sarflashni istamagan hayron qoldirgandir. Buning asosiy sababi – uning raqiblaridan kamida bittasi jinoyatni sodir etgan kishilarning yonini olgani va eng muhimi – hamma hurmat qiladigan odamlar bunday jinoyatni sodir etishiga hech kim ishonmaganida edi. Ba‘zi narsalarni takrorlab turamiz: surishtiruvlarning juda ko‘pi o‘zini himoya qilishga intiluvchi surishtiruv obyektlaridan ko‘ra, aniqlangan faktlarning haqqoniyligini qabul qilishdan bosh tortuvchi jurnalistlarning o‘zi tomonidan rad etiladi.*

*O‘zbekistonda ham shunday amaliyot kuzatilmoqda. Ko‘p hollarda rasmiy bayonotlar va davlat boshqaruvi organlari, O‘zbekiston ekologik harakati, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi, “Mehr nuri” xayriya jamg‘armasi kabi ijtimoiy harakatlar va tashkilotlar vakillarining taxminlari surishtiruvlarning asosiga aylanyapti.*

*Misol uchun, bosh prokuror R.Qodirov yoki taniqli huquq himoyachisi A.Saidovning rasmiy chiqishlaridan keyin amaldorlarning o‘z mansab lavozimini suiste‘mol qilishi va boshqa muammolarga bag‘ishlangan surishtiruvlar o‘tkazildi. Ekoharakat ekspertlarining*



bayonotlaridan so'ng esa, ixtisoslashgan va ijtimoiy-siyosiy matbuotda surishtiruvlar olib borilishi kengaymoqda.

### **Gipotezaga asoslangan surishtiruv doirasidagi muayyan holatni tahlil qilish: Jajji Dou fojiasi**

**Gipotezaga asoslangan surishtiruv qanday olib borilishi bo'yicha xalqaro amaliyotdan olingan bir misolni ko'rib chiqamiz. Hammasi muharrirning o'z qo'li ostidagi jurnalistlarga og'aynilaridan biri bildirgan muammoni surishtirish ishini topshirganidan boshlanadi. Unga do'sti shunday deydi: «Shifokorlar turli nuqsonlarga chalingan va majruh bolalar paydo bo'lmasligi uchun muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarni o'ldiryapti». Muharrir o'z xodimlariga, agar material tayyorlanmasa, ular ishdan bo'shatilishiga ishora qiladi.**




## 1. Jurnalistlar, birinchi navbatda, axborotning ochiq manbalariga murojaat etadilar

Ushbu muammoning eng qiyin tomoni – go‘dakni tug‘iruxxonada qanday o‘ldirish mumkinligini tekshirishdir. Shu bois bu savol darhol rad etiladi. Uning o‘rniga eng yangi tibbiy adabiyotlar diqqat bilan o‘rganilib, muddatidan oldin hamda nuqsonli va majruh bo‘lib tug‘ilgan bolalar bo‘yicha statistika ma‘lumotlari topiladi. Bularni ochiq manba, ya‘ni mahalliy kutubxonadan bemalol olish mumkin edi.

## 2. Gipoteza asosli ekani bo‘yicha birlamchi tahlil

Ilgari surilgan gipotezaning tasdiqlanishini tekshirish uchun barcha ma‘lumotlarni birlashtirish keyingi bosqichga aylanadi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning vazni, muddatidan oldin tug‘ilishning standart parametrlari bo‘yicha milliy statistika hamda bunday chaqaloqlarda kuzatiladigan nuqsonlar va majruhliklar darajasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi tendensiya aniqlanadi:



Boshqacha qilib aytganda, 1970-yildan 1984-yilgacha muddatidan oldin tug‘ilgan bolalar soni keskin kamaygan. Muddatidan oldin tug‘ilganlik nuqsonlar va majruhliklar bilan qiyoslangani bois bolalar rivojlanishidagi kamchiliklar soni ham qisqargan. 1984-yildan boshlab ushbu miqdor yana o‘sa boshlagan.

Bu gipotezani tasdiqlaydimi yoki rad etadimi? Unday ham, bunday ham emas. Ushbu ma‘lumotlar qayerdadir kimdir bolalarni o‘ldirayotganidan dalolat bermaydi. Balki 1984-yildan keyin rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan, vaqtidan oldin tug‘ilgan bolalarning soni yana o‘sa boshlagani biror aqldan ozgan kishini bunga qarshi ish ko‘rishga undagandir. Bu noma‘lum edi. Faqat 1984-yilda nimadir o‘zgargani aniq, xolos.

## 3. Keyingi tekshiruv

Mualliflar rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, muddatidan oldin tug‘ilgan bolalarga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarni ko‘proq to‘plash uchun yana kutubxonaga borishadi.

Maqolalardan birida qandaydir bir “Jajji Dou” haqida soʻz boradi. Jurnalistlar maqola muallifiga qoʻngʻiroq qilib, “Jajji Dou” nimani anglatishini soʻraydi. U shunday deb javob beradi: *“Bu bizga muddatiidan oldin tugʻilgan bolalarning hayotini ulardagi nuqsonlar va majruhliklar hamda ota-onasining istagidan qatʻiy nazar qutqarish uchun barcha ehtimoliy choralarni koʻrishni belgilovchi qonun”*.

Ushbu yagona faktning oʻzi qonun ijrosi amalga oshirilganida, ular tomonidan ilgari surilgan gipotezani chippakka chiqarishi mumkin edi. Shuning uchun mualliflar shifokorlardan bu qonunga amal qilish-qilinmasligini soʻraydi. Ular esa javob berishadi: *“Har bir kasalxonada “qaynoq” telefon liniyasi mavjud. U orqali prokuror bilan bogʻlanish mumkin. Agar kimgadir siz oʻz vazifangizni bajarmayotganday koʻrinsangiz, sizni hibsga olishadi”*.

Ular bunday holatlar yuz bergan joylar maʼlum-maʼlum emasligi haqida soʻrashib, shunday voqealar boʻlgani haqida bilib olishadi. Shuningdek, ular qonun qachon kuchga kirgani bilan qiziqishadi. Maʼlum boʻlishicha, qonun 1984-yilda kuchga kirgan ekan.

Ana shunda dastlabki gipoteza arziguli emasligi ayonlashadi. Biroq uning oʻrniga boshqa, yangi gipoteza ilgari suriladi: *“1984-yilda qabul qilingan qonun shifokorlarga muddatidan oldin tugʻilgan va rivojlanishida ogʻir nuqsonlar qayd etilgan bolalar tugʻilayotgan paytda ularning tabiiy oʻlimiga yoʻl qoʻyishni taqiqlaydi. Natijada, rivojlanishida nuqsonlari boʻlgan odamlarning yangi populatsiyasi paydo boʻldi”*.

Keyingi bir necha kun davomida ushbu populyatsiya haqidagi hujjatli maʼlumotlar toʻplanadi. Chunki mavzuning mumkin boʻlishi miqyosiga baho berish zarur edi. Dastlab 1984-yildan 1995-yilgacha boʻlgan davr ichida muddatidan oldin tugʻilgan va ushbu qonun tufayli tirik qolgan, yaʼni oldingi paytda oʻz oʻlimi bilan nobud boʻladigan bolalar haqidagi qoʻshimcha maʼlumotlar hisoblab chiqildi. Bu juda oddiy edi: 1983-yilda (qonun kuchga kirishidan oldingi oxirgi yil) muddatidan oldin tugʻilgan bolalar boʻyicha maʼlumotlar keyingi yillardagi koʻrsatkichlardan olib tashlanadi. Keyin muddatidan oldin tugʻilganlik va rivojlanishidagi nuqsonlarni oʻzaro bogʻlovchi ilmiy tadqiqotlar asosida nuqsonlar va majruhliklar bilan tugʻilishi mumkin boʻlgan odamlar soni hisoblab chiqiladi.

Shundan soʻng mualliflar oʻzlari shifokor va matematik boʻlmaganliklari uchun xatoga yoʻl qoʻyishlari mumkinligini inobatga olib, epidemologlarga murojaat qilishadi. Ular hisob-kitoblar natijasida olingan raqamlarga ishona olishmasdi. Chunki raqamlar ushbu qonun qabul qilinishi natijasida ogʻir nuqsonlarga ega – soʻqir, shol, rivojlanishdan ortda qolgan kamida chorak million bola dunyoga kelganini bildirardi. Ekspertlar raqamlar asosililigini aytadi. Biroq ushbu tadqiqotda yangi gipotezani talab etuvchi jiddiy vaziyat yuzaga keladi va bu mualliflarni butun jarayonning eng muhim qismiga yaqinlashtirardi.

#### **4. Yangi yordamchi gipotezalarni ilgari surish**

Chuqur surishtiruv deyarli har doim mavzuni rivojlantirishning ish boshlangan paytda nomaʼlum boʻlgan yangi imkoniyatlarini ochadi. Koʻpincha ular yangi gipotezalar ilgari surilishini talab etadi. Ular esa, oʻz navbatida, tekshirib koʻrilishi mumkin. Agar ular dastlabki surishtiruv bilan bogʻlangan boʻlmasa, unda ularga biroz vaqt eʼtibor bermaslik mumkin. Ammo shunday holatlar boʻladiki, unda yangi kashfiyot dastavval belgilanganidan muhimroq boʻlib chiqadi. Bundan tashqari, yangi gipotezalar dastlabki gipotezani aql bovar qilmaydigan tomondan yoritgan holda, unga aniqlik kiritadi. Agar bu yuz bersa, ular eʼtiborsiz qoldirilsa, unda materialni yaratish imkoniyatini yoʻqotish ehtimoli bor.

Biz koʻrib chiqayotgan holatda qandaydir chala qonun tufayli rivojlanishida nuqsoni boʻlgan chorak million bola tirik qolganiga doir statistika maʼlumotlari mavjud. Biroq oʻz-oʻzidan, xoʻsh, bu bolalarga nima boʻldi degan savol tugʻiladi.

O'sha paytda AQSHda ijtimoiy qonunchilik isloh qilingan. Tabiiyki, buning natijasida nafaqa olish qiyinlashadi. Nafaqa oluvchi aholi ham muddatidan oldin tug'ilishlardan nomutanosib ravishda aziyat chekadi. Shu bois endi quyidagi yangi gipoteza paydo bo'ladi: *"Ijtimoiy himoya tizimidagi islohot muddatidan oldin va nuqsonlar bilan tug'ilgan bolalar haqidagi g'amxo'rlikni qiyinlashtiradi"*. Tez orada ochiq manbadan buning tasdig'i ham olinadi. Yana ko'p faktlarni jalb etsa bo'lardi. Lekin surishtirilayotgan mavzu shularsiz ham manzarani tasavvur qilish imkonini beradi.

Jurnalistlar muharrirning oldiga borib, berilgan mavzuning dolzarbligini isbotlay olmasliklari, ammo boshqa narsani isbotlay olishlarini aytadilar: *1984-yilda qabul qilingan qonun shifokorlarga muddatidan oldin tug'ilgan va rivojlanishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarning tug'ilayotgan paytda tabiiy o'limiga yo'l qo'yimaslikni taqiqlagan. Natijada, chorak million nogiron bola dunyoga keladi. Biz ularga beriladigan ijtimoiy yordamni to'xtatdik. Bir qonun nogiron bolalarga hayot bergan bo'lsa, ikkinchisi ularni "ko'chaga quvib chiqardi". Xo'sh, bu holda muharrir ushbu qonunlarni o'zgartirishni istaydimi?*

Chippakka chiqqan dastlabki gipotezani muharrir o'rta tashlagan edi. Vijdonsiz jurnalistlar faktlarni gipotezaga moslashtirishga uringan bo'lardilar. O'z ishining haqiqiy ustalari esa, mavjud faktlar ularga yoqishi-yoqmasligidan qat'iy nazar, gipotezalarni faktlarga moslashtiradilar.

### **Gipotezadan surishtiruvni boshqarish maqsadida foydalanish**

**Boshqaruv maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun doimiy tekshiruvlarni o'tkazish yo'li bilan harakat qilish demakdir. Bunday boshqaruv tizimi hozirgi paytda dunyoning har qanday tashkilotidagi standart protsedura bo'lib, bundan jurnalistika sohasi, an'anaga ko'ra, istisnodir.**

Gipoteza ilgari surilib, u ishonchli ekanligiga yetarli dalillar olinganidan keyin loyihaning quyidagi parametrlari ro'yxatini tuzish zarur:

#### **1. Yakuniy natijalar:**

Tayyor materialni berish borasida siz intila oladigan minimum qancha? Maksimum-chi?

***Tavsiya:** Dastlabki gipotezaga yoki tekshiruv jarayonida aniqlangan boshqa bir gipotezaga asoslangan bitta original material minimum bo'lsin. Agar gipoteza mazmuni keng qamrovli bo'lsa uni materiallar turkumi tarzida yoki kengaytirilgan hikoya ko'rinishida rivojlantirish mumkin.*

#### **2. Loyiha bosqichlari:**

Dastavval, birinchi ochiq manbalar bilan maslahatlashish uchun qancha vaqt ketishini va ularga qachon murojaat qilish mumkinligini, shuningdek, material qoramasi qachon tayyor bo'lishi mumkinligini belgilash lozim.

***Tavsiya:** Jurnalist va uning surishtiruvida qatnashayotgan hamkasblari har haftalik faoliyatga yakun yasin. Eng asosiy masalalar – gipotezani tekshirish va yangi ma'lumotlarni aniqlash hamda biror loyiha belgilangan muddatda amalga oshirilishini kuzatib borish muhimdir. Loyihaning kelajagini xavf ostiga qo'yuvchi kechikishlarga yo'l*

qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun o'z majburiyatlarini bajarmaydigan shaxslar jamoadan chiqarib yuborilishi maqsadga muvofiq.

### **3. Materialning chop etilishini jadallashtirish imkoniyatini baholash:**

Bu material kimni qiziqtiradi? Uning mazmunini keng jamoatchilikka qanday yetkazish mumkin? Bu qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab etadimi (shu jumladan, shaxsiy vaqt va hamkasblarning vaqtini)? Ulardan o'zim va o'z tahririyatim uchun qanday naf olishim mumkin? kabi savollarga javob topish kerak.

***Tavsiya:** OAV kanali ushbu surishtiruvni chop etishdan manfaatdor ekaniga ishonch hosil qilishi muhimdir. Ushbu jarayonda suiste'mol qilinish holatlari ham bo'lib turadi. Masalan, axborot bozoridagi raqobat tufayli xuddi shu surishtiruv bilan raqobatchi nashrdagi hamkasblar ham shug'ullanayotgan bo'lishi mumkin. Bu holda, muharrirni material tezroq chop etilishi zarurligiga ishontirish lozim. Shuningdek, xayolan material doirasidan chiqish va uni auditoriya qanday qabul qilishini tasavvur qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bir nechta gap bilan surishtiruvning mohiyatini ko'rsatib beruvchi gipotezangiz atrofda qilishni qiziqtirib qo'yishi mumkin.*

#### **Surishtiruvning asosiy tizginiga amal qilish**

**Jurnalist tomonidan ilgari surilgan har bir gipoteza haqqoniy bo'lib chiqishi mumkinligi hikoya sifatida bayon etilishi, u o'zida yangilikni, uning sababini va yechim variantini qamrab olishi kerak. Bu, jurnalist gipotezani ko'z oldida tasavvur qilgan holda, butun diqqat-e'tiborini shunchaki ayrim faktlarga qaratmagani, balki muammoni to'la yoritishga intilayotganini bildiradi.**

Faktlar sujetingizga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ammo ular gipotezani hikoya qilib bera olmaydi. Faktlarni sujet taqdim etadi. Hech kim manzillar yoziladigan yondaftarchadagi uchta qatorni ham eslay olmaydi. Lekin shu yondaftarchadagi har bir ism bilan bog'liq qandaydir voqeani hech qachon unutmaydi. Agar surishtiruv boshidan hikoya sifatida o'ylangan bo'lsa, materialning maqsadli auditoriya tomonidan qabul qilinishi ham yengillashmaydi. Surishtiruvda eng murakkabi – sujetni yangi faktlar aniqlanishiga qarab, hikoya qilishdir.

#### 4-bob: GIPOTEZANI TEKSHIRISH USULLARI

##### Ochiq eshikka kirish (manbalar: turlari, afzalliklari va kamchiliklari)

“Xarper” filmida aktyor Pol Nyuman xususiy izquvar rolini o‘ynaydi. U o‘zining irodali ekanligini isbotlashga urinayotgan yigitchaning yo‘lini to‘sadi. U “O‘tkazib yubor” deb yalinadi. “Marhamat”, – deydi izquvar. Yigitcha oldinga qarab otiladi va yelkasini sindirishiga sal qoladi. Xarper esa xotirjam eshik yoniga kelib, tutqichini buraydi va uni ochadi.

Amaliyot o‘sha o‘spiringa o‘xshagan odamlar hayotda ko‘p uchrashini ko‘rsatadi. Ular aslida yo‘lni to‘smayotgan yoki osongina aylanib o‘tish mumkin to‘siqlarni buzib o‘tishga urinishadi. Odatda, bunday odamlar yanglish fikrlarga berilishadi, ya‘ni sir bo‘lmagan narsalar haqida odamlar bilishi shart emas deb hisoblashadi. Shu bois ular o‘z vaqtini odamlarning qandaydir bir sirlarini ochishga majbur etishga sarflaydi. Bu sohada muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotganlar ham bunday notekis joyda sekin va ehtiyotkorlik bilan harakatlanishga majbur.

“Sir” deb hisoblanadigan narsalarning katta qismi biz uncha e‘tibor qilmagan faktlar ekani aniq. Ushbu faktlarning aksariyati – o‘rtacha 90 foizi – ochiq axborot manbalari orqali o‘rganilishi mumkin.

U yoki bu mamlakatda ochiq manbalar orqali olish mumkin bo‘lgan axborot to‘liq emasligi va sifati pastligi haqida ko‘p gapiriladi. Bu muayyan darajada asosli bo‘lishi mumkin. Ammo ochiq manbalarda har doim jurnalistlar foydalanganidan ham ko‘ra ko‘proq ma‘lumotlar borligi aniq.

##### Xalqaro amaliyotdan misol

*1980-yillarda “Kanar Anshene” haftanomasida ishlovchi fransuz jurnalisti Erve Liffra (Herve Liffra) Parij meriyasi faoliyatini yoritish topshiriladi. Ammo jurnalist amaldorlarga u bilan gaplashmaslik buyurilganini bilib qoladi. U kira olishi mumkin yagona bo‘lim shahar ma‘muriy hujjatlarining kutubxonasi edi. Kutubxonada esa barcha ichki hisobotlar va shartnomalar saqlanardi. Shu tariqa, u shahar ma‘muriyati yirik vodoprovod kompaniyalarini g‘oyatda boyituvchi, soliq to‘lovchilarning hamyonini esa “o‘piruvchi” shartnomalar imzolaganini fosh etuvchi dastlabki shov-shuvli maqolasini e‘lon qiladi. Ma‘muriyat amaldorlari Liffrani to‘xtatib bo‘lmasligini tushunishganidan keyingina u bilan gaplasha boshlashadi. Keyinchalik u ovoz berish natijalari bo‘yicha ochiq bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanadi va Parijdagi saylovlar qalbakilastirilganini fosh etadi. U mazkur saylovchilar haqiqatan ham rasmiy manzillari ko‘rsatilgan munitsipal turar-joylarda yashash-yashamasligini bilish uchun saylovchilarning ro‘yxatini tekshiradi.*

O‘zbekiston matbuoti amaliyotidan ham misol keltiramiz. “Xalq so‘zi” parlament gazetasida “Ma‘naviyatga qarshi jinoyat yoxud tafakkurga salbiy ta‘sir etuvchi unsurlar” sarlavhali (2003-yil 5- fevral) surishtiruv chop etiladi. Unda muallif Toshkentda pornografiya nashrlarining ko‘payishi sabablarini tadqiq qiladi. Haqiqatan, bu juda qiziqarli va dolzarb mavzu. Ammo muallif, bunday dolzarb muammoni muhokamaga taqdim etsa-da, ochiq axborot manbalariga murojaat qilmaydi. Holbuki, bunday ma‘lumotlar bojxona, soliq va ichki ishlar organlarida bor edi. Chunki pornografik mahsulotlarni noqonuniy olib kirish qonunga zid, xavfli ishdir. Muallif yuqorida ko‘rsatilgan muassasalardagi ma‘lumotlarni sinchiklab o‘rganmasdan, o‘zining ular bilan kechgan telefon orqali muzokaralari natijasiz qolganini

bildiradi. Agar jurnalist surishtiruvni oxirigacha yetkazishdan manfaatdor bo'lganida, o'z-o'zidan aniqki, u mazkur tashkilotlarga yozma ravishda murojaat qilgan va tegishli ma'lumotlarni olgan bo'lardi. Jurnalist mazkur surishtiruvdan manfaatdor emasligi tufayli uning ushbu maqolasi axloqiy jinoyatlar to'g'risidagi umumiy shaxsiy fikr-mulohazalardan iborat bo'lib qolgan.

Axborot eskirgan, unchalik qiymatga ega emas yoki u jamoatchilikka ma'lum bo'lgani uchun u haqda hamma biladi, deb o'ylamaslik lozim. Har qanday axborot hech kimning xayoliga kelmagan paytda "portlagan bomba" samarasini keltirib chiqarishi mumkin. Muayyan masala bo'yicha biror konkret ma'lumotni shunchaki izlamaslik kerak– o'z kasbi ustasi bo'lmagan jurnalistlar shunday yo'l tutadilar. Manbalarning shunday turini izlash va shunday yondashuvlarni topish kerakki, ulardan yana va yana foydalanish mumkin bo'lsin. Jurnalistning ushbu materialdan foydalanish qobiliyati uning obro'si, mavqesi shakllanishida muhim omilga aylanadi.

### **Manbalarning qaysi turlari ochiq hisoblanadi?**

**Hozirgi zamonda ochiq manbalar soni deyarli cheksiz deyish mumkin. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

#### **1. Axborot**

– u erkin olinishi mumkin bolgan har qanday OAVda chop etiladi. Odatda, quyidagi manbalardan kutubxonada yoki tegishli OAVning arxivlarida foydalanish mumkin:

- yangiliklarni yorituvchi OAV (gazetalar, jurnallar, TV, radio, Internet);
- ixtisoslashgan nashrlar (ittifoqlar, siyosiy partiyalar, tarmoq uyushmalari va h.k.);
- ilmiy nashrlar;
- manfaatdor tomonlar OAV (bunga Internetdan foydalanuvchilarning forumlari, moliyaviy tahlilchilar, yangiliklar axborotnomalari yoki turli birlashmalarning jurnallari, norozilik guruhlari va h.k.lar kiradi).

#### ***Misollar:***

– *o'lim haqidagi xabarlar jurnalistni qiziqtiradigan shaxslarning qarindoshlarini izlab topishga yordam berishi mumkin;*

– *norozilik guruhlari qonunchilik yoki sud ishlaridagi o'zgarishlarni kuzatib borish bilan band bo'lishi mumkin;*

– *siyosiy partiyalarning shtablari nafaqat partiyaga doir adabiyotlar, balki yangiliklar axborotnomasi, broshyuralar, partiya a'zolarining mustaqil maqolalari va hokazolarni taqdim etishi mumkin;*

– *yangiliklarni saralash intervyu davomida suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin; jurnalist axborot manбайдan ushbu xabarlarda bayon etilgan axborotning to'g'riligini tasdiqlashini so'rashi va keyingi suhbatni shu asosda qurishi mumkin.*

#### **2. Ta'lim markazlarining kutubxonalari,**

jumladan, davlat yoki nodavlat universitetlar, tibbiy kollejlari (yoki tibbiy o'quv markazlari qoshidagi bazaviy kasalxonalar), biznes-maktablar va boshqalarning kutubxonalari. Ushbu muassasalar ommaviy kutubxonalarga qaraganda, ko'proq zamonaviy

uskunalar va kengroq zaxiralarga hamda ana shunday ma'lumotlarning yangi bazalari bilan jihozlangan bo'ladi.

**Misol:**

*Iste'molchilar boykotini surishtirish ishi INSEAD biznes-maktabining kutubxonasidagi ma'lumotlar bazasida mavjud moliyaviy tahlilchilarning hisobotlariga asoslandi. Surishtiruv obykti bo'lgan kompaniya vakillari boykot muvaffaqiyatsizlikka uchraganini qayd etadilar. Aslida esa ular shu kompaniyaning bozor kapitalizatsiyasiga jiddiy zarar yetkazishgan.*

### **3. Davlat organlari**

Ular, odatda, boshqa manbalarga qaraganda ko'proq axborot chiqaradilar. Ulardan har doim tasavvur qilganingizdan ko'proq ma'lumot olish mumkin.

**Ba'zi bir misollar:**

– yuz bergan voqealar haqidagi ma'ruzalar: davlat organlari o'zlari amal qilishi shart, aniq belgilangan qoidalarga ega. Biroq xodimlar "xato"ga yo'l qo'yishi mumkin. Shunday xato harakatlar yoki voqealar fakti bo'yicha hisobot tuzilishi kerak bo'lgan holatlar o'sha organning nizomida yoki huquqiy kodeksida batafsil sanab o'tilgan bo'lishi shart. Shunday ma'ruzalarni talab qiling;

– tekshiruvlar haqidagi hisobotlar: har qanday narsa uchun, jumladan, restoranlardan tortib, avtoyo'l ko'priklarigacha mas'ul ko'p sonli organlar, tashkilotlar muayyan protseduralar yoki ko'rsatmalar haqida hisobot tuzadi. Ana shu hisobotlarni va ularning mualliflarini izlab toping – bu, ayniqsa, biror favqulodda voqea yuz berganida zarur. Agar hisobot mavjud bo'lmasa, mana, sizga tayyor reportaj: nega ushbu organ bunday kamchilikka yo'l qo'ydi? Agar hisobot mavjud bo'lib, unda halokat oldindan taxmin qilingan bo'lsa, nega uning oldini olish uchun hech qanday chora ko'rilmadi?

– shikoyatlar: fuqarolar shikoyat qilib turadi va ba'zida ularning shikoyatlari asosli bo'lib chiqadi. Xo'sh, bu shikoyatlar kimga yuboriladi? Bu borada biror chora ko'riladimi? Aynan qanday chora?

### **4. Davlat boshqaruvi organlarining kutubxonalari**

Barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari o'z kutubxonasi va arxivlariga ega. Bunday kutubxonalarda, asosan, parlament axborotnomalari, rasmiy byulletenlar, me'yoriy-huquqiy mazmundagi rasmiy nashrlar va boshqa materiallar saqlanadi.

### **5. Sudlar**

Sudlarda kamida bayonnomalar va sud qarorlari saqlanib turadi. Ushbu hujjatlardan surishtiruv obyektiga doir ma'lumotlarni topish mumkin.

**Misol:**

*Ida Tarbell (Ida Tarbell) "Standard Oyl" (Standard Oil Trust) neft trestining faoliyati bo'yicha olib borgan va jurnalistika sohasining mumtoz namunasiga aylangan ushbu surishtiruv mazkur kompaniyaga doir sud muhokamalarining arxivlariga tayangan.*



## **6. Iqtisodiyotning rivojlanishiga ko‘maklashadigan muassasalar**

Savdo-sanoat palatasi respublika bo‘yicha bir talay materiallarni chop etadi. Ularda aholi bandligi, iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar va hokozolar to‘g‘risidagi turli ma‘lumotlar taqdim etiladi.

### **Misol:**

*Kasalxonada yangi tug‘ilgan chaqaloqning o‘limini surishtirish jarayonida savdo-sanoat palatasidan reklama varaqasi olinadi. Unda ushbu kasalxonaning tug‘ruq bo‘limida qabul qilingan ishni tashkil etish qoidalari munosabati bilan unga qarshi da‘vo arizasini bergan bir guruh fuqarolarning nomi bor edi. Sudga berilgan ushbu da‘vo arizasi natijasida mazkur kasalxona haqida zarur ma‘lumotga ega davlat organlaridan birining hisoboti chop etildi.*

## **7. Kadastr muassasalari**

Ushbu muassasalar va ular bilan bog‘liq byurolar mulkdorlar hamda ko‘p hollarda mazkur mulkka nisbatan qaytarilmagan kreditlar haqidagi ma‘lumotlarni to‘playdi.

### **Misol:**

*Fransiyada siyosatchilarga tegishli mulk haqidagi ma‘lumot ularning o‘z daromadlari haqidagi deklaratsiyalarda ko‘rsatilganidan ko‘ra ko‘proq boylik to‘plaganini oshkor etish uchun foydalanildi.*

## **8. Aksiyadorlik kompaniyalarining hisobotlari**

hamda press-revizlar. Yillik hisobotlar, majburiy hisobot ma‘lumotlari va shunga o‘xshash hujjatlardan kompaniyalar haqida ko‘plab qiziqarli ma‘lumotlarni topish mumkin. Xuddi shu narsa, odatda, kompaniyaning strategik faoliyati asosida yotuvchi tamoyillar haqida ma‘lumot beruvchi press-revizlarga ham taalluqlidir. Agar firma tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullansa, uning xorij bo‘yicha majburiy hisobotlarida mahalliy faoliyat bo‘yicha hisobotlariga qaraganda ko‘proq ma‘lumot bo‘ladi.

### **Misol:**

*AQSH Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasiga fransiyalik yashirin moliyachi tomonidan taqdim etilgan yillik va boshqa majburiy hisobotlar nizoli holatlarda sotib olingan umumiy qiymati bir necha milliard dollarni tashkil etuvchi obligatsiyalar portfelini rekonstruksiya qilish imkonini berdi. Ushbu hisobotlarda emitent-kompaniyalar direktorlar kengashining tarkibiga kirgan aloqador shaxslarning nomlari bo‘lgan.*

## **9. Tribunallar yoki kompaniyalar reyestrlari**

Har bir mamlakatda kompaniyalar qimmatli qog‘ozlarni sotishi yoki sotmasligidan qat‘iy nazar, kompaniyalar mulkdorlarini qayd etib boruvchi muassasa mavjud. Firma egalari tomonidan oshkor etilishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar hajmi o‘zgarib turishi mumkin. Biroq u, odatda, jurnalistlar taxmin qilganidan ham ko‘proq bo‘ladi. Jurnalistlar ko‘pincha ushbu zaxiralardan hech qachon foydalanmaydi. Masalan, Fransiyada oshkor etiladigan axborot xodimlar soni, olinadigan daromad va qarzdorlik, foyda marjasi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kompaniya direktorlarining nomlari ham taqdim etiladi.

**Misol:**

*Ushbu axborotdan foydalangan holda, surishtiruv ustalaridan biri o'zini iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida bildirgan veb-sayt aslida yirik kompaniyalar foydasiga sanoat ayg'oqchiligi bilan shug'ullanuvchi firmaga tegishli bo'lganini namoyish etdi.*

## **10. Xalqaro tashkilotlar**

Muayyan mamlakatlarga texnik yordam yoki vaziyat haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi (masalan, YUNESKO, BMT, YUNISEF va boshqalar).

**Misol:**

*Kot-d'Ivuarda chiqadigan gazeta Yevropa Ittifoqining auditidan foydalanib, ushbu mamlakat hukumati o'nlab million dollar miqdordagi xalqaro yordamni belgilangan maqsadlarda sarflamaganini ko'rsatdi.*

### **Surishtiruvda ochiq manbalardan foydalanish strategiyasi**

**Ochiq manbalarning ahamiyati shundaki, bunda jurnalist sirlardan ma'lum qilishi mumkin manbalarni izlash o'rniga, ushbu sir mavjud faktlardan mantiqiy asosda xulosa chiqaradi. Jarayon quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:**

**Misol:**

*Ultra o'ng siyosiy partiya hisoblangan Fransiya Milliy Fronti "milliy afzalliklar" dasturini taklif etadi. Unga ko'ra, fransuz fuqarolariga, hatto, qonuniy muhojirlarni ham ortda qoldirgan holda, birinchi navbatda, ish bilan ta'minlanish, davlat nafaqalari va boshqa huquqlar taqdim etiladi. Bunday siyosat esa ham fransuz, ham Yevropa qonunchiligiga ziddir. Biroq Frontning rasmiy vakillaridan biri harakat strategiyalari uni Fransiyaning munitsipalitetlarni boshqarish to'g'risidagi qonunida mavjud bo'lgan "tumanli zonalar" yordamida qonuniylashtirish mumkin, deb hisoblayotganini ma'lum qiladi. Undan bu gapni aniqlashtirishni so'rashganida, u shu zahotiyog jim bo'ladi.*



**1-qadam:**

Milliy Frontdan saylangan merlar tomonidan nazorat qilinuvchi shaharlarda ushbu qonunga zid "milliy afzalliklar" dasturi tegishli qonunlardagi noaniqliklardan mahorat bilan foydalanish orqali qonuniylashtirilmoqda, degan gipoteza ilgari suriladi.

1. Dastlabki faktlar yoki sabablar




2. Gipoteza: sir shundan iboratki, qachondir kimdir nimadir qilgan...



4. Biz, kuchliroq pozitsiyadan kelib chiqqan holda, gipotezani jonli manbalardan tasdiqlab olamiz

3. Ochiq manbalar bizga sirni deduksiya usuli yordamida haqiqatni aniqlash imkonini bergan holda, gipotezaning muayyan unsurlarini tasdiqlaydi yoki rad etadi



**2-qadam:**

“Milliy afzalliklar”ning tegishli parametrlarini aniqlash maqsadida, kitob do‘konlaridan sotib olish mumkin bo‘lgan ochiq hujjat, ya’ni Milliy Frontning saylovoldi platformasiga murojaat qilinadi.

**3-qadam:**

Rahbarlari Milliy Frontdan saylangan shaharlarda ushbu dastur, hayotga tatbiq etilayotganining dastlabki tasdig‘ini olish uchun OAV xabarlariga, munitsipal bulletinlarga, internet-forumlar, axborot bulletinlari va fuqarolar guruhlarining hisobotlariga murojaat qilinadi.

**4-qadam:**

Manbalar – odamlar, ya’ni Front vakillari bilan ham, muxolifat vakillari bilan ham intervyu o‘tkazgan holda, oldingi qadamni bajarish davom etiladi. Shuningdek, Frontning dasturini qonunchilikni buzmasdan hayotga tatbiq etish mumkinligi xususida huquqshunoslardan ham intervyu olinadi.

### **Natija:**

Nafaqat gipotezaning to'g'riligi tekshirildi va qadamlar ro'yxatida sanab o'tilgan harakatlarning tasdig'i olindi; Frontning rasmiy vakillaridan aniqlagan faktlarni tasdiqlash so'ralganida, ular to'satdan negadir boshqa narsalar haqida gapira boshladi. Nega? Javob quyida berilgan.

### **Ochiq manbalarning afzalliklari**

**Ochiq manbalar boshqa manbalarga qaraganda ustunliklarga ega. Chunki “Nima yuz berdi?” degan savol bilan “Bu yuz bergani rostmi?” degan savol o'rtasida sezilarli farq bor-da.**

Ochiq manbalardan foydalanish odamlarga quyidagilarni namoyish etadi:

- surishtiruv predmetidan manfaatdorligi darajasini;
- jurnalist barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodirligini;
- u axborot olish borasida manbalarga bog'lanib qolmaganini;
- jurnalist o'rtoqlashishi mumkin bo'lgan axborotga egaligini;
- telefonga yopishib, qo'ng'iroq qilishdan oldin, axborot olish uchun ochiq eshiklarga borish ko'nikmasini ishlab chiqish muhim.

### **Ochiq manbalarni izlash**

#### **1. Surishtiruv predmetining chegarasini aniqlash zarur**

Birinchi vazifa – surishtiruv doirasini belgilash. Ushbu jarayon kontekstni o'rganish (backgrounding) deb ham ataladi. Chunki bunda oldingi plandagi surishtiruv predmetining orqasida va atrofida turgan narsalarni aniqlash ham ko'zda tutiladi.

Ushbu vazifa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- asosiy ishtirok etuvchi shaxslar (individuumlar va tashkilotlar)ni aniqlash;
- ishtirok etuvchi shaxslarga aloqasi bor asosiy masalalarni belgilash;
- ularning tarixidagi va hozirgi paytgacha bo'lgan asosiy sanalar va voqealarni tushunish.

Jurnalist ega bo'lgan faktlar uning surishtiruvchi uchun boshlang'ich nuqta sifatida xizmat qiladi. Agar u ishni ishtirok etuvchi shaxs nomidan yoki tashkilot nomidan boshlasa, ushbu unsur bilan bog'liq materialni izlashi lozim. Keyin, materialdagi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar yoki ishoralardan foydalangan holda, boshqa materialni identifikatsiyalash kerak.

#### **Misol:**

*“Xalq so'zi” gazetasida chop etilgan “Egasiz binolar” surishtiruvi (2003-yil 8-iyul) militsiyaga qilingan qo'ng'iroqdan boshlanadi. Unda tashlandiq binoda noma'lum kishining jasadini topilgani haqida xabar beriladi. Ushbu qiziqarli voqea uning ochiq manbalar bilan ishlashda boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Surishtiruvni tayyorlash jarayonida u ushbu mavzuga muayyan aloqasi bo'lgan muassasalar rahbarlari hamda tashlandiq binolar yaqinida joylashgan turar-joylarda istiqomat qiluvchi aholi bilan suhbatlashadi. Jurnalist ma'lumot izlash va uni to'plash uchun sabr-toqat bilan ish olib boradi. Shu boisdan materialda ayrim tashkilotlar tomonidan yashirilgan ma'lumotlar e'lon qilinadi. Jumladan, jurnalist shunday jinoyatlar sodir etilgan tashlandiq uylarning xo'jayini bo'lgan tashkilotlarning manzillarini beradi.*

Qidiruv yo'lida to'siq paydo bo'lgan holatlarda buning sabablarini aniqlash kerak. Bunday holatlarda ishtirok etuvchi shaxslar, tashkilotlar yoki bevosita tadqiqot obyektidan sal narida yuz bergan voqealar haqida ma'lumotlar to'plash maqsadga muvofiq. Bunday ma'lumot vaziyatni oldindan ko'rishga va yangi manbalar tomon yo'l ochishga imkon beradi. Ko'pincha muloqot qilishni mutlaqo istamayotgan "noyob" manba to'satdan materialga o'zidan boshqa muayyan aloqasi bor kishilarning hammasi jurnalist bilan muloqot qilayotganini ko'radi. Va u o'z fikrini o'zgartiradi. Bunday holat esa tezda ma'lumotlarning ulkan hajmi to'planishiga olib keladi.

## **2. Surishtiruvchining ekspert manbalariga yo'naltiruvchi umumiy xarakterdagi manbalardan foydalanishi maqsadga muvofiq**

Yuqorida bayon etilgan umumiy xarakterdagi manbalar, shubhasiz, muayyan ahamiyatga ega. Ammo ochiq ekspert manbalar ham zarur. Masalan, matbuotda chop etilgan biror ilmiy kashfiyot haqidagi maqola umumiy xarakterdagi manbadir. Soha jurnalida chop etilgan original ilmiy tadqiqot mufassal ma'lumot beruvchi ekspert manbai bo'la oladi. Surishtiruv muvaffaqiyatli chiqishi uchun esa bunday tafsilotlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu nafaqat faktlar katta qiziqish uyg'otishi, balki tafsilotlarni bilish manbalar bilan muzokaralarni ishonchliroq olib borish imkonini berishi jihatidan ham muhimdir. Manbalar jurnalist begonalarning ishidan nusxa ko'chirayotgan emas, balki o'zi tadqiq qilayotgan mavzuni tushunish uchun harakatlanayotgan odam ekanini ko'rsatadi.

Ochiq ekspert manbalarni izlab topishning eng yaxshi usuli – ularni shu soha ustalaridan bilib olishdir.

– Hukumat amaldorlari hisobotlarini kim, qanday shaklda va qayerda saqlashini aytishi mumkin.

– Saylanadigan amaldorlar qonun chiqarish jarayoni qanday yuz berishi va uning turli bosqichlarida qanday hujjatlar yaratilishini ma'lum qilishi mumkin.

– Mulk savdosi bilan shug'ullanuvchi rieltorlar u yoki bu mulk haqidagi ma'lumotlar qaysi muassasalarda qayd etilishini biladi.

## **3. Ushbu manbalar va ularning manzillarini qayd etib borish zarur**

Ayni paytda bu qanday qilinishini esdan chiqarmaslik uchun unga tez-tez murojaat qilish maqsadga muvofiq. Masalan, agar sizda kompaniyalar haqidagi ma'lumotlarning bepul onlayn-bazasi bo'lsa, unda kompaniyalarning joriy maqomini tekshirib ko'ring.

## **4. Hujjatlarni hamma joydan to'plagan ma'qul**

Jurnalist hamma joydan batafsil ma'lumot to'plashga odatlanishi kerak. Muayyan faoliyat bilan bevosita bog'liq ma'lumot har doim shu faoliyat amalga oshiriladigan joyda bo'ladi. Mana shuning uchun ham jurnalist biror joyga reportyor sifatida borganida, nazari tushgan barcha ma'lumotni to'plashi kerak.

### ***Misol:***

*Agar siz hujjatlar ko'zga tashlanadigan joyda turgan biror muassasaga kelsangiz, hujjatlarni oling va sizni "o'g'ri" deb o'ylamasliklari uchun ular bilan tanishayotganingizni ayting. Keyin esa ularni o'zingizga olish uchun ruxsat so'rang. Yuqorida Fransiyada Milliy Front faoliyati yoritilgan paytda, jurnalistlar har hafta ularning qarorgohiga borib, u yerda ko'rgazmaga qo'yilgan jurnallarni olishgan. Ularning ko'pchiligini boshqacha yo'l bilan*

*topib bo'lmadi. Chunki ular unchalik taniqli bo'lmagan guruhlar yoki shu partiya tarkibiga kiruvchi shaxslar tomonidan chop etilardi. Materiallarning ayrimlari faqat partiya chiptasini ko'rsatgan partiya a'zolarigagina berilardi. Biroq ularni jurnalist so'raganida, unga ham mazkur nashrlar taqdim etilgan. Bularning hammasi harakatning mahalliy va hududiy darajalardagi faoliyati, ya'ni yangiliklar xarakteridagi OAVda hech qachon muhokama qilinmagan faoliyati bo'yicha qimmatli axborot manbai edi.*

## **Manbalardan samarali foydalanish uchun ekspertlarni jalb etish**

### **1. Arxivlardan qanday foydalaniladi?**

Manbaning ochiq ekanligi, so'z, ayniqsa, ixtisoslashgan kutubxonalar yoki arxivlar haqida borganida, jurnalist undan qanday samarali foydalanish kerakligini bilishidan dalolat bermaydi. Ushbu ochiq manbaga kirish uchun dastlab arxiv mudirini aniqlash va undan yordam so'rash lozim. Aslida esa kutubxonaga borganida xodimning ismini bilib olish va u bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga odatlangan ma'qul.

#### **Misollar:**

*Fransiyadagi zararlangan qon haqidagi ishni surishtirish davom ettirilganida, mojaro boshlanishidan oldin qon quyish va OITS bo'yicha barcha ilmiy adabiyotlarni to'plash birlamchi vazifa edi. Parijdagi yetakchi tibbiy o'quv muassasalaridan biri qoshidagi bazaviy kasalxona kutubxonasining mudirasi o'zi ishlaydigan muassasaning ma'lumotlar bazasiga murojaat qilib, ushbu mavzu bo'yicha maqolalarning to'liq ro'yxatini taqdim etadi. Buni qarangki, kutubxonada ushbu ro'yxatdagi deyarli barcha jurnallar bor ekan. Shu tariqa, ilmiy adabiyotlarni to'plash bilan bog'liq vazifa yarim ish kuni ichida bajariladi.*

*Parijdagi art-dilerlardan birining ishini surishtirish bilan shug'ullanar ekanlar, jurnalistlar art-bozorni subsidiyalash to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etishni so'rab, Madaniyat vazirligiga murojaat etadilar. Ularni bir amaldor ayolga jo'natishadi. Amaldor ayol bilan telefon suhbatini chog'ida kompyuter klavishlari ishlayotgani eshitilib turardi. Mualliflar suhbatdoshidan qanday matnni yozayotganini so'rashadi. Amaldor ayol vazirlikning ma'lumotlar bazasida qidiruv olib borayotganini aytadi. Ushbu ma'lumotlar bazasida vazirlikdan subsidiya olganlarning hammasi sanab o'tilgandi. Eng asosiysi esa, ushbu ma'lumotlar bazasidan xalq kutubxonasida foydalanish imkoniyati mavjud edi. Amaldor ayol ularni o'sha yerga jo'natadi.*

### **2. Aniqlangan faktlar mazmunini tushunib yetish**

Hujjatni olish va uning mazmunini tushunib yetish – bir narsa emas. Ham davlat, ham xususiy sektorda qo'llaniladigan rasmiy hisobotlar va ma'ruzalar tili ko'pincha o'ziga xos bo'lib, izohni talab etadi. Bu ayniqsa, yillik hisobotlar yoki yig'ilish bayonnomalari kabi turli ochiq manbalarga tegishli. Bunday hujjat bilan tanishib chiqayotganda uning tilini va mazmunini izohlab bera oladigan malakali kishini topish zarur.

#### **Misol:**

*Muxolifat guruhlarini yo'q qilish maqsadida Milliy Front shahar budjeti mablag'larini qanday ishlatganini aniqlash uchun jurnalistlar Front vakillari tomonidan nazorat qilinayotgan shahardagi munitsipal subsidiyalar haqidagi erkin foydalanish mumkin bo'lgan hisobotni topadilar va uni shahar munitsipalitetining budjet masalalari bilan shug'ullangan sobiq xodimi bilan birgalikda sahifama-sahifa o'rganib chiqadilar.*

### **Surishtiruvchi hovliqmasligi kerak**

**Har qanday surishtiruv oldinga siljigani sari murakkablashib boradi. Agar ish boshidan qiyin bo'lsa, demak, bu yerda bir gap bor. Xususan, agar gipotezaning birorta unsuri ochiq manbalarda o'z tasdig'ini topmasa, unda bu jiddiy xatoliklar borligi yoki kimdir ushbu materiallarni yashirishga qattiq urinayotganini bildiradi. Va, aksincha, agar dastlabki tekshiruvlar muvaffaqiyatli chiqsa, bu surishtiruvni tezlashtirish va kengaytirish mumkinligidan dalolat beradi. Shunday vaziyat yuzaga kelganida, undan foydalanish lozim. Ochiq manbalardan istalgan ma'lumotlarni olish mumkin. Ularning ahamiyati haqida deduksiya yo'li orqali xulosalar chiqarish va ularni gipotezaga qo'shish lozim. Keyingi bosqichda jurnalist haqiqat hujjatlarda yozilmagan joyga kiradi.**

## 5-bob. INSONLAR – AXBOROT MANBAI

Odatda, eng qimmatli axborot ochiq manbalarda emas, balki odamlarda bo'ladi. Ularni qanday topish mumkin? Odamlarni o'zlariga ma'lum narsalarni jurnalistga aytib berishga qanday majbur etsa bo'ladi? Bu savolga javob topish juda muhim ekani va ularni suiste'mol qilmaslik zarur. Jurnalistlar odamlarning g'ururi, hissiyotlariga tegishi va ularning tirikchiligi, hatto, shaxsiy xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi ularga zarar yetkazishi mumkinligini doimo esda saqlashi kerak. Inson o'z xohishiga binoan jurnalist bilan suhbatga rozi bo'lgani bois unga zarar yetishiga har qanday holatda ham yo'l qo'ymaslik zarur.

Qoidaga ko'ra, reportyorlarning aksariyati muayyan sababga ko'ra, so'zlaridan iqtibos keltirish mumkin bo'lgan odamlarni topadi: kerakli mavzu bo'yicha birinchi uchragan maqolani o'qiydi, unda tilga olingan odamlarning nomlarini saralab oladi va keyin ularga qo'ng'iroq qiladi. Balki bu odamlar kuniga yuzta qo'ng'iroqni qabul qilar. Xo'sh, ular mabodo go'shakni ko'tarib qolsa, yuzinchi odamga biror yangi narsani aytarmikin? Yo'q. Unda balki hali hech kim suhbatlashmagan odamni topgan ma'quldir?

Ochiq manbalar bilan ishlash juda ko'p qiziqarli nomlarni taqdim etadi. O'shalarga qo'ng'iroq qilish maqsadga muvofiq. Masalan, biror kompaniyaning faoliyatini surishtirish uchun ishni moliyaviy tahlilchilarning hisobotlari bilan tanishishdan boshlash mumkin. Ularda esa kompaniyaning hozirgi ahvoli va uning eng jiddiy raqiblari haqida ma'lumot, albatta, bo'ladi.

– Shundan so'ng tahlilchilar bilan, keyin esa raqobatchilar bilan suhbatlashish kerak.

– Ular va tarmoq OAV orqali yangi ishga o'tishi yoki pensiyaga chiqishi munosabati bilan kompaniyadan bo'shab ketgan odamlarni topsa bo'ladi.

– Ushbu odamlar orqali kompaniyaning hozirgi xodimlari bilan bog'lanish mumkin. Ular muloqotni rad etmaydi. Bunda iloji boricha manbalarning oddiy sxema-xaritasini tuzish muhim ahamiyatga ega. Bu materialning bevosita figuranti bo'lgan yoki shunday bo'lishga qodir barcha odamlarning grafik tasvirini yaratib olish demakdir. Sxema-xarita qishloqdagi uylar ko'rinishida bo'ladi. Unda har bir kishi barchani taniydi. Qishloq esa surishtirilayotgan voqealar yuz berayotgan yerda joylashadi. Sxema-xaritani surishtiruv jarayonidagi keyingi o'zgarishlar asosida tafsilotlar bilan murakkablashtirish va boyitish mumkin.

**Odamlarni surishtiruvchi bilan muloqot qilishga ko'ndirish uchun nima qilish mumkin?**

Qiziqarli faktlar yoki voqealarni hikoya qilishi mumkin bolgan odamlarning jurnalist savollariga javob bermasligi uchun sabablari bo'lishi ehtimoli mavjud. Avvalo ular, aksariyat hollarda, jurnalistning professionalligiga hamda uning mas'uliyatli va halol kishi ekaniga ishonishmaydi. Bundan tashqari, ular beradigan ma'lumotdan jurnalistning foydalanishi- ning o'ziyo'q, bu odamlarning mavqeiga, boshqa kishilar bilan munosabatlariga zarar yetkazishi va, hatto, ularning shaxsiy xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi aniq.

Ajablanarlisi shundaki, aksariyat hollarda odamlar jurnalistlar bilan suhbatlashishdan bosh tortmaydilar. Aksincha, ular bilan muloqotga rozi bo'lishadi.

**Nima uchun shunday?**

Buning ikkita sababi bor:



– Odamlar nimadandir hayajonlanganlarida, masalan, o‘zlarida biror bir iqtidorni, g‘aroyib hodisani yoki biror go‘zal narsani kashf etganlarida, muvaffaqiyat nashidasini surganlarida yoki buni oldindan sezib huzurlanganida, yoki dunyoni qutqarish rejasini tuzganida gapirishga moyil bo‘ladilar. Bunday masalalarni muhokama qilish ularda baxtiyorlik hissini, o‘zlarining boshqalar uchun zarurliklarini anglash tuyg‘usini yoki unisini ham, bunisini ham kuchaytiradi.

– Yoki, shifokorlarga ma‘lum bo‘lganiday, odamlar og‘riqni his qilganlarida va yordam olishni juda istaganlarida gapiradilar. Umuman olganda esa, aksariyat surishtiruvlarda suhbatga rozi bo‘ladigan kishilar – bu qurbonlardir. Ular ko‘rganlari yoki eshitganlari uchun aziyat chekkan yoki qadriyatlarini toptalgan odamlardir.

**Misol.**

*“Права Востока” nashrida chop etilgan “Yerto‘ladagi fojia”<sup>42</sup> materialida muallif turli obyektlar, korxonalar, firmalar rahbarlarining sovuqqonligi va professional emasligi tufayli odamlarning nobud bo‘lish sababini surishtirishni davom etadi va unda intervyu unsurlaridan foydalanadi: “Bu yerda gap faqat korxonalar, firma rahbarlarining mehnat muhofazasi masalalariga mas‘uliyatsizlik va sovuqqonlik bilan qarashlarida emas, – deydi mehnat bo‘yicha davlat texnika inspektori B.Nizomov. – Bir misol keltiraman. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 30-noyabrda qurilish tashkilotlari va sanoat korxonalarining barcha rahbarlari, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, yangi qurilish, u yoki bu obyektning rekonstruksiya qilish yoki ta‘mirlash oldidan bizning mehnat muhofazasi to‘g‘risidagi qonunga amal qilish haqidagi inspeksiya xulosasini olishi shart. Afsuski, buni hech kim nazariga ilmaydi”.*

Bundan tashqari, odam suhbatlashishga rozi bo‘ladigan yana bir muayyan sabab bor: shunday qilganida u hech kimni xavf ostiga qo‘ymasligiga ishonchdir. Bunga erishish uchun jurnalist manbai bilan bir emas, bir necha bor o‘zaro munosabatga kirishishi va uning ishonchini qozonishi kerak. Bunday munosabat yuzaga kelganida ikkalasi ham ko‘proq yoki kamroq ishonch bilan muayyan tarzda harakat qilishiga umid qiladi. Shuningdek, unisi ham, bunisi ham bir-birini ma‘lumot bilan ta‘minlab, o‘z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olishi mumkin.

## **Dastlabki muloqotlar: ularga qanday tayyorlanish zarur?**

### **1. Uchrashuvga tayyorgarlik ko‘rish**

Muloqot jarayoni tartibsiz bo‘lmasligi lozim. Shu bois unga oldindan tayyorgarlik ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Tayyorlanish jarayoni keng masalalar doirasini qamrab oladi. Ya‘ni, oldindan intervyu mavzusini, suhbatdoshning shaxsini o‘rganish, reja va suhbat dasturini ishlab chiqish va boshqalar.

Axborot manbasi bilan muloqot qilishning eng xavfsiz varianti – bu yuzma-yuz uchrashishdir. Dastlabki muloqotning maqsadi ushbu uchrashuv sodir bo‘lishini ta‘minlashdan iborat. Jurnalist dastlabki muloqot boshlanguncha ochiq manbalardan bu odam va u bilan bog‘liq masalalar haqida ko‘proq bilib olishi lozim.

### **Odam borasida:**

U haqida kamida internet-manbalardan ma‘lumot izlash zarur. Mazkur manbada tilga olinadigan barcha matbuot xabarlari va boshqa maqolalar jamlangan bo‘lishi lozim; agar bunday materiallar juda ko‘p bo‘lib, ularning barchasi bilan tanishishning iloji bo‘lmasa, bir nechtasini tanlash kerak. Maqsad – manbaga qiziqishni hamda uning kasbiy faoliyati haqidagi

---

<sup>42</sup> Правда Востока, 2006, № 116.

bilimlarni namoyish etishdan iborat. Tarjimayi holi ommaga ma'lum manbadan o'z faoliyatiga doir tafsilotlarni sanab o'tishni so'ramaslik kerak. Bu haqida jurnalist u bilan suhbatlashishga kelishidan oldin bilib olishi shart. Agar manba yangiliklarni yorituvchi OAVda yoki ixtisoslashgan nashrlarda maqola chop etgan bo'lsa, ularni topish va o'qib chiqish lozim. Hatto, sir boy bermaydigan va tortinchoq shaxslar ham biror narsani yozganda, o'z fe'lini, qadriyatlarini va xavotirlarini oshkor etadi. Bunday materiallar keyinchalik, intervyu jarayonida tekshirilishi mumkin gipotezani taqdim etadi.

**Masalan,** *jurnalistlar Fransiyadagi yuqori martabali bir amaldorning chop etilgan maqolalari va nutqlarini o'rganib, bu odam yolg'onni yomon ko'radi, biroq o'zi nozik yoki xavfli deb hisoblaydigan mavzularga chap berishga usta ekani haqidagi gipotezani ilgari surishadi. Surishtiruvchilar bu amaldor suhbat mavzusini qayerda va qanday qilib o'zgartirishini kuzatgan holda, u panada qoldirishni istagan muayyan jihatlarni aniqlashga va keyin ular borasida surishtiruv o'tkazishga muvaffaq bo'lishdi. Jurnalistlar o'sha kishining fe'li borasidagi gipotezaga muvofiq olingan xulosalar to'g'risida fikr bildirishni so'rab, uning o'ziga murojaat qilishganida, amaldor yolg'on gapirmadi.*

### **U bilan bog'liq masalalarga doir:**

Surishtirilayotgan masalalar haqidagi oxirgi yangiliklar va ular bo'yicha qilingan ommaviy bayonotlardan, shuningdek, ushbu masalalar yuzasidan bahs-munozaralarda doim yangraydigan muayyan ta'riflardan xabardor bo'lish zarur. Chunki kezi kelganida bu haqda manbadan izoh so'rash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, jurnalist manba muhitidagi tilda qo'llanadigan asosiy tushunchalar borasida o'z xabardorligini ham namoyish etishi kerak.

### **2. Aloqa o'rnatish**

Aloqani telefon orqali yoki xat jo'natgan holda (faqat bu odamning uy koordinatalari bo'yicha), aloqa o'rnatish mumkin. Agar qo'ng'irog'ingiz o'sha manbaga xavf tug'dirmayotganiga yuz foiz ishonchingiz bo'lmasa, unda hech qachon uning ishxonasiga qo'ng'iroq qilmang. Mutlaqo beozor xatni elektron pochtaga jo'natishganda ham buni unutmang. Chunki ish beruvchi uchun jurnalistdan kim elektron xat olganini tekshirish uchun qiyin emas. Aloqa o'rnatilishidan oldin o'zingizni qanday tanishtirish yo'lini ham o'ylab qo'ygan ma'qul. Surishtiruvchi manbaga, albatta, o'zini tanitishi va nima bilan shug'ullanishini ma'lum qilishi kerak. Endi esa, qaysi harakat to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekaniga misol keltiramiz:

**Noto'g'ri:** "Agar bu sizga katta tashvish tug'dirmasa, sizga ba'zi bir savollarni bermoqchi edim ...".

**Aynan nimasi noto'g'ri:** *Sizda shunchaki savol berish istagi yo'q – siz ularni beryapsiz. Buning ustiga, manbaga siz bilan suhbat unga tashvish tug'dirishi va savollar bilan murojaat qilish siz uchun ham noqulay ekanini bildiriyapsiz.*

**To'g'ri:** "Assalomu-alaykum, mening ismim... Men ... (OAV nomi) tahririyatida jurnalist bo'lib ishlayman. Hozir ... bo'yicha material tayyorlayapman. Mavzu jiddiy. Uni to'la-to'kis ochish zarur. Mavzuni muhokama qilish uchun siz bilan qachon uchrasham bo'ladi?"

**Aynan nimasi to'g'ri:** Siz ismingizni va maqsadingizni to'liq aytdingiz. Shuningdek, manbaga siz bilan suhbat uchun yaxshi bahona ham topib beryapsiz. Siz "uchrasha olasizmi?" deb emas, "qachon uchrashamiz?" deb so'rayapsiz. Siz manbada maqola sarlavhasida ko'rsatiladigan o'z ismi va xavotirlarga to'la kelajak haqidagi o'y-xayollarni tug'diruvchi "intervyu" so'zini qo'llaganingiz yo'q.

**Esingizda bo'lsin:** Jurnalist kimga ishlayotgani emas, balki uning qanday ishlayotgani muhim.

**Asosiy tamoyil:** jurnalist hamisha muhim ish bilan band odam va u bilan uchrashishdan har qanday kishi baxtiyor bo‘lardi, degan tamoyildan kelib chiqish zarur. Agar bu haddan ziyod murakkab vazifa bo‘lsa, unda boshqa ish qidirgan ma’qul.

### **3. Uchrashuvni qayerda o‘tkazish kerak?**

Agar uchrashuvga taklif etish uchun manbaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo‘lmasa yoki manba uchrashuvga rozi bo‘lmasa, uchrashuvni tushunarsiz sabablarga ko‘ra yana va yana kechiktirsa, manba ortga burilib ketib qolmasligi uchun qayerga borish kerakligini puxta o‘ylab olish zarur. Agar manba sudlanuvchi bo‘lsa, unda sud zaliga borgan, agar professor bo‘lsa, u ma’ruza o‘qiydigan joyga otlangan ma’qul. Agar manba jurnalist bilan uchrashishni xohlasa, uning uyiga yoki u o‘zini qulay his qiladigan joyga borish lozim. Agar surishtiruv manbaning ishiga va u ishlaydigan tashkilotga taalluqli bo‘lsa, bunday hollarda, odatda, eng yaxshi uchrashuv joyi – manbaning ish kabinetidir. Ish kabineti manba haqida – u nimani o‘qiydi, didi qanday, hamkasblari bilan munosabati qay ahvolda ekanligi va boshqa ma’lumotlarni berishi mumkin.

### **O‘zaro munosabatlarni shakllantirish: maqsadlar va rollar**

**Axborot manbalari bilan o‘zaro munosabatlar doimo o‘zgaruvchandir. Bunday o‘zgarish, ayniqsa, halokat yuz berganida, fojia sodir bo‘lgan joyga bir to‘da reportyor kelib, nazari tushgan joyni yoritib, keyin mahalliy ovqat, ichimliklar va taomillar yomon degan bayonotlar tarqatib qaytib ketganida, albatta, ro‘y beradi. Shu bois o‘zaro munosabatlarning boshlang‘ich davri jurnalist va manba munosabatining kelajagini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.**

#### **1. Manbaning maxfiylikini ta’minlash**

Surishtiruv jarayonidagi eng muhim jihat – bu jurnalist bilan muloqot qilish faktining o‘zi yo‘q xavf tug‘dirishi ostiga qo‘yishi mumkin manbalarning maxfiylikini ta’minlashdir. Ushbu talab manbalarning o‘zi anonimlik haqida so‘ragan paytda juda zarur. Anonimlikni saqlashga va’da berish jurnalistning manba bilan qilgan muloqotini hech kimga bildirmasligini anglatadi. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- a) manbaning ishxonasiga qo‘ng‘iroq qilmaslik kerak;
- b) elektron pochta orqali aloqa qilishdan qochish lozim;
- d) manba bilan xavfsiz joylarda uchrashish maqsadga muvofiq;
- e) manba bilan bog‘liq barcha materiallarni xavfsiz joyda saqlash zarur.

#### **2. Maqsadni belgilash**

Dastlabki uchrashuv paytiga qadar jurnalist nimaga erishmoqchi ekaniga aniqlik kiritishi kerak. Uning maqsadlari kamida quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- o‘zi olmoqchi bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlar;
- u o‘z loyihasi bo‘yicha manbaga nimalarni ochmoqchi;

Jurnalist quyidagi savolga javob berishga tayyor bo‘lishi zarur: nega u bu loyiha bilan shug‘ullanyapti, u jamoatchilikka qanday foyda keltirishga umid qilmoqda?

Ushbu holatda unga diplomatiyaning mumtoz qoidalari yordam beradi:

– Hech qachon yolg‘on gapirmaslik. Yolg‘on ma’lumotlarni aytmaslik. Yolg‘onning oshkor bo‘lishi kutilmagan oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini esda tutish.

- Hech qachon bor haqiqatni gapirmaslik.

– Agar jurnalist bu savolga javob berolmasa, u buni ochiq tan olishi va unga qachon javob bera olishini aytishi lozim.

**Jurnalist o‘z manbasi haqida quyidagilarni bilishi kerak:**

– bu kishi kim, u qanday odam?  
– u qanday signallarga xayrixohlik bildiradi?  
– jurnalistlar bilan suhbat chog‘ida maqsadlari nimadan iborat?  
– unda shunchaki gapirish istagi yoki ehtiyoji bormi yoki jurnalistlardan o‘z maqsadlarida foydalanyaptimi? Masalan, britaniyalik ekspertlar quyidagi savollarga javob izlaydilar:

– Qasosmi? Adolatni qaror toptirishmi? Ambitsiyalarmi? Shuhrat yoki hokimiyatga intilishmi? Axborotning ochiqligi manbaning ahvoli axborotdan foydalanish imkonini beradimi? Yana kimda undan foydalanish imkoni bor? Axborot manbaini oshkor qilmasdan turib, undan foydalanish mumkinmi?

**Hamkorlik sabablariga doir:**

Sababning qanday ekani muhim emas. Sababning surishtirilgani va ishonchli ekani ahamiyatga ega.

**Axborot sifatiga doir:**

Yangiliklar jurnalistikasida eng yuqori sifatli axborot eng yuqori darajadagi manbadan olinadi, deyiladi. Surishtiruvchilar esa, eng yuqori darajadagi manbani haqiqatning yuzaga chiqishi emas, balki o‘z maqsadlariga erishish (shaxsan o‘zi uchun yoki o‘zi taqdim etayotgan tashkilot uchun) ko‘proq tashvishlantiradi, deb o‘ylaydilar. Shundan kelib chiqqan holda, yuqori sifatli axborot tashkilotda quyiroq mavqeni egallagan va shaxsiy ambitsiyalar sabab yoki tashkilotning maqsadlariga qarshi chiquvchi odamlardan olinadi, deb hisoblash mumkin.

**Axborotning ochiqligiga doir:**

Surishtiruvchilarning ko‘pchiligi uchun ideal manba – bu tashkilot iyerarxiyasida, ishlatish yoki rejalashtirish darajasida o‘rta pog‘onani egallovchi shaxsdir. Bunday odamlar muhim hujjatlardan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Biroq ular tashkilot siyosatining shakllanishi yoki amalga oshirilishiga unchalik ta’sir ko‘rsatisholmaydi. Shunga muvofiq ravishda, ularning tashkilot tuzilmasidagi holati ham ularni ancha zaif qilib qo‘yadi.

Bunday manba jurnalistga maxfiy axborotni taqdim etganida, undan darhol bu haqda yana kim xabardor ekanini bilib olish lozim. Manbaga bu nega muhim ekanini, siz manbani ma’lum qilib qo‘yadigan ma’lumotda iqtibos sifatida foydalanmasligingizni, albatta, tushuntirish kerak.

### **3. ROLLARNI TANLASH**

Jurnalist intervyu davomida o‘ynashi mumkin ikkita asosiy rol mavjud.

**“Ekspert”**

Savollarning aksariyatiga qanday javob berishini oldindan biladi va ba’zida bilimi bo‘yicha o‘ziga teng manba taqdim etgan texnik tafsilotlarga boy axborotni bajonidil qabul qiladi. Ekspert uchun manbalar bilan suhbatlar shunday yuqori darajada o‘tadiki, oddiy odamlar ularning suhbatini unchalik tushuna olmaydi.

Agar jurnalist “ekspert” rolini tanlagan bo‘lsa, unda boshidanoq, intervyu jarayonida o‘zining bilimi unchalik keng emasligini tan olishga majbur bo‘lmasligiga va “yuzini” yo‘qotib qo‘yish xavfi tug‘ilmasligiga to‘la ishonishi lozim.

## **“Sodda”**

Agar jurnalist juda kam narsani bilishi va o‘ziga yangi ma’lumotlar kerakligi bois manba bilan suhbatlashsa, unda “sodda” varianti tanlanadi. Bu rolda jurnalist o‘zini manbaning ko‘zi oldida “pastroq” qilib ko‘rsatishni afzal ko‘rsa-da, “sodda” degani uning aqli “pastroq”ligini anglatmaydi. “Kolombo” teleserialini tomosha qilgan kishilar “Sodda” qanday ishlashini ko‘rishi mumkin. Bu eng qiyin rol bo‘lsa kerak. Chunki bunday yo‘l tutilishi ham sodda, oddiy savollarni, ham murakkab savollarni berish imkonini yaratadi. “Sodda” hamma narsa haqida so‘rashi mumkin va bu unga kerak bo‘lgani bois, ushbu rol jurnalistning nimaga intilayotgani va u qanchalik ko‘p narsani bilishi xususida manba hech nimani anglolmaydi.

Ko‘pincha surishtiruvchi intervyuni “Sodda” sifatida boshlaydi. Suhbat oldinga siljiganida esa, u o‘zini “Ekspert” sifatida namoyon etadi. Intervyu olishning ushbu variantida manbada jurnalist xuddi yolg‘on gapirganday taassurot tug‘dirmaslikka intilishi lozim. Boshqa hech qachon uchrashmaydigan manbada kutilmaganlik effektini hosil qilish holatlari bundan mustasno, albatta.

Intervyu davomida jurnalist rollardan birini yoki ikkalasini ham qo‘llashi mumkin. **Uning uchun asosiysi – ayni damda bu rolda cheklanganligiga ishonchni his qilishdir.**

**Jurnalistning manba bilan muloqot qilishi uchun tanlangan roli o‘zaro munosabatlar rivojlanishi jarayonida o‘zgarib borishi mumkin.** “Sodda” borgan sayin “Ekspert” darajasida savollar bera boshlashini kuzatish ko‘pgina manbalarga huzur bag‘ishlaydi. Chunki bunday muloqot surishtiruvchining unga quloq solayotganidan va undan o‘rganayotganidan dalolat beradi. Manba bilan o‘zaro munosabatlarning tabiiy evolutsiyasi vaqt o‘tishi bilan aynan shu yo‘nalishda ketadi.

## Intervyu olishning taktik usullari

Har bir reportyor intervyu olish bo'yicha o'z taktikasiga ega bo'ladi va ularning aksariyati o'z taktikasini hech qachon o'zgartirmaydi. Surishtiruvchi rolida chiqar ekansiz, nafaqat hamkasblar, balki huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari, yuristlar, sotuvchilar, auditorlar va boshqalar bilan ham muloqot qilib ko'ring. Ulardan muayyan vaziyatlarda nima qilishini so'rang yoki o'zlarining "jangovor tajribasi" bilan o'rtoqlashishini iltimos qiling. Intervyu o'tkazishning eng yaxshi taktik usullari intervyu oluvchining shaxsini aks ettiradi. Siz o'z repertuarigizni shakllantirayotganda buni, albatta, inobatga oling.

Jurnalist surishtiruvi jarayonida o'tkaziladigan intervyu, tabiiyki, an'anaviy jurnalist intervyusidan farq qiladi. Ushbu farq jurnalist surishtiruvi usuli va u bilan bog'liq faoliyatning o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Agar jurnalist oddiy intervyu olsa, unda, odatda, suhbatdosh o'zini erkin tutadi va bimalol suhbatlashadi. So'z surishtiruv haqida borganida esa, odamlar o'zi va yaqinlaridan xavotirga tushib, "indamas" bo'lib qoladi, suhbat mavzusidan chetlashadi yoki suhbatdan bosh tortadi.

Maykl Berlin o'z faoliyatini endigina boshlagan surishtiruvchilarga intervyu usulidan foydalanganda quyidagilarni nazarda tutishni maslahat beradi:

"Ba'zi surishtiruvlar hujjatlardan boshlanadi. Keyin esa odamlarni jalb etgan holda o'tkaziladi. Yana shunday surishtiruvlar borki, ular odamlardan boshlanib, so'ngra hujjatlarga o'tadi. Lekin har qanday holatda ham intervyu puxta rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Jurnalist qanday savollar berishini, qaysi psixologik yondashuvdan foydalangani ma'qul ekanini, intervyu beradigan kishiga yoqish yo'llarini bilishi shart. Yaxshisi, intervyuni telefon orqali emas, yuzma-yuz turib olgan ma'qul. Chunki shaxsiy muloqot davomida jurnalist so'zlaridan tashqari, suhbatdoshining yuz ifodasini va xatti-harakatini kuzatib ham ma'lumot oladi.

Diktofondan foydalanish suhbatdoshning fikrlari tizginini kuzatishga va kelgusida guvoh o'z so'zlaridan voz kechsa, muammolardan qochishga yordam beradi. Ba'zan suhbatdoshga aytmagan holda, suhbatni yozib olishga ruxsat etiladi. Boshqa holatlarda esa bunday harakat noqonuniydir. Ba'zida guvohni jurnalist yondaftariga qaydlar qilmayotgani achchiqlantiradi va "bo'g'ib qo'yadi". Suhbatga rozi bo'lgan guvoh suhbat tasмага yozib olinayotgan paytda avvaliga xijolat tortadi, keyin esa diktofon "yozayotgani"ni unutadi.

Intervyu olgan kishilaringizning hammasidan yana suhbatlashsa bo'ladigan odamlarning telefon raqamlarini va ismlarini, albatta, so'rab oling. Suhbatdoshlaringizdan gaplarini tasdiqlaydigan hujjatlarni yoki ularning nusxasini taqdim eta olish-olmasligini yoki ularni kim topib berishi mumkinligini so'rang.

Eng oxirgi intervyu o'ta muhim va o'ta nozik ishdir. Chunki unda hamma axborot to'planib, bayon etilishga tayyor bo'ladi. Va aynan shu holatda surishtiruv predmetiga taqdim etilgan guvohliklarga javob berish imkoniyati beriladi"<sup>43</sup>.

Xorijiy amaliyotchilar intervyu olishning bir nechta ommabop taktik usullaridan foydalanishadi. Bular:

### 1. "Yangiliklardan tayyorlangan sovg'a"

Ko'pincha surishtiruvchilar voqealar avjiga chiqqanida va yangiliklarni yorituvchi OAV ushbu mavzuni ko'p yoritayotganida hodisa sodir etgan joyga borishadi. Ammo yuqorida qayd etilgandek, aksariyat holatlarda ko'plab xatoliklar yuzaga keladi. Intervyuni boshlash, manba bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun intervyuga o'zingiz bilan

---

<sup>43</sup> Берлин М. Краткое руководство по проведению журналистского расследования. – М., 1989. – С.23.

voqeaga doir maqolalar to'plamini olishga harakat qiling va ulardagi qaysi faktlar to'g'ri ekanini aniqlash uchun manbadan uni birgalikda ko'rib chiqishni iltimos qiling.

## **2. Yetakchi roli**

Agar intervyuga hokimiyat uchun kurash sifatida qaralsa, psixologik nuqtai nazardan, unda bu yerda mayda narsalar bo'lmasligini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hammasi muhim: jurnalist o'tiradigan yoki tik turadigan joy ham, o'zining kasbiy anjom va vositalarini nazorat qilishi ham. Masalan, suhbatdosh diktofonni yoki yondaftarchani qo'lga olishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

## **3. Oraliq masofani saqlash**

Ayrim kishilar odamlar bilan tanishish va muloqotdan lazzat olish uchun jurnalistga aylanadi. Buning yomon joyi yo'q, albatta. Ammo jurnalistning suhbatdoshlari bilan do'stlik rishtalarini bog'lashga intilishi surishtiruv jarayoni uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

## **4. Manbaning mudofaa vositalarini uning o'ziga qarshi yo'naltirish**

Oriana Falachchining (Oriana Fallaci) Genri Kissenjer bilan o'tkazgan va mumtoz durdona sifatida tan olingan intervyusi ayolni tahqirleydigan uchrashuvdan boshlangan: Genri Kissenjer jurnalistga orqasini burib, keyin undan "meni sevib qolish niyatingiz yo'qmi?" deb so'raydi. Falachchi g'azab otiga minadi. Ammo keyin Kissinjerning ayollar bilan munosabatlarda muayyan muammolari borligini tushunadi. Jurnalist xizmat vazifasini bajarayotganida uni bunday haqoratlagan vijdonsiz odam rahm-shafqatga munosib emas, degan xulosaga keladi. Keyingi intervyusida u muayyan faktlarni aniqlashga yo'naltirilgan savollarni ayollar makri yordamida qurilgan savollar bilan aralashtiradi. Bu bilan u bir paytning o'zida suhbatdoshini ham yo'ldan ozdirishga, ham unga xushomad qilishga urinadi (masalan: "Endi esa sizga ham astronomlarga bergan savolimni beraman: Oyda yurganingizda nimalar qila olgan bo'ladingiz?"). Suhbat davomida borgan sayin ruhiy muvozanatni yo'qotib borayotgan Kissinjer intervyu ustidan ham nazoratni yo'qotadi, oxir-oqibatda esa o'zini ham nazorat qilolmay qoladi. Buning natijasida olingan fosh etuvchi faktlar hokimiyatning "yuragiga" olib boruvchi eshiklarni ochadi.

Zarurat tug'ilganida Falachchining yo'lini tutish mumkin. Masalan, hokimiyatga ega kishilar jurnalistga bepisand munosabatga bo'lganida. Agar jurnalist ularning zaif tomonini ko'rsa, u ana shu jihatlardan foydalanishi mumkin. Masalan, agar biror jamoat arbobi haqida to'plangan ma'lumotlar ushbu odamning hayotiy faktlardan ko'ra balandparvoz gaplarni afzal ko'rishidan dalolat bersa, u holda, ushbu arbob takrorlashni yoqtiradigan va baralla aytadigan tamoyillarga zid keluvchi uning hayotidan olingan faktlar bilan oldindan "qurollanish" mumkin.

## **5. Manbani hayron qoldirish**

Agar taniqli shaxsdan intervyu olish ko'zlanayotgan bo'lsa, undan ko'p marotaba bir xil savollar takrorlanadigan intervyular olingani ma'qul. Bu holda, intervyuga tayyorgarlik ko'rishda, ushbu faktdan shunday foydalanish kerakki, u suhbatni yangi o'zanga ko'chirsin. Buning uchun oldin nimalar qilinganini ko'rib chiqish va oldingisidan mutlaqo farq qiluvchi narsani o'ylab topish zarur. Ba'zida reportyorlar lol qoldiruvchi narsalarga unchalik e'tibor

berishmaydi. Masalan, mashhur musiqachi va ijrochi Mik Jaggerdan deyarli hamma mavzuda intervyu olishgan. Faqat bitta mavzu bundan mustasno: u musiqani qanday yaratadi? Jaggerga bu haqda suhbatlashishni taklif etishganida, u bundan juda xursand bo'lgandi.

## **6. Suhbat tizginini qo'lda ushlab turish**

Bu, ayniqsa, voqealarning xronologik ketma-ketligi muhim holatlarda zarur. U intervyular turkumini boshlashning yaxshi usulidir. Masalan, har bir voqeaning xronologik ketma-ketligi va tafsilotlariga aniqlik kiritgan holda (kim qatnashgan va nimalar aytilgan), manba bilan birga yana oldin muhokama qilingan voqealarga murojaat qilayotganda, albatta, suhbat tizginini qo'lga olish kerak. Birinchi suhbat chog'ida manbalar voqeaning barcha tafsilotlarini unchalik eslay olmaydi. Shu bois u nimanidir eslaganida rag'batlantirish va oldin aytilmagan og'riqli hissiyotlarining chiqishiga yo'l qo'yib berish kerak.

## **7. Matn ostidagi ma'noga e'tibor qaratish**

Teatr tilida "matn" so'zi sahnada aytiladigan formal dialogni anglatadi; "matn ostidagi ma'no" esa ushbu dialog doirasidan tashqarida bo'lgan narsadir. Surishtiruvchi har doim intervyu davomida matn ostida ma'no borligini e'tibordan qochirmasligi kerak. Xususan:

– suhbatdosh ovozingning temбри o'zgaradigan lahzalarga alohida e'tibor berish zarur – bu betoqatlikning yaqqol belgisidir.

– manba mujmal gapira boshlaydigan va hech qanday yangi narsani aytmasdan, bir narsani takrorlaydigan holatlarga ham e'tibor qaratish lozim. (Aytilganlarni takrorlash eslashga yordam beradi, ammo natijada, ular qandaydir bir yangi tafsilotlarni ochishga imkon tug'diradi).

– suhbatdosh hali berilmagan savolga javob bera boshlaydigan paytda ham hushyor turishi kerak. Bu holda, ushbu soha hozir yoki keyinroq o'rganilishga ko'proq muhtoj ekani ma'lum bo'ladi. Diktofondan intervyuni yana tinglar ekansiz, ana shu jihatlarga juda diqqat bilan e'tibor qiling.

## **8. Manbani manfaatdor hamkasbga aylantirish**

Manba bilan o'zaro munosabatga chiqishni u sizga intervyu davomida ma'lum qiladigan muayyan axborotdan muhimroq bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan rivojlanayotgan munosabatlar o'zaro aloqalar va majburiyatlarga aylanishi mumkin. Bu qanday sodir bo'lishiga qarab, faoliyatini endigina boshlayotgan surishtiruvchilar, o'zlari anglamagan holda, suhbatdoshining g'am-tashvishlariga chuqur kirib borganidan aybdorlik hissini sezishi va o'zlari bilmagan holda, bu odamdan qocha boshlashi mumkin. Bunday qilish esa mutlaqo noto'g'ri. Aksincha, manba bilan muntazam ravishda aloqani ushlab turing. Axborot bilan o'rtoqlashish, so'nggi yangiliklar bilan qiziqish yoki undan tanish masala bo'yicha izoh so'rash uchun qo'ng'iroq qiling. Manbaga o'zingizni eslatib qo'yish uchun favqulodda xarakterdagi axborot zarur bo'ladigan daqiqani kutib o'tirmang. Jurnalist o'zini shunday tutganida manbani o'z sherigiga, loyiha bo'yicha hamkasbiga aylantiradi. Manbadan unga ma'lum axborotni so'ragan holda, uni surishtiruvning borishi, erishilgan yutuqlar haqida xabardor qilib borar ekansiz, loyiha natijalarida uning ulushi borligini bildirgan va uni rag'batlantirgan bo'lasiz. Manba shunda juda muhim masala bo'yicha sizning yaqin maslahatchingizga aylanadi.



## **9. Yozib olinganlarni o'sha joyning o'zida ko'rib chiqish va aniqlik kiritish**

Intervyudan keyin darrov yondaftarga qilingan qaydlarni ko'rib chiqish uchun oldindan biroz vaqt ajratishni o'zingizga qoida qilib oling. Kayfiyatdagi o'zgarishlar borasidagi taassurotlar, suhbatdoshning har xil ma'noda tushunilishi mumkin gaplari va boshqa tafsilotlar jurnalist kabinetdan chiqishi bilan oq o'ziga ayon bo'ladi.

### **Axborotning maxfiyligiga beparvolik bilan qaramaslik kerak**

**Manbalar "Bu matbuot uchun emas" degan gapni juda yaxshi ko'radi. Muammo shundaki, ular ko'pincha nima haqda gapirayotganlarini bilishmaydi. Afsuski, reportyorlarning ko'pchiligi ham buni bilmaydi. Anonimlikning turli toifalari yoki manbalarga qilinadigan havolalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:**

#### **Matbuot uchun emas:**

Reportyor manba tomonidan taqdim etilgan axborotdan foydalanmaslikni va'da qiladi. Lekin ushbu ma'lumotlarning barchasi unga mutlaqo boshqa manbadan tushadigan holatlar bundan mustasno. Bunda manba reportyorga axborotdan foydalanishni taqiqlay olmaydi.

#### **Aniq manbaga havola bermasdan chop etish uchun:**

Reportyor axborotdan foydalanishi mumkin. Biroq u manbaga bevosita havola berolmaydi. Havolaning boshqacha variantlari esa, masalan, "sud doiralari yaqin manba", reportyor va manba o'rtasida kelishib olinishi zarur.

#### **Matbuot uchun:**

Reportyor axborotdan foydalanishi va uning manbasiga havola berishi mumkin. Chunki, manbalar "*Bu matbuot uchun emas, men shuni xohlayapman*" desa-da, aslida ular "*men bu axborotdan foydalanishingizni istayman, faqat menga havola bo'lmasligi kerak,*" degan gapni nazarda tutadilar. Manba nomini yashirish yoki yashirmaslik – bu manbaning xohishi. Odamlar o'z kasbiy faoliyatiga yoki shaxsiy xavfsizligiga tahdid paydo bo'lganida, jurnalistlarni o'z nomlari ko'rsatilgan axborot bilan ta'minlashlari dargumon. Chunki odamlar o'zlariga nima tahdid solishini, jurnalistdan ko'ra yaxshiroq biladilar. Surishtiruvchilar manbaning xohish-istagiga hurmat bilan qarashi shart. Faktlar shunday qo'llanishi kerakki, manba va ular orasidagi aloqani kuzatishning iloji bo'lmasin. Buning uchun juda ehtiyot bo'lish va bitta manbadan yoki manbalarning cheklangan doirasidan olinishi mumkin savollarni bermaslik zarur.

Anonim manbalardan foydalanganda jurnalistning o'zi axborotdan foydalanish bilan bog'liq tahdidlarga duch keladi. Agar axborot yolg'on bo'lib chiqsa, jurnalistning obro'siga putur yetadi. Agar jurnalistlarni sudga berishsa, ular o'zining halol ekanini ham, ma'lumotning aniqligini ham isbotlasholmaydi. Shu bois anonim manbalarga asoslangan materialni chop etmaslik zarur. Quyidagi holatlar bundan mustasno:

- Hujjatli dalil boshqa manbalardan topilishi mumkin.
- Anonim manba tomonidan taqdim etilgan ma'lumot tekshirilgan boshqa axborot bilan bemalol tutashib ketgan.
- Manba bundan oldin haqqoniy axborotni taqdim etgan.
- Agar manba o'z ma'lumotiga asos sifatida biror hujjatni olgan-u, ushbu hujjat manba bilan qiyoslanmagan bo'lsa, uni talab qilish kerak. Manbaga matndan uzilgan holda hujjatdan iqtibos keltirishga yo'l qo'ymaslik lozim. (Fransiyada zararlangan qon haqidagi

ishni surishtirish jarayonida manba “Le Mond” reportyoriga qarshi aynan shu usuldan foydalangani jurnalistning muxbirlik faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatdi).

Agar hujjatli dalillarni boshqa manbalardan topish imkoni bo’lmasa, dastlabki manbadan yoritilayotgan mavzu bo’yicha uning ham fikrini berish uchun ismini tilga olishga rozi bo’lishi-bo’lmasligini so’rang.

## **Eng avvalo psixologiya**

**Surishtiruv jarayonida jurnalist deyarli har doim turli hissiyotga beriladigan va o’ziga xos ruhiyatga ega kishilarga to’qnash keladi. Bu esa manbalar bilan muloqot olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu masalaning ayrim jihatlarini keltiramiz.**

### **1. Hissiyot – bu axborot**

Xolis jurnalistika qonunlari doirasida ta’lim olgan yoki shoshilayotgan reportyorlarning asosiy xatosi shundan iboratki, ular manbaning emotsiyalariga emas, balki undan olinadigan axborotning o’zigagina e’tibor qaratadi. Ular emotsiyalarga, shu jumladan o’zlarining hissiyotlariga ham oddiy to’siqlar sifatida qaraydi. Devid Xalbershtalm “Hokimiyatni qo’lida ushlab turganlar” (David Halberstalm, The Powers That Be) deb nomlangan mumtoz asarida aynan shuning uchun ham Uotergeyt ishini boshqalar emas, balki “Vashington post”ning nisbatan tajribasiz reportyorlari fosh etgan, deb ta’kidlaydi. Yosh reportyorlar o’z manbalari his qilgan qo’rquvdan dahshatga tushadilar va uni o’zlari ham his qiladilar: ushbu qo’rquv mavzu dolzarb ahamiyatga ega bo’lganidan dalolat beradi. His-tuyg’u nimadir yuz berayotganidan va bu juda muhim ahamiyatga ega ekanidan xabar beradi. His-tuyg’u jurnalistga ba’zan u harakatlanishi lozim yo’nalishni ko’rsatadi.

### **2. Birovlarning his-hayajonlari quliga aylanmaslik**

Yuqorida aytilganiday, aloqaga tezroq kirishadigan manbalar aksariyat hollarda surishtiruvda yordam va taskinga muhtoj qurbonlar bo’ladi. Reportyor bunday manbalarning ta’sirida ularning dil og’rig’i va qahrini o’ziga singdirib oladi. Ammo har qanday holatda ham o’zingizga singdirib olgan og’riqli hissiyotlarga manbalar darajasida berilmang. Jurnalist o’z hissiyotlarini to’kib soladigan material yozishdan tiyilgani ma’qul. Mazkur qo’llanma mualliflaridan biri 1991-yilda jismoniy imkoniyatlari cheklangan odamlar yashayotgan bir uydagi ahvol haqida material tayyorlayotganida salkam bir hafta davomida ushbu tibbiy muassasadagi bemorlarning barcha qiyinchiliklarini o’zi ham boshidan kechirdi. U shunday tushkun holatga tushdiki, his etgan ruhiy va jismoniy azobidan so’ng uch haftagacha yeb-ichishida halovat bo’lmadi...

Ushbu sindromni yengib o’tish usullaridan biri – bu jamoa bo’lib ishlash. Jamoa a’zolarining vaziyatni bir-biri bilan o’rtoqlashishi ularning yana ruhiy muvozanatni tiklashiga yordam berishi mumkin. Agar muharrir bunday sindrom borligini tushunmasa yoki buni tan olishdan bosh tortsa, bu uning surishtiruvlar qanday kechishidan bexabarligidan dalolat beradi. U holda ko’makni boshqa joydan izlashga to’g’ri keladi.

### **3. Ojizlikni qanday yengib o’tish mumkin?**

Ba’zida surishtiruv jarayonida jurnalist o’zini biror narsani o’zgartirishga ojizday his qiladi. Buning natijasida ayrim jurnalistlar jismonan kasal bo’lib qoladi. Bunday ruhiy tanglik

ko'pincha jurnalistning o'ziga ishni isbotlash uchun zarur faktlar haqiqatan ham bormi va biror muhim narsani o'tkazib yubormadimmi? degan savolni bergan paytida yuz beradi. Albatta, jurnalist o'zini yomon his qilishi uchun u eshitgan va ko'rgan narsalarning o'zi kifoya. Boshqa tomondan esa, u hamon bularning hammasi noto'g'ri ekaniga ishongisi keladi va unga hech qachon yetarlicha dalil topa olmaydiganday tuyula boshlaydi. Bunday holatlarda agar material chop etilmasa, jurnalist u chop etilganidan keyingi holatdan ham yomonroq vaziyatga tushib qolishi mumkin. Aniqlangan faktlar doirasida qolish muhim. Ayni chog'da, o'zingizga ham hurmat ko'rsatgan holda, materialni chop etishga erishish zarur.

#### **4. Minnatdor bo'la olish**

Jurnalistlar maqola chop etilganidan keyin ko'pincha o'z manbalarini unutadi. Ammo aslo bunday qilmaslik kerak. Chunki material chop etilganidan keyin darhol aloqalarning uzilishini manba jurnalistning unga nisbatan xoinligi sifatida qabul qiladi. Bundan tashqari, sobiq manbalar bilan aloqani ushlab turish bo'lg'usi surishtiruv loyihalari uchun manbalar tarmog'ini shakllantirish imkonini beradi. Oxirgisi: talabalar – bo'lg'usi jurnalistlar “Surishtiruvlar bilan biz o'zimizga dushman orttirmaymizmi?” deb tez-tez so'raydi. Albatta, bu aniq. Ammo jurnalist o'z ishini to'g'ri va halol bajarsa, odamlar bilan ularning huquqlarini hurmat qilgan holda muloqotda bo'lsa, hatto, dushmanlar ham uni hurmat qila boshlaydi. Eng muhimi esa u dushmanlarga qaraganda ko'proq do'stlar orttiradi va bu do'stlarning mavqei ham ancha yuqoriroq bo'ladi.

## 6-bob. SURISHTIRUV MATERIALINI TASHKIL ETISH

Jurnalist surishtiruvi natijasida boshqa ko'rinisdagi materiallarga qaraganda ancha ko'p ma'lumot to'planadi. Shu bois bunday material to'planishini oqilona tashkil etish lozim. Materialni tashkil etish uni tayyorlash va chop etish bilan bog'liq tizimli jarayonning bir qismidir. Ushbu jarayon surishtiruvning o'zini o'tkazish, keyin unga taalluqli ma'lumotlarni to'plash va, nihoyat, matnning o'zini tayyorlash o'rtasidagi uzluksiz aloqadan iborat. Materialni tashkil etish ishlari surishtiruv davomida kechadi. U matnni yozish jarayonini tayyorlaydi va ishga soladi. Agar materialni tashkil etishga vaqt ajratilmasa, oxir-oqibatda, butun loyihaga kamida ikki baravar ko'proq vaqt ketadi hamda uni tayyorlash va taqdim etish ishlari qiyin kechadi. Jahon surishtiruv amaliyotida materialni tashkillashtirishning bir nechta oddiy universal qoidalari ishlab chiqilgan.

### Hujjatlarni tashkillashtirish

**Hujjatlar ustida ishlash usuli** – jurnalist faoliyatidagi eng keng tarqalgan usullardan biridir. Uning yordamida “jurnalist jamiyatda mavjud bo'lgan, turli-tuman “axborot omborxonalari”da saqlanayotgan ma'lumotlarni oladi. Ular turli xarakterda bo'lishi mumkin: qonunlar va hokimiyat tuzilmalarining qarorlari, fanlarning fundamental qoidalaridan tortib, joylar, odamlar, voqealar tavsifi va xarakteristikasigacha”<sup>44</sup>. “Hujjat” tushunchasi lotincha “documentum” (“dalil”, “ibratli namuna») so'zidan kelib chiqqan. Hozir “hujjat” deganda asosan yozma manba tushuniladi.

“Hujjat”, keng ma'noda, axborotning asosiy moddiy tashuvchisidir. Biroq jurnalist faoliyatiga, xususan, jurnalist surishtiruviga nisbatan “hujjat” tushunchasini ijtimoiy muhim axborotni qayd etish va uzatishning yozma, og'zaki yoki boshqacha usuli sifatida qabul qilish mumkin.

Jurnalistning hujjatli axborot manbalariga murojaati ularni qidirishdan boshlanadi. “Axborot portlashi” haqida so'z borgan sharoitlarda bu ish, albatta, oddiy emas: bunda jurnalistdan hujjatshunoslik, bibliografiyadan xabardorlikning yuqori darajasi, jamiyatda mavjud hujjatlarning turlari va ko'rinishlari haqida keng tasavvur talab etiladi.

Jurnalist surishtiruvi obyektini nuqtai nazaridan 2004-yil 1-3 sentabrda Beslanda sodir etilgan terrorchilik harakatiga bag'ishlangan materiallar katta qiziqish uyg'otadi. Unda axborot manbalari sifatida “Россия Антитеррор”, “РИА-Новости”, “Lenta.ru” internet-saytlaridan olingan ma'lumotlar, “Rambler Media Group” nashri, “Der Spiegel” jurnali muxbirlari tomonidan yozilgan “01.09. Beslan ishi” kitobi, nomlari tilga olinishini istamagan manbalar bilan intervyulardan parchalar, “Новая газета”, “Российская газета” nashrlarining materiallaridan foydalanilgan.

Hujjatlarning juda ko'plab tasniflari mavjud. Umum qabul qilingan tasnifga ko'ra, hujjatlar yozma (ma'lumotnomalar, hisobotlar, buyruqlar va h.k.), ovozi (magnitofon yozuvlari, fonetik materiallar) va tasviriy (videotasvirlar, ikonografiya hujjatlari va h.k.) bo'lishi mumkin. Axborotni saqlashning yangi shakli – kompyuter diskleri esa uchala turga ham mansub. Ammo ular hujjatlarning alohida sinfini tashkil etadi<sup>45</sup>. Xususan, “Jurnalist ijodiy faoliyatining asoslari”<sup>46</sup> kitobi muallifining fikricha, hujjatlarning quyidagi turlari mavjud: ma'muriy-davlat, ma'muriy-ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, me'yoriy-texnikaviy, ma'lumotnoma-axborot, badiiy, maishiy.

<sup>44</sup> Лазутина Г.В. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С.162.

<sup>45</sup> Муминов Ф.А. Журналистское расследование. Учебное пособие. – Т.: Университет, 2002. – С. 49.

<sup>46</sup> Лазутина Г.В. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С.163.

An'anaviy va formallashtirilgan usullar mutaxassislar tomonidan tavsiflanadigan hujjatlarni tahlil qilishning ilg'or usullar sifatida tan olingan.

“An'anaviy usullar hujjatlarni jurnalist tadqiqotining asosini tashkil etadi. Ushbu usullar tadqiq qilinayotgan hujjatni tushunishda, undan olingan ma'lumotlarni qayd etishda o'zgacha ma'no kasb etadi. Talqin hujjat mazmunini ular bilan bog'liq bo'lmagan muayyan mezonlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi”, – deb hisoblaydi “Surishtiruv jurnalistikasi” kitobi muallifi<sup>47</sup>. Oddiy qilib aytganda, chuqur, puxta va har tomonlama xarakterga ega hujjatga shu tarzda sifatli ishlov beriladi. Muallif bunda tahlil qilinayotgan materialning mohiyatini aniqlash uchun o'ziga yordam beradigan mantiqiy xulosalar zanjirini tuzadi.

Formallashtirilgan usul asosini, sifat miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha baholanganida, kontent-tahlil tashkil etadi. Ushbu usul muayyan parametrlar bo'yicha bir turdagi hujjatlarning katta hajmini o'rganishni taqozo etadi. Jurnalist surishtiruvida formallashtirilgan usuldan kam foydalaniladi.

Jurnalist surishtiruvining chuqurligi va qamrovi, odatda, yetarlicha katta hajmdagi turli-tuman moddiy axborot manbalaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Shu bois hujjatlar bilan ishlash uchun ularni sinchkovlik bilan tanlash zarur. Vatanimiz olimlaridan F.A.Mo'minov jurnalistning hujjatlar ustida ishlash jarayonini tavsiflar ekan, u quyidagilarni qayd etadi: “Hujjatlar bilan ishlash ko'p hollarda malakali jurnalistning faktlar bilan ishlashiga o'xshab ketadi. U xuddi muz tog'ining ko'zga tashlanadigan qismi kabi to'plangan hujjatlarning faqat kichkina qismidan foydalanilishi mumkin va muallif bunga tayyor turishi lozim. Tanlab olingan faktlar tipik, yorqinroq va xarakterli bo'lishi kerak”<sup>48</sup>.

Misol tariqasida L.Kislinskayaning “Yana bir bor qora reyderlar haqida”<sup>49</sup> nomli materialini ko'rib chiqamiz. Unda jurnalist Rossiyada yer biznesining yangi turi – iqtisodiyotning ushbu sektoridagi “yutib yuborishlar”, reyderlik va moliyaviy firibgarliklarning paydo bo'lishi va gullab-yashnashi sabablarini ochib tashlaydi.

“Agar sizga bironing kompaniyasi, eng asosiysi, uning ko'chmas mulki yoqib qolsa, sud “jang”larini dadillik bilan boshlashingiz mumkin – mulk sotib olish bilan bog'liq firibgarliklarni surishtirish ishi ana shunday boshlanadi. – Qonunchiligimizning nomukammalligi huquqiy maydondan epchillik bilan ochiq jinoyatga o'tib ketadigan “tadbirkor” fuqarolar uchun har doim tirqishlar qoldiradi”.

Muallif bunday xulosalarni turli asoslarga, shu jumladan hujjatlarga tayangan holda chiqaradi. U nafaqat qonunchilik hujjatlarini, balki jinoiy va sud xarakteridagi ko'plab materiallarni ham puxtalik bilan o'rganadi. Xususan, muallif yerlarni noqonuniy sotib olish faktlari bo'yicha jinoiy ishlar materiallarini o'rganib, ko'pincha ushbu ishlarda yer mulki sohiblarini ochiqdan ochiq aldash holatlari mavjud, degan xulosaga keladi:

«O'ta yirik miqdorda firibgarlik va jinoiy yo'l bilan orttirilgan mulkni qonuniylashtirish fakti bo'yicha qo'zg'atilgan 248509-sonli jinoyat ishida shunday epizod bor. Kolxozchi-qariyalar klubga taklif etilib, u yerda qandaydir bayram munosabati bilan sovg'alar – bir quti tez eriydigan qahva va bir quti qand tarqatiladi. Kolxozchilar qahva uchun deb imzo chekadi, ammo imzo yer payi uchun bo'lib chiqadi”.

Undan keyin muallif yerlarni noqonuniy bosib olish miqyosi va ko'lamiga oydinlik kirituvchi boshqa hujjatlarga murojaat qiladi:

«RF IIVning MFO bo'yicha Bosh boshqarmasi Moskva, Moskva ostonasi, Tver va Ryazan viloyatlari hamda Krasnodar o'lkasida joylashgan obyektlarga tajovuz qilgan guruhga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atadi. Ushbu obyektlar ro'yxati kishini hayratga soladi: Sochi

<sup>47</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С.125.

<sup>48</sup> Муминов Ф.А. Журналистское расследование. Учебное пособие. – Т.: Университет, 2002. – С.10.

<sup>49</sup> Совершенно секретно, 2007, № 1.

shahri aeroporti; Moskva viloyatining Konstantinov, Ramen va Istra tumanlaridagi parrandachilik fabrikalari; qum karyerlari; pioner lagerlari; avtotrassalar bo'yidagi yer uchastkalari, umumiy maydoni 299 gektar o'rmon massivi va h.k.”<sup>50</sup>.

Shu tarzda, jurnalist ushbu matnda bir nechta hujjatdan foydalanib, yer biznesida ko'p sonli firibgarliklar uchun qonuniy bazani yaratgan hujjatlarga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekiston matbuotida faoliyat ko'rsatuvchi jurnalistlarning surishtiruv materiallarida ham hujjatlar ustida ishlash usuli qo'llaniladi. Ammo hozircha unchalik keng emas. Masalan, “Og'ir jazo xolislikka isbotmi?” (Hurriyat, 2003, №51), “Taxminga suyangan hukm” (Hurriyat, 2003, №8), “Qaror qat'iy emas, shikoyatga o'rin bor” (Hurriyat, 2003, №23) maqolalarida jinoyat va fuqarolik ishlarining ko'p tomli hujjatlari, suddan oldingi va sud tergovlarining matnlari puxtalik bilan o'rganilgan, ko'plab hujjatlarni qayta tekshirish uchun ekspertlar bilan qo'shimcha intervyular o'tkazilgan.

Hujjatlarning haqiqiylikni tekshirish jurnalistning hujjatlar bilan ishlash jarayonidagi eng muhim ishdir. Jurnalist qo'liga qanday hujjat tushishidan qat'iy nazar, avvalo, u ushbu hujjatlar qay darajada ishonchli ekanini, albatta, tekshirishi shart. Agar hujjatning haqiqiy ekaniga shubha tug'lsa (masalan, uning ko'rsatilgan muallifga tegishlilik), mutaxassislar maxsus tahlil usuliga murojaat qilishni maslahat beradi. Ushbu usul “tashqi” va “ichki” tomondan tanqid qilishni o'z ichiga oladi.

Ba'zi hollarda hujjatdagi ma'lumotlarning haqqoniyligi ham shubhali tuyuladi. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun jurnalistlar sotsiologiyada hujjatli ma'lumotlarning haqqoniylikni tekshirishda qabul qilingan qoidalarga asoslanishi mumkin. Ushbu qoidalarga muvofiq hujjatlarni tahlil qilishda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

- voqealar tavsifi va ularning talqini (faktlar va fikrlar)ni farqlash;
- hujjatni tuzuvchi qaysi axborot manbalaridan foydalangani, ularda taqdim etilgan axborot birlamchi yoki ikkilamchi ekanini aniqlash;
- hujjatni tuzuvchining uni yaratayotgan paytdagi maqsadi tayangan niyatlarni aniqlash;
- hujjat yaratilgan sharoit uning sifatiga qanday ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligini hisobga olish<sup>51</sup>.

Jurnalist surishtiruvda hujjatlar ustida ishlash usulining mohiyati va ahamiyatini ko'rib chiqishni yakunlar ekanimiz, ushbu mehnat ancha murakkab va sinchkovlikni talab etishini qayd etmoqchimiz. Surishtiruvchi-jurnalist hisobotlar, turli qaydnomalar, ma'lumotnomalar, ma'ruzalar, bayonnomalar, ommaviy axborot vositalarining materiallari va hokazolardan iborat tog'day uyumni yengib o'tishi zarur. Zarur bo'ladigan yagona qog'ozni izlashga soatlar, haftalar, oylar ketishi, natija esa umuman bo'lmasligi ham mumkin. Ammo chinakam sabr-toqat va qunt bilan qilingan mehnat, odatda, albatta, o'z samarasini beradi. O'shanda hamkasblar ham, raqiblar ham, auditoriya ham jurnalistning iqtidori va mahoratini tan oladi. Chunki muvaffaqiyatga hamma sherik bo'lgisi keladi.

Tashkillashtirish ishlari jurnalistga ko'pgina muammolardan qochishda yordam berishi mumkin. Ular quyidagicha tasniflanadi:

- jurnalist qanday hujjatlarga egaligini va ularda qanday ma'lumotlar borligini bilishi;
- u yoki bu ma'lumotning qayerdaligini bilishi va ularni darhol topa olishi;
- jurnalist o'z zahirasi tashkil etuvchi faktlar orasidagi aloqalarni ko'ra olishi kerak.

Ushbu bilimlarga ega bo'lish jurnalistga surishtiruvni ipga tizilgan munchoqday tashkil etish imkonini beruvchi ma'lumotlarni tez topishida yordam beradi.

<sup>50</sup> Совершенно секретно, 2007, №1.

<sup>51</sup> Лазутина Г.В. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С.66.

## **Materialni tashkillashtirish jarayoni ikki qismdan iborat**

– **Birinchisi – ma’lumotlar bazasini yaratish:** qidiruv ishlarini olib borish mumkin bo‘lgan tartibga solingan arxiv yoki hujjatlar kutubxonasi. Bunday bazaga qog‘ozlar uchun papkalar, elektron tashuvchilar, tashrif qog‘ozlari, rasmiy hisobotlar, gazetadan qirqib olingan parchalar, intervyu paytida qilingan qaydlar yoki uning qog‘ozga yozilgan nusxasi va h.k. to‘planishi mumkin. Bu bazalarni muntazam ravishda ko‘rib chiqish, undagi muhim joylarni ajratib qo‘yish zarur. Shuningdek, hujjatlarni muayyan sxema bo‘yicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq. Ya’ni hujjatlarni bir tartibda raqamlash, alohida mavzular yoki asosiy so‘zlar bo‘yicha belgilash kerak.

Hujjatlarni oddiy papkalar yoki elektron shaklda alifbo tartibida ham saralash mumkin. Vaqti-vaqti bilan hujjatlarni ko‘rib chiqar ekansiz, ularni muhimlik, tezkorlik, ishonchlilik darajasi va boshqa asoslar bo‘yicha guruhlarga ajratish lozim. Bunda, har ehtimolga qarshi, ushbu hujjatlarning nusxalarini uy yoki ish kabinetidan tashqaridagi ishonchli joyga ham olib qo‘yish muhimdir.

– **Ikkinchisi – o‘z ma’lumotlar bazasini tarkiblashtirish. Bu surishtiruv matnining aniq, yaxshi o‘ylangan tuzilmasini yaratish uchun zarur.** Jurnalistning asosiy arxivi – bu o‘ziga xos universal ma’lumotlar bazasi bo‘lib, jurnalist unga deyarli barcha materiallarni yig‘ib qo‘yadi:

- ilgari surilgan va ishlangan hamda chetga chiqarib tashlangan gipotezalar;
- ishlangan va saralab olingan hujjatlar, ushbu surishtiruvga bevosita aloqasi bor OAV matnlari, qahramonlar, guvohlar va boshqa “jonli” manbalar bilan intervyular matni hamda ma’lumotnomalar, ekspert xulosalari, turli bayonnomalardan ko‘chirmalar va h.k.

## **Ma’lumotlar orasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash**

**Hujjatlarni to‘plash, kuzatib borish va o‘rganish turli ma’lumotlar orasidagi bog‘lanish zanjirlarini topish jarayonini yengillashtiradi. Jurnalistning arxivi unga quyidagilarni: materialni yakunlash uchun unga qanday ma’lumotlar kerak, asosiy gipoteza bilan bog‘liq yangi ma’lumotlar, surishtirilayotgan ishning kutilmagan tomonlarini aniqlashga yordam beradi.**

### **Yangi o‘zaro aloqalarni aniqlash jarayoniga misol**

#### **Birinchi qadam (boshlab berish):**

Alohida tashkilotlarning faoliyatini surishtirgan holda ularning xodimlari korrupsion vaziyatlarning aybdoriga aylanadi, chunki ular korrupsion sxemaning zanjiri hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bunga prokuratura organlarining ham, sud tizimining ham jinoyat ishi materiallari dalil bo‘lishi mumkin.

#### **Ikkinchi qadam (diversifikatsiya):**

Materiallar soni oshishiga qarab, ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- ayblovlar bo‘yicha ma’lumotlar;
- guvohlarning shohidliklari;
- jabrlanganlarning ko‘rsatmalari va h.k.

#### **Uchinchi qadam (fokus):**

Gumondorlarning ba’zilari haqiqatan ham qonunga zid ishlarni sodir etgani bois, ular ushbu faktni rad etayotganiga qaramasdan, korrupsiya hodisasi rasmiy darajada tan olinadi va

ushbu shaxslarga nisbatan muayyan ayblovlar ilgari surilgan, degan gipoteza yuzaga keladi. Shu bois jurnalist ikkala tomonning advokatlari bilan uchrashishi shart.

**To‘rtinchi qadam (aloqa yaqqol ko‘zga tashlanadi):**

Advokatlar bilan suhbatlar natijasida ko‘plab yangi, qimmatli axborotni olish mumkin. Bu ma’lumotlar esa dastlabki taxminlarni ulardan olingan ma’lumotlar bilan bog‘lash hamda asosiy gipotezani mustahkamlash imkonini beradi.

**Beshinchi qadam (qayta ko‘rib chiqish va qayta tasniflash):**

Mazkur ish bo‘yicha bir yerga to‘plangan material jurnalistning butun tarmoq miqyosidagi korrupsion mexanizmni aniq tasavvur qilishiga hamda mijozlar, iste’molchilar, vositachilar, tashkilot xodimlari va uning rahbariyati orasidagi aloqani aniqlashiga imkon beradi.

### Surishtiruv matnini tayyorlash

**Matnini tayyorlash – muallif yoki mualliflarning olib borilgan surishtiruv ishi natijasini bayon etish jarayonidir. Ushbu bosqichda jurnalist nafaqat badiiy matn vositalari imkoniyatlaridan foydalanishni, balki xronologiyaga va voqealarning haqqoniyligiga aniq amal qilishni ham bilishi kerak.**

Jahon surishtiruv amaliyotida matn, odatda, uni tuzishning ikkita tamoyilidan biri asosida yaratiladi:

**1. Xronologik** – bunda sujet voqealarning real xronologiyasiga muvofiq tasavvur qilinadi.

**Misol.**

*2005-yil may oyida “01.09. Beslan ishi” kitobining taqdimoti bo‘ldi. Kitobda fojia xronologiyasi va holatlarini maksimal batafsil yaratishga urinishni ko‘rish mumkin. Nemis jurnalistlari quyidagilarni aniqlaydilar: “18-avgust kuni Moskvadan, IIVdan barcha viloyat militsiya boshqarmalariga chechen jangarilari Shimoliy Osetiyada 1995-yili Basayev tomonidan Budyonnovsk kasalxonasida o‘tkazilgan operatsiyaga o‘xshash harakatni rejalashtirayotgani haqida telegramma keladi. Biroq huquqni muhofaza qilish organlari chora ko‘rmagan”<sup>52</sup>.*

*Lenta.ru internet-sayti ma’lumotlariga ko‘ra, teraktda qatnashgan terrorchilarning ko‘pchiligi federal qidiruvda bo‘lgan, ammo ularda militsiya bilan bog‘liq hech qanday muammo bo‘lmagan va ular o‘z qishloqlariga bemalol kelib-ketib yurgan.*

*Yuqorida ko‘rsatilgan nashrlar materiallarini o‘rganib, o‘sha kunlarda yuz bergan voqealarni daqiqama-daqiqa bayon etish, shuningdek, 2004-yil 1–3 - sentabr kunlari sodir etilgan terrorchilik akti – puxta rejalashtirilgan jinoiy aksiya ekani haqida xulosa chiqarsa bo‘ladi. RF Federal majlisi Parlament komissiyasining a‘zosi Erik Bugulov “Rossiyskaya gazeta” muxbiriga bergan intervyusida yuz bergan fojia sabablari haqida o‘z fikrini bildirib: “Men Beslandagi terakt – umuman, mamlakat boshqaruvidagi tizimli tanglik va Kavkazda muayyan davlat siyosati yo‘qligining oqibati ekaniga ishonchim komil. Beslandagi qo‘poruvchilik harakati, terrorchilar Shimoliy Kavkazni ichidan “portlatishga” uringan holda, mintaqadagi eng og‘riqli nuqtalarni izlayotganini isbotlaydi” dedi<sup>53</sup>.*

*Ko‘p maqolalardagi materiallarni o‘rgangan va tahlil qilgan holda, maktabni bosib olishga tayyorgarlik va uning o‘tkazilishini kuzatish mumkin. Ushbu qo‘poruvchilik harakatini tayyorlash ishlariga o‘zining shafqatsizligi bilan ma’lum bo‘lgan ayirmachilar*

<sup>52</sup> Neef Kristian. «01.09. Beslanское досье»// Der Spiegel, 2005- yil sonlari tahlami.

<sup>53</sup> Российская газета, 2005, 5 май.



*Sh.Basayev, A.Masxadov, M.X.Xashiyev va ularning gumashtalari rahbarlik qilgan. Shuningdek, unda xorijliklar, jumladan, mashhur terrorchi Tovfiq-al-Jedaniy (Abu-Zeyt) ham faol qatnashadi. 2004- yil avgustida 34 kishidan iborat qo'poruvchilar guruhi (keyinchalik 2 nafar jangari Psedax yaqinidagi lagerda qoladi) shakllantiriladi. Obyekt sifatida Shimoliy Osetiya – Alaniya Respublikasining Pravoberejniy tumanida joylashgan Beslan shahridagi 1-sonli maktab belgilanadi. Bilimlar kuniga bag'ishlangan ommaviy tantanali tadbirlar kuni aksiyani o'tkazish sanasi sifatida belgilanadi. Terrorchilik guruhi a'zolari to'planishi uchun Ingushetiya Respublikasining Malgobek tumanida joylashgan Psedax qishlog'i chekkasidagi o'rmon massivida lager tayyorlanadi. Teraktning bevosita ijro etilishiga Ingushetiya fuqarosi, "polkovnik" pozivnoyiga ega Rasul laqabli Ruslan Xuchbarov rahbarlik qiladi. Xuchbarov hujum rejasini 31-avgust kuni e'lon qiladi. Guruhni jinoyat joyiga GAZ-66 avtomashinasida yetkazishni Sokiyev o'z zimmasiga oladi. Jinoiy guruhning boshqa a'zolari, jumladan, hozir sudlanayotgan N.Kulayev ikkita guruh bilan maktab binosini to'sib qo'yishi, odamlarni garovga olishi va ularni ushlab turishi kerak edi. Jinoiy guruhning ikkita a'zosi – M.Yu.Gaburova va R.S.Katayeva – "kamikadze"lar kamarini taqib oladi. Yo'nalish militsiya postlarining joylashuvi haqidagi ma'lumotlar bilan birgalikda tekshirib chiqiladi. Jinoyatchilar 31-avgustdan 1-sentabrga o'tar kechasi Inarki qishlog'i yaqinidagi o'rmonda o'tkazadi. Ular 1- sentabr kuni ertalab yaroqsiz deb hisoblangan va bu paytda militsiya tomonidan nazorat qilinmaydigan yo'llar orqali terakt obyektiga tomon yo'l olishadi.*

#### **2004-yil 1-sentabr.**

*Soat 9 dan 5 daqiqa o'tdi. Terrorchilar ikkita GAZ-66 va VAZ avtomobilida kutilmaganda Beslan shahridagi 1-sonli maktab hovlisiga kirib boradi. Avtomat quroldan o'q otib, hovlida to'plangan odamlarni o'rab olishadi, ularni sport zali devorlari va maktab hovlisiga qaragan yo'lak derazalari tomonga siqib, maktab binosiga haydab kiritishadi. Xuchbarov maktab hovlisida ikki nafar Beslan fuqarosini – R.X.Gappoyev va F.A.Frayevni otib tashlaydi. Pravoberejniy tuman IIBning xodimi o'z tabel qurolidan jangarilardan birini otib o'ldiradi.*

*Garovga olinganlarning hammasi maktab sport zaliga jamlanadi. Jinoyatchilar harakatlarining bu qadar aniqligi ularning puxta ishlangan scenariy asosida borganini bildiradi. Terrorchilar o'zlari bilan birga, hatto, protivogazlarni ham olganlar. Ikkita jangari qozonxonada yashiringan odamlarni maktab binosiga o'tkazadi. Keyinchalik halok bo'lgan qozonxona operatori I.Karlovning fidokorligi tufayli 20 nafar maktab o'quvchisi va xodimi qozonxona devoridagi teshik orqali ozodlikka chiqadi. Ichki ishlar organlarining xodimlari qochayotganlarning xavfsizligini ta'minlaydi, tibbiy yordam ko'rsatadi, so'rov o'tkazadi.*

*Soat 9 dan 25 daqiqa o'tdi. Garovga olinganlarning hammasi sport zalida. Odamlar bir-biriga tiqilib va qo'llarini yuqoriga ko'targan holda o'tiribdi. Tiqilinch sababli, ko'pchilik hushidan ketadi. Bolalarning ko'zi o'ngida Beslan fuqarosi R.R.Betrozov avtomatdan otib o'ldiriladi. Uning jasadini butun zal orqali sudrab o'tishadi. Bu orada yana bir garovga olingan kishi – E.D.Xudalov o'ldiriladi. O'lim tahdidi ostida barcha mobil telefonlar va videokameralar olib qo'yiladi.*

*Terrorchilar sport zali va kirish eshiklarini barrikadalaydi. Bolalar jonli to'siq vazifasini bajaradi. Zal minalashtiriladi. Basketbol halqalariga portlovchi qurilmalar osiladi. Garovga olinganlarga minalashtirishga yordam berish buyuriladi. Minalashtirish jarayoni bir yarim-ikki soat davom etadi va videokameraga olinadi. Aloqa faqat 16.00–16.30 da o'rnatiladi – o'zgargan telefon raqami yozilgan kichkina xatni takroran o'sha Mamitova orqali beriladi. Shimoliy Osetiya – Alaniya Respublikasi FXXBning mas'ul xodimi bo'lgan professional muzokarachi ushbu raqam orqali terrorchilar bilan aloqaga chiqadi.*

*Aloqaga chiqqan jangari o'zini "shahid" deb ataydi va 10 nafar garovga olingan kishini otib tashlagani va yana 20 nafarini sinf xonalaridan birida portlatib yuborganini*

aytadi. Oldin berilgan telefon raqami orqali hech kim bog'lanmagani uchun shunday qilganini ma'lum qiladi. Terrorchilar Dzasoxov, Zyazikov (davlat arboblari–muall.) va Roshal (taniqli vrach–muall.) bilan bir paytda muzokaralar olib borishini, sport zali minalashtirilgani va hujum boshlangan taqdirda u portlatib yuborilishini bildiradi.

Maktabdagi birinchi portlashlar haqiqatan ham ushbu aloqadan oldin soat 15.00–15.30larda eshitilgandi. Guvohlarning shohidlik berishicha, portlashlardan oldin yo'lakda sport zali yonida tiz cho'kib turgan garovga olinganlardan iborat "jonli to'siq" fonida terrorchi-ayollardan birining jangari bilan keskin ohangdagi suhbat yuz beradi. Keyin portlash eshitiladi. Shafqatsizlikni namoyish etish operativ shtab vakillari bilan aloqa o'rnatilganidan keyin ham davom etadi – maktab atrofidagi hudud tartibsiz ravishda o'qqa tutiladi.

Kunning ikkinchi yarmida yana olti nafar garovga olingan kishi qochadi. Ulardan olingan ma'lumotlar bo'yicha maktabdagi vaziyatga oydinlik kiritiladi: garovga olinganlarning ko'pchiligi sport zalida, bolalar va kattalar o'tirgan joy minalashtirilgan. Portlatish buyrug'i terrorchilar o'z ishida nazoratni yo'qotgan paytda avtomat tarzda beriladi. Zanjirni uzuvchi terrorchilarning o'limi o'rnatilgan barcha qurilmalarning portlashiga olib kelgan bo'lardi. Garovga olinganlarga ovqat va suv berish rad etiladi, ularni otib tashlashadi. Kuch ishlatish garovga olinganlarning ko'pi qurbon bo'lishiga olib kelardi.

Kuch ishlatuvchi tizimlar vakillari va respublika rahbarlari garovga olinganlarni pul evaziga ozod etish variantlarini muhokama qiladi: terrorchilarga Checheniston va Ingushetiya hududiga bemaol chiqib ketish uchun o'nta "Ikarus" avtobusi taklif etiladi. Garovga olinganlarni 2004- yili Ingushetiya qurolli hujum qilgan va hibsga olingan jangarilarga almashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Garovga olinganlarning ro'yxatiga aniqlik kiritiladi. 1-sentabr kuni soat 16.30 da tuman IIBning ma'ruzasiga ko'ra, garovga olinganlarning soni – 700 kishi, soat 16.30 da garovdan qochgan A.Sh.Kudzayev maktabda mingdan ziyod garovga olingan kishi borligini ma'lum qiladi.

#### **2004- yil 2-sentabr.**

Soat 00.15 – garovga olinganlar ro'yxatida 11:00 ga yaqin kishi bor. Terrorchilar doktor Roshal bilan aloqaga chiqadi. Suhbat soat 3 gacha raqami aniqlanmagan mobil telefon orqali davom etadi. Shundan so'ng aloqa uziladi. Roshal va Federal xavfsizlik xizmati (FXX)ning "muzokarachisi" bilan suhbatlarda terrorchilar yana muzokaralarda bir paytning o'zida Dzasoxov, Zyazikov, Roshal hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maslahatchisi Aslaxanov qatnashishini talab qiladi. Maktabga bir paytning o'zida bu shaxslarning kelishi ularning jismoniy yo'q qilinishi xavfi tufayli rad etiladi.

"Kunning ikkinchi yarmida muzokaralarga A.Asloxanov va R.Aushev qo'shiladi. Soat 16.00 da Operativ shtab rahbari general-mayor V.Andreyev va Shimoliy Osetiya – Alaniya Respublikasining ichki ishlar vaziri K.Dzantiyev voqea joyiga yetib kelgan R.Aushevni maktabga kuzatib qo'yadi. U maktabga 16.13 da kiradi. Terrorchilar unga 16-kabinet derazasidan garovdagi o'ldirilgan erkaklarning jasadlarini ko'rsatadi. Aushev Xuchbarov bilan muzokaralarni ikkinchi qavatdagi o'qituvchilar xonasida olib boradi. Ushbu muzokaralar chog'ida u maktab direktori L.Saliyeva bilan qisqa suhbatlashadi. Xuchbarov Aushevga Basayev nomidan Rossiya Prezidenti nomiga shaxsiy imzosi qo'yilmagan va Chechenistonga to'liq mustaqillikni taqdim etgan holda, u yerdan qo'shinlarni olib chiqish talabi bildirilgan kichkina maktubni beradi.

Terrorchilar emizikli bolasi bor onalarni qo'yib yuborishga va jasadlarni Rossiya FVVning to'rtta xodimi olib chiqishi sharti bilan, garovdagi o'ldirilgan erkaklarning jasadlarini berishga rozi bo'ladi. Aushev bilan muzokaralar natijalari bo'yicha emizikli bolasi bor 26 nafar garovdagi ayol ozod etiladi. Aushevni maktabdan chiqarib qo'yar ekan, Xuchbarov xayrlashuv oldidan "Bu yerdan boshqa hech kim chiqmaydi" deydi.

### **2004-yil 3-sentabr.**

*Soat 13.05–13.10. Sport zalida birin-ketin ikkita portlash eshutiladi. Terrorchilar zudlik bilan qutqaruvchilarga qarshi o‘t ochadi. Qutqaruvchilar guruhining rahbari Dmitriy Ivanovich Kormilin halok bo‘ladi. Qolgan uchtasi yaralanadi. Keyinchalik ulardan biri Valeriy Valentinovich Zamarayev ham vafot etadi.*

*O‘zi yura oladigan garovdagi kishilar sport zalidan yugurib chiqqa boshlaydi. Zal eshiklari yonida terrorchi V.Xodov va bir nechta jangari paydo bo‘ladi. Xodov tirik qolgan garovdagi kishilarga birinchi qavatdagi oshxona tomonga – yo‘lakning oxiriga yurishni buyuradi. Garovdagilarning bir qismi maktabning sharqiy qismiga, oshxonaga o‘tadi, boshqa qismi esa jismoniy tarbiya o‘qituvchisi I.X.Kanidining sport zalidan chiqish joyi yonidagi tor xonasiga kirib qoladi. Kanidi jangarilardan birining qo‘lidan avtomatni tortib olishga urinadi. Biroq jangari 74 yoshli o‘qituvchini pistoletdan to‘rtta o‘q otib o‘ldiradi. Garovga olinganlar orasida vahima boshlanadi. Ular maktab binosidan yugurib chiqqa boshlaydi. Terrorchilar ularni nishonga olib, o‘qqa tutadi.*

*Ushbu besh daqiqa voqealarning keyingi rivojida hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Bunday holatda soat 13.10 da Operativ shtab rahbari V.A.Andreyev Rossiya FXX Maxsus xizmat markazining tezkor-harbiy bo‘linmasiga garovdagilarni qutqarish va jinoyatchilarni yo‘q qilish bo‘yicha jangovor amaliyotni o‘tkazish haqida buyruq beradi.*

*Snayperlar, razvedka va kuzatuv guruhi garovdagilarning tartibsiz qochishini to‘shish uchun terrorchilarning jangovar nuqtalarini nishonga olgan holda, javob o‘tini ochadi. Maktabni qurshab olganlarga halqadan chiqib ketishga uringan terrorchilarni yo‘q qilish buyrug‘i beriladi. Operativ shtab garovga olinganlarni evakuatsiya qilish, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish va so‘roq qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi. Yaradorlar va sobiq garovdagilarni boshqa joyga ko‘chirish uchun avtomashinalarning uzluksiz harakati tashkil etiladi. Terrorchilar ko‘chani o‘qqa tutadi. Militsionerlar yuqoriga qarata o‘q otgan holda, otishmani o‘ziga qaratadilar.*

*Evakuatsiya ishlari Beslan aholisining faol ishtirokida amalga oshiriladi. Yaradorlarni olib chiqish uchun militsiya xodimlaridan iborat guruh tuziladi. Jabrlanganlar Beslan shahridagi dala-pediatriya gospitali va Munitsipal markaziy tuman klinik kasalxonasiga yetkaziladi.*

*Garovdagilarni maktabdan xavfsiz zonaga va qurshovdan tashqariga chiqarish yo‘laklari yaratiladi. Ushbu yo‘laklar orqali maktabga mahalliy aholining bir qismi o‘ta boshlaydi. Garovdagilarni olib o‘tishni nazorat qilish uchun tuman IIB va alohida xizmat bo‘yicha militsiya otryadlarining zobitlaridan iborat to‘rtta filtratsiya guruhi ishga tushiriladi.*

*Soat 14.10. – 14.35. Sport zalining tomi yona boshlaydi. Terrorchilar otishmani davom ettiradi. O‘t o‘chiruvchilar yong‘in o‘choqlarini o‘chirishga kirishadi. Sport zali tomi qulab tushadi. Maxsus xizmat markazi (MXM)ning operativ-harbiy guruhi maktabdan chiqayotgan garovdagilar orasida yashirinishga uringan N.N.Kulayevni qo‘lga oladi.*

*Soat 15.00. Sport zalidagi garovga olingan kishilarni evakuatsiya qilish ishlari asosan yakunlangan. MXM boshlig‘i maktab binosiga kirish, terrorchilarni yo‘q qilish va garovda qolgan kishilarni ozod etishga buyruq beradi. Bir vaqtning o‘zida maktab hududida o‘t o‘chirish ishlari olib boriladi.*

*Soat 19.00 dan keyin. Termobarik aslahali piyodalar reaktiv ognemyotlaridan (RPO-A) tomdagi jangarilarga qarata o‘t ochadi.*

*Aytish joizki, fojidan so‘ng uch yildan keyin ham ushbu ish bilan bog‘liq ko‘p ishlar sir bo‘lib qolmoqda. Oxirgi paytlarda esa mazkur fojia ko‘lami bo‘yicha yangi tafsilotlar tez-tez yuzaga chiqqa boshladi. Beslandagi qo‘poruvchilik harakati bo‘yicha tergov materiallari orasida “Novaya gazeta”ning muxbiri Y.Milashinaning maqolasi diqqatga sazovor. Unda*

*respublika prokuraturasining vakolatli xodimi videotasmaga olgan Beslandagi 1-sonli maktabni minalardan tozalashda qatnashgan sapyorlarni so'roq qilish rasshifrovkalari e'lon qilingan*"<sup>54</sup>.

*O'tkazilgan jurnalist surishtiruvi yakunlari bo'yicha quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin.*

*Asosiy xulosalardan biri shundan iboratki, agar huquqni muhofaza qilish organlari telegrammaga e'tiborsiz bo'lmaganida, bunday miqyosdagi fojining oldi olingan bo'lardi. Qo'poruvchilik harakati amalga oshirilayotgan paytda garovdagilarni ozod etish bo'yicha puxta o'ylangan reja bo'lmagani ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Maxsus xizmatlar (IIV va FXX)ga bosqinchilar tomonidan siyosiy yoki g'arazli xarakterdagi talablar ilgari surilgan taqdirdagina nima qilish lozimligi to'g'risida aniq ko'rsatmalar berilgan. Ammo beslanlik terrorchilar hech qanday talabni ilgari surmagan. Bunday holatda ozod etuvchilar garovdagilarni ozod etish amaliyoti qanday o'tkazilishi kerakligini aniq bilmagan, degan xulosa kelib chiqadi.*

**2. Dramaturgiya tamoyili.** Dramaturgiya tamoyiliga qurilgan asar sujeti muallifning voqealar dinamikasini ijodiy anglashiga asoslanadi. Bunda material asosan detektiv shaklida taqdim etiladi, ya'ni voqealar kutilmagan rakurslarda rivojlanadi.

Misol uchun, "Комсомольская правда" nashrining 2000-yil 13-iyun sonida kasbni o'zgartirish usulidan foydalangan holda, "Qanday qilib qabul komissiyasida kotib bo'lib ishlaganim haqida" deb nomlanuvchi surishtiruv materiali chop etilgan. Maqola uch yildan beri bitta fakultetga o'qishga topshirayotgan va o'tish balini to'play olmayotgan abituriyent portretidan boshlangan. Bunday sujet "ilmog'i" darrov o'quvchining e'tiborini tortadi va u OO'Yu qabul komissiyasining ishidagi eng qiziq daqiqalar bayon qilingan ushbu material davomida saqlanib qoladi. Materialda "a'lochi"larning fe'l-atvorlariga atroflicha chizgilar ham, xodimlarning xatti-harakatlarini baholash ham, muallifning shunchaki "jonli" kuzatuvlari ham bor.

Shunday materiallar sirasiga G.Zotovning "Xitoy "mo'jizalari" siri"<sup>55</sup> turkumidagi surishtiruvini ham kiritish mumkin. Masalan, ushbu turkumning 3-qismida muallif bevosita kuzatuv usulidan foydalangan holda "xitoy fenomeni"ning tabiatini yaxshiroq o'rganganini bildirib, zamonaviy Xitoydagi iqtisodiy gullab-yashnash sirini anglagani xususida: "... hayot qaynayotgan Shanxay ko'chalarida – Versache sumkalari, "Nayk" sport kiyimlari va "Panasonic" televizorlari bilan savdo qilayotgan do'konlar. Bularning hammasi – oddiy ustaxonalarda ajoyib tarzda tayyorlangan qalbaki mahsulotlar. Ushbu mahsulotlar shopping-markazlarda ham bemalol sotilyapti: Xitoydagi kabi bunchalik ko'p qalbaki mahsulotlarni hech qayerda ko'rmaganman" deydi.

Dramaturgik yondashuv "Borgan sari tezroq va qulayroq"<sup>56</sup> maqolasiga ham xos. Tanlangan obyektни tadqiq qilish va "... poytaxtdagi shahar transporti muammosini o'z zimda his qilish uchun... tahririyat guvohnomasini uyda qoldirdim va ikki kun faol yo'lovchiga aylandim". U jamoat transportining "barcha ajoyibotlar"ini o'zida his qilib ko'rish uchun shaxsan o'zi yo'lovchi transporti harakatining ishtirokchisiga aylanadi: "Men traktor zavodigacha shubhali huzur bilan yetib olgan 6- va 13-yo'nalishlar ancha vaqtimni olib va asablarimni azobladi. Elektr energiyasi yo'qligi tufayli ikki marta 30 daqiqadan turdik. Biroq, kontakt simiga elektr kelishi bilan tramvay haydovchisiga eski elektr dvigatellaridan go'yoki bor kuchni tortib olayotganday tuyulardi. Tramvaylar zirillagan va chayqalgan holda, shunday tezlikda harakatlanardiki, xuddi ular hozir relslardan chiqib ketayotganday edi. Ammo oxiri baxayr bo'ldi".

<sup>54</sup> Новая газета, 2007, 30 июль, № 57.

<sup>55</sup> Аргументы и факты Узбекистан, 2006, № 26.

<sup>56</sup> Правда Востока, 2006, № 119–120.

Umuman olganda, yashirin kuzatuv usuli dramaturgik sujetni rivojlantirishda boshlang'ich nuqtadir. Aytganday, u mashhur olmon surishtiruvchi-jurnalisti Gyunter Valraffning sevimli usullaridan biri bo'lgan. Valraff ushbu usulni ilk bor 1974-yilda olib kiradi. Shvetsiyaning GFRdagi bosh konsuli Gerlingga tegishli sug'urta konserni surishtiruvchining ana shunday kuzatuv obyektiga aylanadi. Tashqi ko'rinishini o'zgartirgan jurnalist xolis axborot olish maqsadida korxonaga o'rnashib oladi. Birinchi tajriba muvaffaqiyat bilan o'tadi va surishtiruvchi ushbu korxonada joriy etilgan yashirin tartiblar haqida Shvetsiya va Germaniya televideniyesida hikoya qilib beradi. Keyinchalik jurnalist ushbu konsern haqidagi materialni o'zining "Siz u yerda – yuqorida, biz bu yerda – pastda" nomli kitobiga ham kiritadi. Ushbu voqeadan keyin Valraffni axborotni noqonuniy yo'l bilan olganligida ayblay boshlashadi. Jurnalistning o'zi ham usullarini oqlamaydi. Ular zarurat tufayli ekanligini ta'kidlab, ba'zi odamlarda yolg'on tasavvur hosil qilgan holda, ushbu yolg'ondan yuzlab va minglab kishilar jabr chekishining oldini olayotganini hisobga olishni so'raydi<sup>57</sup>.

Matnni bayon etish tamoyilini tanlash materialning o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda, amalga oshirilishi kerak. Har bir variant muayyan afzalliklarga ega. Jurnalist surishtiruvda dramaturgik yondashuv tarkibi xronologiya usuli foydalanganidan ko'ra osonroq kechadi hamda muayyan vaziyatning ta'sir miqyosi va darajasini belgilash imkonini beradi. Biroq xronologiya usuli vaziyatning ildizlarini aniqlash imkoniyatlari jihatidan dramatik yondashuvdan ustun turadi.

### **Xronologiyani shakllantiramiz va o'zgartiramiz**

**Arastuning "Poetika"sida har qanday hikoya boshi, o'rtasi va yakuni bo'lishi qayd qilinadi. Buni bilish juda foydali. Ammo u jurnalist hikoyasining asosiy muammolarini hal etmaydi.**

Chunki jurnalist, birinchidan, ko'pincha surishtirilayotgan mavzu nima bilan yakunlanishini bilmaydi. Hatto, matnni yozishga tayyor bo'lganida ham o'zi o'rgangan muammo qanday yakunlanishini bilmaydi. Masalan, jurnalist qotilni izlab topdi. Biroq uni panjara ortiga jo'natish-jo'natmaslikni jurnalist hal etmaydi. Surishtiruvchi hozir dolzarb va qiziqarli voqea to'g'risidagi materialni kutayotgan omma uchun ishlaydi. Shuning uchun, surishtiruvchi hikoya qilar ekan, muallif ko'p hollarda gapni hozirgi paytdan boshlaydi. Keyin esa voqealar qanday rivojlanganini ko'rsatadi. So'ngra yana voqealar rivojini hozir bilan bog'laydi (o'quvchi materialning mohiyatini anglashi uchun). Shundan keyin kelgusida nima bo'lishini (yechimning kelajakdagi ehtimoliy variantlarini) aytadi.

**Bunday tarkib – hozir, o'tmish, kelajak – uchta asosiy savol bilan bog'lanadi. Ya'ni, har qanday o'quvchi yoki tomoshabin jurnalistdan hozir, o'tmish va kelajak bilan bevosita bog'liq quyidagi savollarga javobni talab etadi:**

- Bu mavzu nega meni tashvishga solishi kerak?
- Bu voqea qanday yuz berdi?
- U nima bilan va qanday yakunlanadi?

Jurnalistikada batafsil, kengaytirilgan tadqiqotlar uchun qo'llanadigan ushbu hikoya tarkibidan keng foydalaniladi. Uning samaradorligi ko'rsatkichi har qanday holatda ham jurnalistlarni unga amal qilishga majbur etmasligi kerak. Aslida xronologiya tamoyili shunday ta'sir kuchiga egaki, agar u mos ravishda qo'llansa, uni har qanday zarur yo'nalishga o'zgartirish mumkin.

---

<sup>57</sup> Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С. 111.

## **Hikoya dramaturgiyasi: qoya va uning tatbiqi**

Dramaturgiya tamoyili amaliy jihatdan har doim hikoya dinamikasini saqlash va auditoriya diqqatini ushlab turishga qaratiladi. Shuning uchun ham matnni shunday boshlash kerakki, u o'quvchining diqqatini darhol o'ziga qaratsin. Masalan, hikoya jurnalistning o'zi his qilgan eng kuchli sahnadan boshlansin. Bu ayni paytda azob-uqubat chekayotgan inson haqidagi hikoya bo'lishi mumkin. Bu hammasi bir lahzada butunlay o'zgargan o'tmishdagi bir vaqt bo'lishi mumkin. Bu biz tomonga yaqinlashayotgan toqat qilib bo'lmaydigan kelajak tavsifi bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham, u o'quvchini "*Bu qanday yuz berdi?*" degan savolni berishga undashi lozim.

Lekin auditoriyani o'tmishga sayohat va yana ortga qaytishlar bilan qiynamaslik kerak. Agar jurnalist o'quvchini o'tmishga yetaklasa, demak, u o'sha yerda biroz vaqtga qolishi va nimalar yuz berganini ochiq tushuntirishi va shundan keyingina hozirga qaytishi zarur.

## **Surishtiruv matnini tayyorlashning kompozitsion usullari**

Surishtiruv matnini tuzishda ichki arxitektonikaga, ichki proporsiyalarga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Odatda, bularning barchasi "kompozitsiya usullar"i deyiladi. Ular unchalik ko'p emas.

### **1. "Eng muhim" abzas**

Materialning muvaffaqiyati asosan bosh, eng muhim abzasga bog'liqdir. Chunki unda materialning mohiyati, "o'zagi" yoki asosiy g'oyasi (kengroq olganda esa – biz unga murojaat qilishimizning sababi) ma'lum qilinadi. Agar gipoteza bayon etilib, tekshirilgan bo'lsa, ko'p hollarda u shunday "o'zak" vazifasini o'taydi. Agar bunday abzas bo'lmasa, o'quvchilar muallif ularni qayerga va nima uchun olib borayotganini tushunmaydi.

Mana, 2001-yil 15-mart sonida chop etilgan "Komsomolka" muxbiri yo'llardagi muzni urib sindirishga otlandi" materialidan olingan "eng muhim abzas"ga namuna: "Seshanba kuni ertalab radio orqali Vladivostok ma'muriyati rahbarining yo'llar muzlab qolishiga nafaqat ertalab, balki kun bo'yi muz yorishi kerak bo'lgan ko'cha farroshlari aybdorligi haqidagi so'zlarini eshitib, muxbirimizning ko'cha ishchilariga rahmi keldi va 700 rubl maosh uchun kun davomida muz yorish nimaligini o'zida sinab ko'rishga qaror qildi".

Eng muhim abzasni uchta qisqa gapga jamlash zarur. Agar hajm oshib ketsa, jurnalistning o'zi ham hikoyaning mohiyatini tushunmay qoladi.

### **2. Personifikatsiya**

Ushbu usul vaziyatni muayyan personaj orqali personifikatsiyalashdan iborat. Ushbu usul jurnalistikada tez-tez qo'llanadi. Chunki ayni usul sujetning asosiy ma'nosini yoritish vositasidir. Ushbu usulning varianti voqea joyini tavsiflashdir. Bu kinematografik usuldir. Ya'ni, muhitni ma'lum qilish orqali voqeaning mohiyatigacha yetib borish mumkin. Agar siz personifikatsiyani qo'llasangiz, quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- Tanlangan misol haqiqatan ham mavzuga mos kelishi kerak.
- Har bir misolni bir marta qo'llash.

### **3. O'zingizni emas, qahramonlarni ko'rsating**

Materialni yozish yoki suratga olish jarayonida ba'zida jurnalistlar to'g'ri yoki ko'chma ma'noda oldinga qadam tashlaydi. Natijada, o'quvchi yoki tomoshabin hayotiy

kolliziyalar, muammoli vaziyatlar va hatto fojiaiy lahzalar guvohiga aylanish o'rniga, e'tiborini jurnalistning o'ziga qaratadi. Bunday holatlarda jurnalist fojia tafsilotlarini ko'rsatishdan qochadi va, go'yoki, uni o'zi orqali o'tkazadi. Biroq bunday usul qo'llanganda tomoshabin yoki o'quvchi real voqelikni emas, balki reportyorni ko'radi. Shu bois bunday vaziyatda o'zini emas, balki yoritilayotgan voqealar markazidagi odamlarni ko'rsatish zarur.

#### **4. Manbalarga so'z berish**

Eng yaxshi usul – hikoyaga manbalarning so'zlarini xuddi jurnalist ularni qayd etganday qilib qo'shish va bu bilan voqeaning oldinga “harakatlanishiga” qo'yib berish.

##### ***Misol.***

*Biznes sohasidagi korrupsiyaga bag'ishlangan “Tadbirkorga «krisha» kerakmi?” materialida (Hurriyat, 2003-yil, 22-oktabr) muallif hikoya davomida bir necha marta o'z qahramonlariga – jonli manbalarga so'z beradi. Ular jurnalistga Navoiy viloyatidagi ro'yxatga oluvchi organlar vakillariga pora berishga majbur etishgani haqida ochiq-oydin gapirib beradi.*

#### **Matnni tahrir qilish**

Tahrir qilish surishtiruv matnini tayyorlash jarayonidagi keyingi bosqichdir. Matnni tahrir qilish materialni tomoshabin yoki o'quvchi to'laqonli va ko'p qirrali qabul qilinishini ta'minlash maqsadida uning sifatini yaxshilash san'atidir. Buning uchun muharrir materialni mukammal darajada tahrir qila olishi lozim. Shuning uchun ham tahrir qilish jarayonida matnni modellashtirish ko'nikmalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Tahrir qilish mezonlari**

Tahrir qilish ishlarida materialni oydin va bir maromli qilish asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Ushbu mezonlarni asos qilib olish matnda mazkur sifatlar namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Tahrir qilingan material ikki asosiy mezonga to'g'ri kelishi lozim:

– U yaxlitmi? Ya'ni, barcha detallar bit-biri bilan bog'langanmi? Dalillarni taqdim etish jarayonida yuzaga kelgan barcha ziddiyatlar hal etildimi?

– U yakunlanganmi? Materialdagi barcha savollarga javoblar berildimi? Unda taqdim etilgan har bir faktning manbalari keltirilganmi? Harakat bormi? Agar voqea sekinlashsa yoki o'zini o'zi takrorlasa, unda retsiyentni yo'qotish mumkin.

Ushbu mezonlarga amal qilingan-qilinmaganiga ishonch hosil qilishning eng yaxshi usuli – matnda tushunarsiz o'rinlar bor-yo'qligini tekshirishdir. Quyidagilar matnni bunday jihatlardan xoli, matndan yo'q qilishning eng keng tarqalgan usullaridir:

– matn barchaga birday tushunarli bo'lishi, faqat mutaxassislar tushunadigan o'rinlar iloji boricha kamaytirilishi lozim;

– haddan tashqari uzun gaplarni bir nechta qismga ajratish zarur. Esingizda bo'lsin: haddan tashqari ko'p gap ham haddan tashqari uzun gaplar kabi matnga qiziqishni susaytirishi mumkin;

– abzaslar juda uzun bo'lmasligi kerak. Ishtirok etuvchi shaxs, voqea joyi yoki g'oya o'zrganida, hikoyani yangi xatboshidan davom ettirgan ma'qul.

## **Tahrir hikoya dinamikasini ta'minlashi lozim**

Sifatli tahrir – bir maromlik, izchillik va hikoya dinamikasining garovidir. Tomoshabin yoki o'quvchi matnga, voqealar rivojiga qiziqishi zarur. Bunga nafaqat butun matn tarkibini to'liq o'zgartirish, balki materialning muammoli qismlari ustida ishlash orqali ham erishish mumkin.

### ***Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:***

– matnning faqat zarur joyini qayta yozish. Bu matnning alohida qismlarini qayta tizimlash va qayta tarkiblash zarurligini bildiradi;

– so'z borayotgan eng muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish, hikoyani esa ularning atrofida tuzish va qolganlarini chetga chiqarish;

– odatda, muammoli joyni tahrir qilishning eng yaxshi usuli, agar u muallifni qoniqtirmayotgan bo'lsa, kesib tashlashdir. Xemingueyning “Bong kimni yo'qlaydi” romanida u 60 martadan ko'proq qayta yozgan joy bor. Lekin baribir u ko'ngildagiday chiqmagan. Agar Xemingueyday ulug' adib buni qilolmagan bo'lsa, zamonaviy jurnalist uchun ham bu oson ish emas;

– matndagi tushunish qiyin o'rinlarni bartaraf etish. Agar matndagi u yoki bu joyni tushunishning iloji bo'lmasa, ularni olib tashlagan ma'qul. Chunki bu siz istagan samarani bermaydi;

– materialning hajmini aniq bilish. Buning uchun jurnalist o'z matnini qisqartirishni bilishi kerak;

– materiallar turkumini yaratish. Agar mavzu bitta katta material hajmiga sig'masa, uni parchalarga bo'lish hamda turkumlar va sikllar ko'rinishida chop etish maqsadga muvofiq. Shunda, ularni reklama qilish ham osonroq va samaraliroq bo'ladi. Chunki har bir qismning paydo bo'lishi butun turkumga e'tiborni oshiradi. Bundan tashqari, OAV kanali maqolalar turkumini yaxlit ko'rinishda qayta chop etishi mumkin;

– barcha OAV imkoniyatlaridan foydalanish. Balki materialni turli OAV kanallarida chop etish katta samara berar. Balki gazetada uning faqat qisqa talqini uchun joy topilar. Bunday paytda o'z ishining turli talqinlariga bo'lgan huquqlarni saqlab qolish va uni iloji boricha turli OAVda tarqatish muhim ahamiyatga ega.



## Xotima

Hikoya qilish san'ati ta'sirchan xotimani ham taqozo etadi. Biroq hikoya qilish san'ati va yakun o'rtasida muayyan farq bor. Xotima hikoyaning barcha sirlarini oshkor etadi. Yakun esa hikoyani uzib qo'yishi ham, agar ushbu materialda mavzu oxirigacha ochilmagan bo'lsa, uning keyingi rivojiga turtki berishi ham mumkin. Masalan, Alber Londr (Albert Londres)ning Gayanadagi fransuz axloq-tuzatish koloniyasi to'g'risidagi ajoyib materiali *"Men tugatdim. Hukumat boshlashi kerak"* so'zlari bilan yakunlanadi.

O'z talqinini bayon etish uchun o'quvchiga nima qilinishi kerakligini ma'lum qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun xuddi shunday masalalarni hal qilgan kishilarni eslatish va ayni paytda muammoni hal etish uchun mas'ul bo'lganlarga ishora qilish mumkin. Bunda ko'pincha hayoti yoritilayotgan mavzuga bevosita bog'liq manbaga, insonga so'nggi so'zini aytish imkoniyatini berish eng samarali usuldir.

Boshqa usul – bu surishtiruvni olib borish jarayonida xotima sifatida ko'rsatish mumkin jihatlarni oldindan ajratib qo'yishdir. Jurnalistlar Fransiyada zararlangan qon haqidagi mojaroli surishtiruv jarayonida duch kelgan bir misolni keltiramiz:

*«Shifokorlar hammamizdan yaxshiroq bo'lishi kerakmi? Nima uchun ayb, masalan, mana bunga qo'yilyapti? Sud jarayoni davomida undan nega ishdan bo'shash haqida ariza bermagani va sodir bo'layotgan voqealarni oshkor etmaganini so'rashganida, u "Mening bolalarim bor, ularni boqishim kerak", degan javobni beradi. Sud zalida esa uning ortida o'z farzandlaridan ajralgan odamlar turardi. Ularning o'g'illari mana shunga o'xshash odamlar va umuman, biz, ehtimol, nomlarini hech qachon bilmaydigan boshqa kishilar xoinlik qilgani uchun hayotdan ko'z yumgan"».*

Bunday gaplarni jurnalistning o'zi yoki uning qahramoni aytishidan qat'iy nazar, materialda haqiqat yakuniy so'zga aylanishi juda muhimdir.

## 7-bob. MATERIALNING SIFATIGA BAHO BERISH

**Shunday qilib, mavzu surishtirilgan, material tashkil etilgan va yozilgan. Endi esa ish ommaning e'tiboriga taqdim etilishidan oldin u sifatli bajarilganiga ishonch hosil qilish lozim. Sifatni baholash yoki, kasbiy til bilan aytganda, "faktlarni tekshirish" kerak. Bu o'zi nima? Sifatni baholash jarayoni quyidagi to'rtta asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:**

– **Birinchi**dan, haqiqatan ham har bir alohida faktga, haqiqatdan real voqea bayon etilganiga ishonch hosil qilish zarur. Faktlarning barchasi ijtimoiy ahamiyatga ega haqiqatni yoritishi kerak. Agar faktlarning muqobil talqini mualliflik bayonidan ko'ra ko'proq ma'noga ega bo'lsa, demak, bu yerda bir gap bor.

– Keyin jurnalist materialda qayd etilgan har bir faktning manbasi yoki manbalari borligini tasdiqlashi zarur.

– Manbalarni tekshirish jarayonida faktlarni bayon etishdagi xatolarni izlab topish va tuzatish lozim.

– Ishdagi emotsional to'siqlarni – muallif charchagan, umidsizlikka tushgan yoki qo'rquv holatida yozgan asossiz haqoratlar, matndagi tajovuzkor yoki dushmanona jihatlarni bartaraf etish lozim.

Xatolardan qochib bo'lmaydi. Ba'zan bu oddiy parishonxotirlik, shoshilish yoki hovliqish natijasida paydo bo'ladi. Har qanday sharoitda ham bu muammo keltirib chiqardi. Aqlli odamlar muammolarni bartaraf etadi, diletantlar esa ularni hech kim sezmasligiga umid qiladi. Ularga e'tibor qaratadigan odam hamisha, topiladi. Agar ular o'z vaqtida tuzatilmasa, tahririyatga raddiyalar tusha boshlashi ehtimoli katta. Bunday voqealar bo'lmasligi uchun quyidagilarni bajarish maqsadga muvofiq:

– umumiy manzaraga ega bo'lish uchun butun materialni ko'rib chiqish;

– hammasi aytilganmi-yo'qmi, taxminlarga asoslanish mumkinmi yoki yetishmayotgan narsani aniqlash;

– hamma faktlarni satrma-satr ko'rib chiqish, ularni hujjatlar manbalari orqali qayta tekshirish;

– shundan keyin ham yana materialni bir marta qayta o'qib chiqish lozim. Agar barcha shubhalar va savollarga to'liq javob topilgan bo'lsa, unda materialni kotibiyatga topshirish mumkin.

### **Matnning axloqiy tomonlariga baho berish**

**Shubhasiz, surishtiruv matnida muayyan jarayonlar yoki qahramonlarning xatti-harakatlariga muallif subyektiv yondashgan o'rinlar uchraydi. Masalan, jurnalist kinoya qilishi yoki obyektlarining ustidan kulishi mumkin.**

Bunday holatda maqola qahramonlari o'zlariga yetkazilgan ma'naviy va hatto, moddiy zarar to'g'risida sudga murojaat qilishi mumkin. Shuning uchun jurnalistlar juda va juda ehtiyot bo'lishlari kerak. Agar surishtiruv biror kimsaga qarshi jiddiy ayblovlar olib kelsa, bunga aslo shaxsiy baholarni (haqoratlarini) qo'shish kerak emas. Bu yuz bermasligi ham mumkin deb o'ylab, soddalik qilmang. Bu har qanday kishi bilan sodir bo'lishi mumkin. Shu bois matnda ushbu xavfni keltirib chiqaradigan belgilarga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Matndagi barcha faktlar tegishli axloqiy me'yorlarni hisobga olgan holda, bayon etilishini nazorat qilish lozim.

## Obyekt javob berish huquqiga ega

Matnda hikoya qahramonlarini muallif keltirgan dalillarga javob berish imkoniyatidan mahrum etmaslik kerak. Balki u beradigan izohlar bema'niy tuyular. Shunday bo'lsin ham. Balki ularga hech qanday izoh berilmas. Ammo mana shuning o'zi tanbeh berish uchun asos bo'la olishga ishora qilmagan holda, ular javob bermaslikka qaror qilganini auditoriyaga ma'lum qilish muhimdir. Har qanday kishi jurnalist bilan suhbatlashishni rad etish huquqiga ega va bu aybdorlik belgisi hisoblanmaydi (aksincha, jurnalist bilan suhbatlashish istagini bildirgan kishi haqiqatan ham, halol va samimiy ekanligini ham ko'rsatmaydi). Jurnalistning surishtiruv jarayonida, hech nimaga qaramasdan, hatto dushman manbalar yoki obyektlar bilan aloqaga kirishishi juda muhimdir. Jurnalist xavf ostida qolishi mumkinligiga asosi bor holatlar esa bundan mustasno. Bunday strategiyaning eng muhim jihati shundaki, ko'p hollarda obyekt o'z nuqtai nazarini tushuntira boshlaganida, to'satdan gipoteza mutlaqo noto'g'ri, degan tasavvur hosil bo'ladi. Bu ko'pgina surishtiruvchilar bilan sodir bo'lgan.

### **Manbalarga odob bilan munosabatda bo'lish va ularni hurmat qilish kasbiy – axloqiy me'yordir**

Shvetsiyadagi SVT teletarmog'ining surishtiruvlar bo'limi rahbari Nils Xanson tanqidning asosli ekaniga ishonch hosil qilish uchun o'z reportyorlaridan quyidagi qoidalarga amal qilishni so'raydi:

– Materialni ko'rib chiqish va biror kishi, tashkilot yoki kompaniya to'g'risidagi har qanday tanqidiy fikrlarni qayd etish.

– Tanqid qilinayotgan tomon bu haqda biladimi?

– Tanqid qilinayotgan tomonda jurnalistning dalillariga javob bormi? Agar yo'q bo'lsa, demak, hammasi joyida emas. Materialni avval to'plash kerak edi.

– Reportyor javob yoki biror aks – sado olishga uringanini hujjatlar tasdiqlaydimi? Aytib o'tganimizday, bunday materialni ish jarayonida to'plash zarur.

– Tanqid qilinayotgan tomon javob tayyorlashi uchun yetarlicha vaqtga ega bo'ldimi? Savol qanchalik murakkab bo'lsa, boshqa tomonga shunchalik ko'proq vaqt kerak bo'ladi va uning bunga haqi bor.

– Tanqidiy fikrlarga javob berayotgan odam – aynan shuni qilishi kerak bo'lgan kishimi?

– Tanqid qilinayotgan tomonga o'z talqinini bayon etish imkoniyati berilganmidi? Agar berilmagan bo'lsa, unda maqola muallifi uning huquqlarini buzayotgan bo'ladi va, asosiysi, surishtiruvning muhim qismini ham qo'ldan chiqaradi.

– Manba jurnalist materiali matnida uning aynan qaysi gaplari keltirilishi haqida oldindan ma'lum qilishlarini so'rashi va aytilgan gaplarining aniq-aniqmasligini tekshirishi (ammo iqrorlari va bergan ma'lumotlarini olib tashlash emas) asosli, albatta. Bunday holatda, amaliyotda, ko'p jurnalistlar ushbu me'yorga beparvolik bilan qaraydi va bu ko'pincha ularga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

– Manba material bilan to'liq tanishtirishlarini talab qilishga haqli emas. Manbaga hech qachon bunday huquqni bermaslik kerak. Mavzu ushbu manbaga bag'ishlangan hamda surishtiruv predmeti texnik jihatdan juda murakkab bo'lib, manba qonuniy asosda muallif uning bevosita aralashuvisiz uni noto'g'ri tushunishidan xavfsiraydigan holatlar bundan mustasno, albatta (masalan, bu muayyan ilmiy mavzularga tegishli).

## **Xavfli manbalar bilan muloqot qilish odobi**

Axloqiy me'yorlarga rioya qilish uchun surishtiruvchi quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

a) xususiy mulk huquqini buzmaslik va o'z xavfsizligiga beparvo bo'lmaslik;

b) to'plangan materialni aslida qanday bo'lsa, shundayligicha, bezamasdan va oshirib ko'rsatmasdan yoritish. Axborotni to'plash va tahlil qilish chog'idagi beparvolik, jurnalistning o'quvchilarga yolg'on xabar berishi va odamlarning obro'yiga putur yetishiga olib keladi. Kichkinagina noaniqlikni sezgan tomoshabin, o'quvchi, tinglovchi materialga umuman ishonmay qo'yadi. Ushbu talabga amal qilmaslik, oxir-oqibatda, butun surishtiruvni chippakka chiqarishi, jurnalistning o'zi esa bir umr auditoriyaning ishonchidan mahrum bo'lishi mumkin;

d) mish-mishlar va g'iybatlar (ya'ni, tekshirilmagan manbalardan olinadigan axborot) keyingi ish va qidiruv uchun asos bo'lishi mumkin, lekin ular hech qachon maqola yoki reportaj manbai bo'lmasligi kerak;

e) jurnalist surishtiruvi muxbirning qonun bilan nizoga borishini ko'zda tutmasligi lozim;

f) muammoning bir tomonlama yoki noto'g'ri yoritilishidan qochish uchun muallif jurnalist surishtiruvi jarayoniga turli maslaklarga va fikrlarga ega kishilarni jalb etishi zarur. Ba'zida ushbu oddiy usul jurnalistning yuz berayotgan voqealarga yangicha nazar bilan qarashga olib keladi;

g) ham rasmiy, ham norasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar bir xil ishonchli bo'lishi mumkinligi, shunday bo'lsa-da, ularning hammasi majburiy tartibda puxta, batafsil va har tomonlama tekshirilishi kerakligini unutmaslik lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, jurnalist axborot va/yoki uning manbasi maxfiylikni saqlashi shart bo'lib, agar OAV xodimi tomonidan shaxsi sir saqlanishi va'da qilingan manbaning nomi oshkor etilsa, bu jurnalist ishonchga loyiq bo'lmaydi va uning uchun o'quvchilar hamda tomoshabinlar auditoriyasining ishonchi bir umrga yo'qoladi.

Mashhur surishtiruvchilar, odatda, har qanday surishtiruv chog'ida dushmanona kayfiyatdagi manbalar bilan muloqot qilishning alohida qoidalariga amal qilishni tavsiya etadi:

- telefon orqali gaplashish yoki odamlar ko'p bo'ladigan joyda uchrashish;
- ularga shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum qilmaslik;
- betakallulflikkacha bormaslik, o'zini do'st sifatida ko'rsatishga urinmaslik, o'zini aqlli qilib ko'rsatmaslik, o'ynashmaslik, hazillashishga urinmaslik, o'zini vazmin, bosiq tutish, qo'rqishini sezdirmaslik;
- maqola chiqqanidan keyin o'z izohlarini ma'lum qilish uchun manbalarga muallif bilan bog'lanish imkonini taqdim etish.

## **Faktlarni tekshirish jarayonida bosh arxivning ahamiyati**

**Surishtiruvning turli jihatlariga bag'ishlangan bosh arxiv va arxivlar turkumini yaratish jurnalistga ma'lumotlarni to'plash va ularning hisobini yuritishda yordam berishi mumkinligi aytib o'tilgan edi.**

To'g'ri tuzilgan bosh arxiv har bir fakt bo'yicha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Albatta, hikoyaga hamma manbalarni kiritish shart emas. Biroq shov-shuvli holatlarda manba-hujjatlarni shunday tartibda joylashtirish kerakki, bu ularni tekshirishini yengillashtirsin. Bunday bosh arxiv muayyan fakt bo'yicha materialni qayerdan izlash

kerakligi haqida ma'lumot beradi. Ushbu vaziyatlarda foydalanilgan har bir hujjatning yangi nusxalarini qilish va ularni foydalanish tartibida joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu faktlarni qayta tekshirishda juda muhim ahamiyatga ega. Bu muallifga manbalardan noto'g'ri iqtibos keltirgan-keltirmaganligini yoki iqtiboslardan noto'g'ri xulosa chiqarmaganini tekshirish imkonini beradi. Havolalar yaratish va hujjatlashtirish jarayonini uncha charchatmaydigan mashg'ulotga aylantiruvchi bir nechta usul mavjud. Agar manba Internet sahifasida joylashgan bo'lsa, unda sahifa ostidagi havolaga joylashtirilgan URL-manzilga kirish mumkin (hujjatli tasdiq sifatida zarur bo'ladigan veb-sahifalarni yuklab olsa bo'ladi). Shuningdek, o'z hujjatlaringizni veb-sahifaga joylashtirish yoki ularni kompakt-diskka ko'chirish mumkin. Buning uchun foydalanilayotgan elektron tashuvchilar ishonchli ekanini aniqlash zarur.

### **Faktlarni tekshirishning ehtimoliy psixologik oqibatlari**

**Faktlarni solishtirish jarayoni, albatta, uning barcha ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatadi. Faktlar qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Biroq ular o'z-o'zidan hech qayerga yo'qolmaydi.**

Avvalo, xulosalarni tekshirish uchun ma'lumotlarni ko'rib chiqish kerak. Bu ularni to'plash paytida his qilingan o'sha his-tuyg'ularni yana qayta esga soladi. Agar o'sha paytda g'azab, qo'rquv yoki tushkunlik holati his qilingan bo'lsa, ushbu hissiyotlarning aks-sadosini sezish mumkin. Eng qizig'i, surishtiruv obyektlariga nisbatan achinish hissi uyg'onishi mumkin. Odatda, bu hissiyot ortida qo'rquv yotadi. Jurnalistning ushbu hisslarni inobatga olishi oqilona ishdir. Jurnalist surishtiruv jarayoni davomida his-tuyg'ularni qayd etib borish ularni boshqarish mumkin bo'lgan materialga aylantiradi. Ba'zida bunday paytlarda qilingan qaydlardan hikoya matnida foydalanish mumkin bo'ladi.

Ko'pincha jurnalist ushbu jarayonning muayyan bosqichida nimanidir noto'g'ri tushunganini his qilishi mumkin. Ushbu instinktiv xavotir bir nechta sababga ko'ra paydo bo'ladi va ularning hammasi asosli tuyuladi. U jiddiy xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi mumkin. Bunday paytda eng yaxshi yechim ushbu uchastkada ishni qayta tekshirishdir. Shuningdek, muallif rostdan ham haqiqatni izlab topgan bo'lishi mumkin. Ammo, u shu darajada achchiq yoki qo'rqinchli istiqbollarni qamrab olganki, jurnalist unga ishonmaydi. Yo'l qo'yilgan xatoni tan olish uni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi. Va yana: u matndagi boshqa xatolarni ham izlab topishga yordam beradi. Ko'pgina xatolar materialdagi kamchiliklarni o'z to'qimalari bilan to'ldirishga harakat qilish tufayli yuz beradi. (Masalan, "Kolombo" serialining bosh qahramoni film davomida o'zining shoh usullaridan birini qo'llaydi, ya'ni gumondorga vaziyatni o'zi tasavvur qilganiday fikrlab, oxiriga yetkazishni taklif etadi).

## XULOSA

Hozirgi paytda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari yangi cho‘qqilarni zabt etmoqda. Shu bois jurnalist surishtiruviga qiziqish kun sayin oshib bormoqda. Jurnalist faoliyatining ushbu yo‘nalishiga ham jurnalistlar, ham OAV auditoriyasi alohida e‘tibor bildirayotgani, avvalo, jamiyatni jurnalistikaga mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning ko‘zgusi sifatida qaralayotgani bilan izohlanadi.

Jurnalist surishtiruvi yo‘nalishidagi materiallar jamiyatning ongi va kayfiyatiga ta‘sir qilishi, fuqarolarning yangilanish jarayonlariga munosabatini shakllantirishi, ularni kelgusida fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirok etishiga rag‘batlantirishning muhim omiliga aylanishi aniq.

“Birinchidan, davlat va jamiyat tomonidan bunday maqolalarga ehtiyoj tug‘diruvchi axloqiy-huquqiy vaziyat, ikkinchidan, jurnalist jiddiy surishtiruvlar o‘tkazishga tayyor bo‘lganidagina yuzaga keladi”<sup>58</sup> deydi vatanimiz tadqiqotchilaridan biri. Darhaqiqat, buning uchun, mamlakatning milliy-tarixiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanish xususiyatlari hamda milliy turmush tarzining o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, jamiyat jurnalist surishtiruvlarini mos ravishda qabul qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Jurnalist surishtiruvini faqat davlat tomonidan va, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish organlari, boshqa davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ko‘mak bo‘lganidagina amalga oshirish mumkin. Aynan ular jurnalistlarga o‘zlarining kasbiy burchini amalga oshirishda yordam beradi.

Surishtiruv faoliyatini o‘tkazishda jurnalistika muhitidagi to‘siqlarni ham yengib o‘tish zarur. Bunday holat, mavzuning maydaligidagi, uni tadqiq etishga yuzaki yondashishda va buning natijasida ko‘plab maqolalarda fikr yakunlanmaganligi, oxirigacha aytilmaganligida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston demokratiya qadriyatlari tomon yuz tutar ekan, matbuot sohasini yanada erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari ham jadallashib boradi. Bunga esa, jurnalist surishtiruvdan faolroq foydalanish orqali ham erishish mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda O‘zbekiston OAV sohasidagi takomillashib borayotgan qonunchilik bazasi, taniqli tahlilchi-jurnalistlar amaliyoti va boy xorijiy tajriba mamlakatimiz jurnalistikasida ham ushbu yo‘nalish yanada kengayib borishi va u amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar muvaffaqiyatining garoviga aylanishiga umid bag‘ishlaydi.

---

<sup>58</sup> Муминов Ф.А. Журналистское расследование. Учебное пособие. – Т.: Университет, 2002. – С. 82.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Жаҳон молиявий–иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни баргараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маъруза, 2007 йил 30 август. // Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодийетимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16.– Т.: Ўзбекистон, 2008. - Б. 3–56.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza, 2010-yil 12-noyabr. // Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – O‘zbekiston, 2011.- B. 35–104.
4. Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. // Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т.: Ўзбекистон, 2009. - Б. 131– 146.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza, 2010-yil 27-yanvar. // Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. T.18.–Т.: O‘zbekiston, 2010. - B. 115–144.
6. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. – Т.: Академия, 2000.
7. Берлин М. Краткое руководство по проведению журналистского расследования. – М., 1989.
8. Васильева Л.А. Делаем новости! – М.: Аспект Пресс, 2002.
9. Есин Б.И. История русской журналистики XIX века. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2003.
10. Журналистское расследование: История метода и современная практика./ Под общ. ред.А.Д.Константинова. – СПб.: ИД «Нева», 2001.
11. Иванян Э.А. От Джорджа Вашингтона до Джорджа Буша. Белый дом и пресса. – М.: ИД «Эксперт», 1991.
- 12.Лазутина Г.В. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Аспект Пресс, 2000.
13. Марк Ли Хантер и др. Исследование, основанное на истории: учебное пособие по проведению журналистских расследований. – ЮНЕСКО, 2012.
14. Морозов Н. Сорок лет с Гиляровским. – М.: Просвещение, 1963.
15. Муминов Ф.А. Журналистское расследование. Учебное пособие. – Т.:Университет, 2002.
16. Нестеренко Ф.П., Ирназаров К.Т., Маматова Я.М. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. Учебное пособие. Часть1. – Т.: Зар калам, 2002.
17. Рэндалл Д. Универсальный журналист. Пер. с англ. Алматы: Центральноазиатская школа молодых журналистов, 1996.
18. Тертыйный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: Аспект Пресс, 2002.
19. Уиллмен Дж. Журналистские расследования: современные методы и техника. Пер. с англ. – М.:Виоланта, 1998.
20. Шум Ю.А. Журналистское расследование. Методические рекомендации. – М.: Фонд защиты гласности, 2000.

21. Якубов С.С. Ўзбекистон матбуотида журналист текшируви: шаклланиши, тематикаси ва ривожланиши муаммолари (“Хуррият”, “Халқ сўзи” ва “Ҳуқуқ” газеталарининг 2003 – 2007 й.й. материаллари мисолида). Магистрлик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.:ЎЗМУ, 2008.

22. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida (yangi tahrir). O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2007-yil 15-yanvarda qabul qilindi. // Xalq so‘zi, 2007, 16-yanvar.

23. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2014-yil 5-mayda qabul qilindi.// Xalq so‘zi, 2014, 6-may.

### **Davriy nashrlar**

1. Аргументы и факты – Узбекистан, 2006, № 26, 42.
2. Der Spiegel, 2005-yil sonlari taxlami.
3. Журналист, 1994, №5.
4. Новая газета, 2007, 30 июль, №57.
5. Ойна, 1914, №22, 22 март; №24, 5 апрель.
6. Правда Востока, 2006, №119–120, 2012, 7- сентябрь.
7. Российская газета, 2005, 5 май.
8. Садои Фарғона, 1914, 7 май.
10. Совершенно секретно, 2007, №1.
11. Эхо планеты, 1997, №38.



## **O‘quv qo‘llanma**

**Tuzuvchilar:**

**Ya. Mamatova, S. Sulaymanova**

### **HAQIQAT IZLAB: O‘ZBEKISTONDA JURNALIST SURISHTIRUVINING SAMARADORLIGI OMILLARI**

Muharrir - R. Inog‘omov  
Kompuyterda sahifalovchi - R. Sharipov

Nashr. lits. AI № 222. 16.11. 2012.  
Bosishga 16.12.2014da berildi. Bichimi 60x84<sup>1/8</sup>.  
«Times New Roman» garniturasini. Nashr. tab. 10. Bosma tab. 9,5.  
Adadi 800. № дог. 78

Original maket «Extremum-Press» MCHJda tayyorlandi.  
100053, Toshkent sh., Bogishamol 57 b. Tel:234-44-01  
E-mail: Extremum-Press@mail.ru

«YANGI FAZO PRINT» MCHJda bosmahonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Afrosiyob k., 41-uy. Tel:252-60-80  
E-mail: YangiFazo@mail.ru